Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligi masalalari global miqyosda dolzarb hisoblanadi. Aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat bilan ta’minlash, sanitar-gigiyena talablariga qat’iy rioya qilish hamda bozor raqobatbardoshligini saqlash zamonaviy korxonalardan yuqori darajadagi mas’uliyat talab qiladi. Parranda mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar, xususan, go‘sht va tuxum yetishtiruvchi korxonalar ushbu mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi[1].

“Oychi Parranda” MChJ misolida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va menejment tizimini ilmiy asosda joriy etish zaruriyati mavjud. Bu esa xalqaro miqyosda tan olingan ISO 22000 standarti talablariga muvofiq tizimni tashkil etishni talab qiladi. ISO 22000 standarti oziq-ovqat xavfsizligi menejmentini jarayonli yondashuv va xavfga asoslangan fikrlash asosida qurishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, tizimning samarali ishlashi uchun HACCP tamoyillari bo‘yicha muhim nazorat nuqtalari (CCP), operatsion nazorat choralari (OPRP) va dastlabki shart-sharoit dasturlari (PRP) aniqlanishi zarur[2].

Validatsiya jarayoni esa tizimning haqiqiy samaradorligini tasdiqlash, nazorat choralari va belgilangan kritik chegaralarning ilmiy asoslanganligini isbotlashga xizmat qiladi. Bu bosqich laboratoriya tahlillari, monitoring va statistika asosida amalga oshiriladi hamda mahsulot xavfsizligini kafolatlaydi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqotning maqsadi “Uychi Parranda” MChJ korxonasida ISO 22000 standarti asosida oziq-ovqat xavfsizligi menejment tizimini validatsiya qilish modelini ishlab chiqish va uni amalda tatbiq etishdir. Tadqiqot natijalari korxona ishlab chiqarish jarayonlarini standartlashtirish, sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish va mahsulot xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi[3].

HACCP metodologiyasi orqali “Uychi Parranda” MChJda muhim nazorat nuqtalari (CCP) aniqlanadi, masalan: issiqlik bilan ishlov berish jarayoni, sovutish rejimi, sanitariya ishlovlari va laboratoriya nazorati hamda har bir CCP uchun kritik chegaralar belgilandi va monitoring tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bundan tashqari, oziq-ovqat xavfsizligi tizimi korxonaning umumiy boshqaruv tizimi bilan integratsiyalashgan holda ishlashi ta’minlandi[4]. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, ISO 2200 talablariga muvofiq jarayonlar hujjatlashtirildi, ichki auditlar o‘tkazildi, rahbariyat tomonidan tahlil qilish ishlari amalga oshirildi va

ADABIYOTLAR SHARXI. Oziq-ovqat xavfsizligi menejment tizimlari sohasidagi tadqiqotlar ISO 22000 va HACCP tizimlarining samaradorligini


ISSN 3030-3907

ko‘rsatadi. ISO 22000 standarti oziq-ovqat xavfsizligini jarayonli yondashuv va xavfga asoslangan fikrlash tamoyillari bilan boshqarishni nazarda tutadi. Rashidova go‘shtni qayta ishlash korxonalarida tizimni tatbiq etish mahsulot xavfsizligini oshirishi va ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilashini ta’kidlaydi[5]. Safayeva ISO 22000 va HACCP standartlari asosida ishlab chiqarish zanjiriga integratsiyaning korxona faoliyatiga ijobiy ta’sirini tahlil qilgan[6]. Fayzullayeva tizim xavflarni aniqlash va muhim nazorat nuqtalarini monitoring qilish orqali sifat va xavfsizlikni kafolatlashini ko‘rsatadi[7]. Asilova va Nosirova xalqaro standartlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va mahsulot sifatini oshirishdagi rolini yoritgan. Balashov va boshq. sanoat darajasida tizim samaradorligini baholagan. Tadqiqotlar ISO 22000 va HACCP tizimlarini joriy etish va validatsiya qilish korxonalarda xavflarni kamaytirish va xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta’minlashda samarali ekanligini ko‘rsatadi. Site Master File (SMF) esa korxona faoliyatini tizimli hujjatlashtirishga xizmat qiladi[8].

METODOLOGIYA. Tadqiqot ISO 22000 standarti asosida oziq-ovqat xavfsizligi menejment tizimini validatsiya qilish jarayoniga qaratilgan. Metodologiya bir nechta bosqichdan iborat bo‘lib, ularning har biri tizimning samaradorligini va xalqaro standartlarga muvofiqligini ta’minlashga xizmat qiladi[9].

Avvalo, korxonaning ishlab chiqarish faoliyati, boshqaruv tizimi va sanitariya-gigiyena sharoitlarini tizimli hujjatlashtirish maqsadida Site Master File (SMF) ishlab chiqiladi. So‘ng, mavjud tizim va umumiy qoidalar o‘rganilib, yuqori rahbariyat ishtirokida tizimga jiddiy yondashuv ta’minlanadi. Dastlabki baholash jarayonida korxona oziq-ovqat xavfsizligi tizimining mavjudligi va samaradorligi tahlil qilinadi, aniqlangan kamchiliklar bo‘yicha tuzatish choralari belgilanadi. Keyingi bosqichda validatsiya natijalari baholanib, tizimning amaliy ishlashi tasdiqlanadi[10].

ISSN 3030-3907




1- rasm. ISO 22000 asosida oziq-ovqat xavfsizligi menejment tizimini validatsiya qilish modeli

Tadqiqot yakunida barcha jarayonlar hujjatlashtiriladi, natijalar tahlil qilinib, rahbariyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Agar nomuvofiqliklar aniqlansa, ularni bartaraf etish uchun chora-tadbirlar amalga oshiriladi va zarurat tug‘ilganda jarayon takrorlanadi. Ushbu metodologiya validatsiya jarayonining sifatli va samarali bajarilishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, oziq-ovqat xavfsizligi tizimining barqarorligini kafolatlaydi[11, 12].

TADQIQOT NATIJASI. Bugungi kunda parranda mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar aholiga sifatli va xavfsiz go‘sht hamda tuxum yetkazib berish, sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish va bozorda raqobatbardoshlikni saqlash bo‘yicha katta mas’uliyatga ega. Shu sababli, “Uychi Parranda” MChJda oziq-ovqat xavfsizligi menejment tizimi ISO 22000 xalqaro standarti asosida joriy etildi. Tizim jarayonli yondashuv va xavfga asoslangan fikrlash tamoyillari bilan tashkil qilinib, HACCP metodologiyasi orqali muhim nazorat nuqtalari (CCP), operatsion nazorat choralari (OPRP) va dastlabki shart-sharoit dasturlari (PRP) aniqlanib, kritik chegaralar va monitoring tizimi ishlab chiqildi. Validatsiya laboratoriya tahlillari, statistik va eksperimental usullar orqali o‘tkazilib, tizim samaradorligi tasdiqlandi. Sovutish zanjiri va saqlash sharoiti mikrobiologik ko‘rsatkichlar asosida baholandi. Tuxum yetishtirish jarayonida oziqa sifati, suv sifati, harorat, sanitariya va parranda sog‘ligi nazorat qilindi. Site Master File (SMF) ishlab chiqilib, korxona faoliyati, boshqaruv tizimi va sanitariya-gigiyena sharoitlari tizimli hujjatlashtirildi. Taklif etilgan validatsiya modeli oziq-ovqat xavfsizligini kompleks boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlarini standartlashtirish va mahsulot sifatini kafolatlashga xizmat qiladi. Validatsiya natijalari tizim samaradorligini tasdiqlaydi va rahbariyatga jarayonlarni ilmiy asosda baholash

ISSN 3030-3907

imkonini beradi.Korxonada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun bir qator asosiy hujjatlar yuritiladi. Oziq-ovqat xavfsizligi siyosati korxonaning xavfsiz mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha rasmiy majburiyatini belgilaydi. HACCP rejasi ishlab chiqarish jarayonidagi xavflarni tahlil qiladi va kritik nazorat nuqtalarini aniqlaydi. PRP dasturlari gigiyena talablari, dezinfeksiya tartibi, zararkunandalarga qarshi kurash, suv sifati nazorati va xodimlar sanitariyasini qamrab oladi(2.19 – rasmda keltirilgan).



2.– rasm. Uychi parranda MChJ korxonasida validatsiya ishlari olib boriladigan obyektini ta’nlash

Monitoring protokollari harorat jurnallari, metall detektor nazorati, laboratoriya tahlillari va tozalash yozuvlarini o‘z ichiga oladi. Risk baholash hujjatlari esa biologik, kimyoviy va fizik xavflarni ehtimollik va ta’sir darajasi asosida baholaydi. Uychi parranda korxonasida validatsiya obyekti oziq-ovqat xavfsizligi tizimining muhim elementlarini qamrab oladi.

1 – jadval.

Tuxum yetishtirish – CCP

№	Jarayon	Ko‘rsatkich	Kritik chegara	Nazorat usuli
1	Oziqa sifati	Aflatoksin B1	≤ 20 µg/kg	Laboratoriya tahlili
2	Ichimlik suvi	E.coli	0 KOE/100 ml	Mikrobiologik tahlil
3	Tuxum saqlash	Harorat	0–4°C	Termometr / monitoring
4	Sanitariya	Dezinfeksiya samaradorligi	≥ 99% mikroblar kamayishi	Tekshiruv / test
5	Parranda sog‘ligi	Kasallik belgisi	Aniqlanmasligi	Veterinariya nazorati

ISSN 3030-3907

Tuxum yetishtirish va go‘shtni qayta ishlash jarayonlarida CCP - kritik nazorat nuqtalari, mahsulot xavfsizligini ta’minlash uchun belgilanadi. Tuxum yo‘nalishida oziqa sifati, ichimlik suvi, saqlash harorati, sanitariya va parranda sog‘ligi nazorat qilinadi.

2 – jadval.

Go‘shtga so‘yish- CCP

№	Jarayon	Ko‘rsatkich	Kritik chegara	Nazorat usuli
1	Suvga solish	Harorat	≥ 75°C (15 soniya)	Termometr
2	Sovutish	Harorat	0–4°C	Harorat monitoringi
3	Mikrobiologiya	Salmonella	0	Laboratoriya
4	Metall detektor	Begona jism	Aniqlanmasligi	Metall detektor
5	pH nazorati	pH daraja	5.5–6.2	pH metr

Aflatoksin B1 ≤20 µg/kg, suvda E.coli 0 bo‘lishi, harorat 0–4°C saqlanishi talab etiladi. Go‘shtni qayta ishlashda ichki harorat ≥75°C, sovutish 0–4°C, Salmonella 0, metall detektorda begona jism aniqlanmasligi va pH 5.5–6.2 oralig‘ida bo‘lishi kerak. Nazorat laboratoriya, termometr va monitoring orqali amalga oshiriladi.

Tuxum yetishtirish va go‘shtni qayta ishlash korxonalarida PRP (Dastlabki shart-sharoit dasturlari) oziq-ovqat xavfsizligi tizimining asosini tashkil etadi. Tuxum ishlab chiqarishda binolar gigiyenasi doimiy ravishda toza va dezinfeksiya qilingan bo‘lishi kerak, bu vizual nazorat orqali tekshiriladi. Xodimlar maxsus kiyimda ishlashi va qo‘l gigiyenasiga rioya qilishi zarur. Zararkunandalarga qarshi kurash reja asosida olib boriladi va monitoring qilinadi. Jihozlar ishga yaroqli hamda toza holatda bo‘lishi lozim. Oziqa quruq sharoitda saqlanadi, harorat va namlik nazorat qilinadi. Chiqindilar alohida joyda yig‘ilib, tezkor chiqariladi.

3 – jadval.

Tuxum yetishtirish – PRP

№	Jarayon	Ko‘rsatkich	Kritik chegara	Nazorat usuli
1	Ferma gigiyenasi	Tozalik darajasi	Kundalik tozalash	Vizual nazorat
2	Suv sifati	Mikroblar (E.coli)	0 KOE/100 ml	Laboratoriya tahlili
3	Ozuqa sifati	Aflatoksin	≤ 20 µg/kg	Laboratoriya
4	Parranda sog‘ligi	Kasallik belgisi	0 ta kasallik	Veterinar ko‘rik
5	Dezinfeksiya	Samaradorlik	≥ 98%	Dezinfeksiya nazorati
6	Xodimlar gigiyenasi	Sanitariya talabi	To‘liq rioya	Ichki audit

ISSN 3030-3907

Go‘shtni qayta ishlashda ishlab chiqarish gigiyenasi audit orqali baholanadi. Xodimlar tibbiy ko‘rikdan o‘tgan bo‘lishi shart. Suv sifati laboratoriya tahlili bilan tekshiriladi. Jihozlarni yuvish va dezinfe ksiya qilish tasdiqlangan rejim asosida amalga oshiriladi. Sovutish tizimi harorat nazorati bilan kuzatiladi. Transport vositalari toza va dezinfeksiya qilingan bo‘lishi kerak. PRP talablari xavflarni kamaytirib, CCP samaradorligini ta’minlaydi.

4 – jadval.

Go‘shtga so‘yish – PRP

№	Jarayon	Ko‘rsatkich	Kritik chegara	Nazorat usuli
1	Ishlab chiqarish binosi gigiyenasi	Tozalik darajasi	Kundalik sanitariya	Vizual nazorat
2	Xodimlar gigiyenasi	Qo‘l va kiyim tozaligi	Sanitariya talablariga rioya	Ichki audit
3	Suv sifati	Mikroblar (E.coli)	0 KOE/100 ml	Laboratoriya tahlili
4	Xomashyo nazorati	Harorat	0–4°C (qabul paytida)	Termometr
5	Dezinfeksiya	Samaradorlik	≥ 98%	Dezinfeksiya nazorati
6	Saqlash sharoiti	Harorat	0–4°C	Harorat monitoringi

Tuxum yetishtirish va go‘shtni qayta ishlash jarayonlarida OPRP (Operatsion nazorat choralari) xavflarni sezilarli darajada kamaytirish uchun qo‘llaniladi. Tuxum yo‘nalishida oziqa qabul qilish bosqichida kiruvchi nazorat amalga oshiriladi va mikotoksin miqdori belgilangan standartdan oshmasligi kerak.

Suv sifati filtrlash va dezinfeksiya orqali ta’minlanadi, E.coli ko‘rsatkichi 0 bo‘lishi shart. Tuxum saralash jarayonida yoriq yoki iflos mahsulotlar 100% vizual tekshiruv orqali ajratiladi. Saqlash harorati 0–4°C oralig‘ida nazorat qilinadi. Gigiyena talablari bo‘yicha xodimlar qo‘l dezinfeksiyasini har smenada bajaradi.

5– jadval.

Tuxum yetishtirish – OPRP

№	Jarayon	Ko‘rsatkich	Kritik chegara	Nazorat usuli
1	Oziqa qabul qilish	Kiruvchi nazorat	Mikotoksin ≤ standart	Laboratoriya
2	Suv sifatini nazorat	Filtrlash + dezinfeksiya	E.coli = 0	Tahlil

ISSN 3030-3907

3	Tuxum saralash	Yoriq/iflos tuxumni ajratish	100% tekshiruv	Vizual
4	Harorat nazorati	Sovutish tizimi	0–4°C	Termometr
5	Gigiyena nazorati	Qo‘l dezinfeksiyasi	Har smenada	Kuzatuv

Go‘shtni qayta ishlashda xom ashyo veterinariya tekshiruvidan o‘tishi va sifat sertifikatiga ega bo‘lishi kerak. Kesish jarayonida kontaminatsiyaning oldi olinadi va gigiyena talablari audit orqali nazorat qilinadi. Sovutish zanjiri uzluksiz 0–4°C haroratda saqlanadi.

6– jadval.

Go‘shtga so‘yish – OPRP

№	Jarayon	Ko‘rsatkich	Kritik chegara	Nazorat usuli
1	Xom ashyo qabul qilish	Veterinariya tekshiruvi	Sifat sertifikati	Hujjat nazorati
2	Kesish jarayoni	Kontaminatsiya oldini olish	Gigiyena talabi	Audit
3	Sovutish zanjiri	Uzluksiz harorat	0–4°C	Monitoring
4	Begona jism nazorati	Metall detektor	Aniqlash qobiliyati ≥ belgilangan	Tekshiruv
5	Qadoqlash	Toza material	Standartga mos	Vizual

Metall detektor begona jismlarni aniqlash uchun ishlatiladi va mahsulot bloklanadi. Qadoqlash jarayoni toza material bilan amalga oshiriladi. Tuzatish choralari xavf aniqlanganda darhol qo‘llaniladi. PRP, OPRP va CCP tizimlarida nazorat usullari oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning asosiy mexanizmi hisoblanadi. PRP korxonada umumiy gigiyena va sanitariya muhitini yaratadi. Gigiyena vizual tekshiruv orqali baholanadi, sanitariya ishlari reja asosida dezinfeksiya va sanitariya jurnalida qayd etish bilan amalga oshiriladi. Zararkunandalarga qarshi kurash monitoring va tuzoqlar yordamida nazorat qilinadi. Xodimlar tibbiy ko‘rik hujjatlari orqali tekshiriladi. Ombor sharoiti esa termometr va gigrometr yordamida harorat hamda namlik o‘lchash orqali nazorat qilinadi.

7 – jadval.

PRP - Nazorat usullari

№	Yo‘nalish	Nazorat usuli	Asbob/Metod
1	Gigiyena	Vizual tekshiruv	Kuzatuv
2	Sanitariya	Reja asosida dezinfeksiya	Sanitariya jurnali

ISSN 3030-3907

3	Zararkunanda	Monitoring va tuzoqlar	Deratizatsiya nazorati
4	Xodimlar	Tibbiy ko‘rik hujjati	Hujjat tekshiruvi
5	Ombor sharoiti	Harorat/namlik o‘lchash	Termometr, gigrometr

OPRP jarayon davomida xavflarni kamaytirishga qaratilgan. Oziqa sifati laboratoriya tahlili va kimyoviy testlar bilan tekshiriladi. Suv sifati mikrobiologik usulda baholanadi. Harorat doimiy monitoring orqali termometr yoki datalogger yordamida kuzatiladi. pH darajasi pH-metr bilan o‘lchanadi. Kontaminatsiya ichki audit va tekshiruv ro‘yxati asosida aniqlanadi.

8 – jadval.

OPRP - Nazorat usullari

№	Jarayon	Nazorat usuli	Usul
1	Oziqa sifati	Laboratoriya tahlili	Kimyoviy test
2	Suv sifati	Mikrobiologik tekshiruv	Laboratoriya
3	Harorat nazorati	Doimiy monitoring	Termometr/datalogger
4	pH nazorati	O‘lchash	pH-metr
5	Kontaminatsiya	Ichki audit	Tekshiruv ro‘yxati

CCP esa xavfni yo‘q qilish yoki maqbul darajagacha kamaytiradi. Issiqlik ishlovi harorat-vaqt nazorati va kalibrlangan termometr orqali amalga oshiriladi. Sovutish jarayoni uzluksiz datalogger bilan monitoring qilinadi. Metall aniqlash avtomatik metall detektor yordamida bajariladi.

9 – jadval.

CCP – Nazorat usullari

№	Jarayon	Nazorat usuli	Asbob/Metod
1	Issiqlik ishlovi	Harorat-vaqt nazorati	Kalibrlangan termometr
2	Sovutish	Uzluksiz monitoring	Datalogger
3	Metall aniqlash	Metall detektor	Avtomatik tizim
4	Mikrobiologiya	Laboratoriya tahlili	Test usuli
5	pH nazorati	O‘lchash	pH-metr

Mikrobiologik xavflar laboratoriya tahlili orqali baholanadi. pH nazorati esa aniq o‘lchov vositasi — pH-metr bilan amalga oshiriladi.

10 – jadval.

O‘lchash vositalari aniqligi

№	O‘lchash vositasi	Qo‘llanish sohasi	Aniqlik talabi	Tekshirish (kalibrlash)	Nazorat turi
1	Termometr	Harorat (sovutish, pishirish)	±0.5°C	Yiliga kamida 1 marta	CCP

ISSN 3030-3907

2	Datalogger	Doimiy harorat monitoringi	±0.3–0.5°C	Reja asosida	CCP
3	pH-metr	pH nazorati	±0.1 pH	Har foydalanishdan oldin	OPRP/CCP
4	Gigrometr	Namlik nazorati	±2–3%	Reja asosida	PRP
5	Metall detektor	Begona jism aniqlash	Minimal sezgirlik (masalan 1.5–2 mm)	Har smena tekshiruvi	CCP
6	Tarozilar	Og‘irlik nazorati	±0.1–1 g	Kalibrlash sertifikati bilan	OPRP
7	Laboratoriya uskunalari	Mikrobiologik tahlil	Standart metod bo‘yicha	Akkreditatsiya	CCP

O‘lchash vositalarining aniqligi oziq-ovqat xavfsizligi tizimida muhim ahamiyatga ega, chunki PRP, OPRP va ayniqsa CCP nazoratlari ishonchli natijalarga tayanishi kerak. Har bir o‘lchov vositasi belgilangan aniqlik talabi asosida tanlanadi va muntazam kalibrlashdan o‘tkaziladi. Masalan, termometrlar sovutish va pishirish jarayonlarida haroratni ±0.5°C aniqlikda o‘lchashi lozim hamda yiliga kamida bir marta tekshiriladi.

Dataloggerlar doimiy monitoring uchun ishlatiladi va ±0.3–0.5°C aniqlik talab etiladi. pH-metrlar pH nazoratida ±0.1 pH xatolik bilan ishlashi kerak va har foydalanishdan oldin tekshiriladi. Gigrometrlar namlikni ±2–3% aniqlikda o‘lchaydi va reja asosida kalibrlanadi. Metall detektorlar begona jismlarni aniqlashda yuqori sezgirlikka ega bo‘lishi shart va har smenada sinovdan o‘tkaziladi. Tarozilar og‘irlikni ±0.1–1 g aniqlikda ko‘rsatishi kerak va kalibrlash sertifikati bilan tasdiqlanadi. Laboratoriya uskunalari esa akkreditatsiyadan o‘tgan standart metodlar asosida ishlatiladi. “Uychi Parranda” MChJda oziq-ovqat xavfsizligi tizimi validatsiyasi mahsulot xavfsizligini kafolatlash maqsadida amalga oshirildi. Mikrobiologik, fizik, kimyoviy va texnologik mezonlar belgilab olinib, barcha jarayonlar hujjatlashtirildi. Validatsiya bosqichlari — rejalashtirish, ma’lumot yig‘ish, tahlil, xulosa va hujjatlashtirish — laboratoriya, statistik va eksperimental usullar bilan amalga oshirildi. CCP, OPRP va PRP elementlari samaradorligi baholandi. Site Master File (SMF) ishlab chiqilib, ishlab chiqarish jarayonlari, sifat menejmenti, sanitariya-gigiyena talablari va monitoring tizimi

ISSN 3030-3907

tizimli tarzda hujjatlashtirildi. Natijalar tizimning samaradorligini tasdiqladi va mahsulot xavfsizligini kafolatlash imkonini berdi.

MUZOKARA. Tadqiqot natijalari “Uychi Parranda” MChJda ISO 22000 standarti asosida joriy etilgan oziq-ovqat xavfsizligi menejment tizimining samaradorligini ko‘rsatadi. Validatsiya jarayoni laboratoriya, statistik va eksperimental usullar orqali amalga oshirilib, tizim elementlari – CCP, OPRP va PRP – o‘z vazifalarini to‘liq bajarayotgani tasdiqlandi. PRP tizimi sanitariya-gigiyena va umumiy gigiyenani ta’minlashda, OPRP jarayon davomida xavflarni kamaytirishda, CCP esa mahsulot xavfsizligini kafolatlashda asosiy rol o‘ynaydi. Sovutish zanjiri, go‘shtni qayta ishlash va tuxum yetishtirish jarayonlaridagi monitoring tizimi xavflarni maqbul darajaga tushirishini ko‘rsatdi. Shuningdek, Site Master File (SMF) hujjatlari korxona faoliyati, boshqaruv tizimi va validatsiya jarayonlarini tizimli ravishda hujjatlashtirish imkonini berdi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, taklif etilgan validatsiya modeli oziq-ovqat xavfsizligini kompleks boshqarish va mahsulot sifatini kafolatlashga xizmat qiladi.

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Uychi Parranda MChJda ISO 22000 standarti asosida joriy etilgan oziq-ovqat xavfsizligi menejment tizimi samarali ishlamoqda. Validatsiya jarayoni laboratoriya, statistik va eksperimental usullar orqali amalga oshirilib, CCP, OPRP va PRP elementlari oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muvaffaqiyatli ekanligi tasdiqlandi. PRP tizimi gigiyena va sanitariya talablarini, OPRP jarayon davomida xavflarni kamaytirishni, CCP esa mahsulot xavfsizligini kafolatlashni ta’minlaydi. Sovutish zanjiri, go‘shtni qayta ishlash va tuxum yetishtirish jarayonlaridagi monitoring tizimi tizim samaradorligini isbotladi. SMF hujjatlari esa korxona faoliyati, boshqaruv tizimi va validatsiya jarayonlarini tizimli ravishda hujjatlashtirish imkonini berdi. Shu bilan birga, taklif etilgan validatsiya modeli korxonaning oziq-ovqat xavfsizligini kompleks boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlarini standartlashtirish va mahsulot sifatini kafolatlashga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot korxona rahbariyati uchun jarayonlarni ilmiy asosda baholash va tizimni doimiy takomillashtirish imkoniyatini yaratadi, shuningdek xalqaro standartlarga muvofiqlikni mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Hamidova L. Oziq-ovqat sifat nazorati va xavfsizlik tizimlarining samaradorligi // Journal of Food Quality and Safety. – 2017. – Vol. 3, No. 2. – P. 50–59.
2. Akhmedov R. Parranda mahsulotlarini qayta ishlashda xavflarni boshqarish va nazorat nuqtalari // Uzbek Journal of Food Engineering. – 2019. – Vol. 4, No. 1. – P. 11–20.

ISSN 3030-3907

3. Tadjibaeva G. ISO 22000 standarti asosida oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimini joriy etish // Scientific Review of Food Safety. – 2021. – Vol. 6, No. 1. – P. 29–38.
4. Nurmatov B., Rahimova S. Oziq-ovqat xavfsizligi tizimlarida PRP va OPRP elementlarini tatbiq etish // Journal of Food Safety and Quality. – 2020. – Vol. 8, No. 2. – P. 14–23.
5. Rashidova N. Implementation of Food Safety Management Systems in Meat Processing Enterprises: The Role of HACCP and ISO 22000 in Ensuring Consumer Health // Journal of Food Safety. – 2018. – Vol. 38, No. 4. – P. 1–10.
6. Safayeva D. Oziq-ovqat ishlab chiqarish zanjirida xalqaro standartlarni (ISO, HACCP, Codex Alimentarius) joriy etishning samaradorligini tahlil qilish // Food Technology Journal. – 2020. – Vol. 12, No. 2. – P. 45–55.
7. Fayzullayeva M. Oziq-ovqat xavfsizligi va sifat nazorati // Scientific Journal of Food Safety. – 2019. – Vol. 7, No. 1. – P. 22–31.
8. Asilova Z., Nosirova L. Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashda xalqaro standartlarning o‘rni // International Journal of Food Science. – 2021. – Vol. 14, No. 3. – P. 101–112.
9. Usmonov M. Go‘shtni qayta ishlash va tuxum yetishtirishda HACCP tizimini qo‘llash tajribasi // Food Science and Technology Review. – 2018. – Vol. 10, No. 1. – P. 41–50.
10. Yusupova F. ISO 22000 standartini parrandachilik korxonalarida tatbiq etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot natijalari // Journal of Uzbek Agriculture. – 2021. – Vol. 7, No. 3. – P. 66–75.
11. Rahmonov A., Ganiev J. Oziq-ovqat xavfsizligi menejment tizimlarini validatsiya qilish usullari // Scientific Journal of Food Safety. – 2019. – Vol. 6, No. 2. – P. 88–97.
12. Islomov A., Karimova F. Oziq-ovqat xavfsizligi menejment tizimlarini joriy etishning amaliy tajribasi // Journal of Uzbek Food Science. – 2019. – Vol. 5, No. 2. – P. 33–42.

ISSN 3030-3907

UDK: 621.892:631.372:620.178

ISSIQ VA CHANGLI MUHITDA TRAKTOR DIZEL DVIGATELLARI DETALLARINING YEYILISH BARDOSHLILIGIGA MOTOR MOYI HOLATINING TA'SIRI HAQIDA

Shaabidov Shoraxmat Asqarovich
Toshkent davlat texnika universiteti. t.f.d., prof.
Igamberdiyev Abdulaziz Abduraimovich
Toshkent davlat texnika universiteti kat.o'qit.

Annotatsiya. Maqolada issiq va changli iqlim sharoitida ishlatiladigan qishloq xo'jaligi traktorlarining dizel dvigatellarida o'zaro ishqalanuvchi detallar yeyilishining motor moyi holatiga bog'liqligi tadqiq etilgan. Atrof-muhit harorati, chang konsentratsiyasi va dvigatel yuklamalarining motor moyining fizik-kimyoviy xossalariga ta'siri hamda bu omillarning porshen-silindr guruhi, podshipniklar va klapan mexanizmlarining yeyilish bardoshliligiga ta'siri ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari issiq iqlim sharoitida motor moyining degradatsiyasi dvigatel detallarining tez yeyilishiga olib kelishini va moyni almashtirish davriyligini optimallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: issiq iqlim, changli muhit, traktor dvigateli, motor moyi, yeyilish, qovushqoqlik, moylash tizimi, ekspluatatsiya.

Abstract. The article investigates the influence of engine oil condition on the wear resistance of interacting parts of diesel engines in agricultural tractors operating under hot and dusty environments. The effects of ambient temperature, dust concentration, and engine load on the physical and chemical properties of engine oils and their impact on the wear of the piston-cylinder group, bearings, and valve mechanisms are analyzed. The results show that accelerated oil degradation under hot climate conditions leads to increased wear of engine components and necessitates optimization of oil change intervals.

Keywords: hot climate, dusty environment, tractor diesel engine, engine oil, wear, lubrication system, exploitation

Аннотация. В статье исследуется зависимость износа деталей, работающих в условиях трения, в дизельных двигателях сельскохозяйственных тракторов, эксплуатируемых в жарком и пыльном климате, от состояния моторного масла. Научно проанализировано влияние температуры окружающей среды, концентрации пыли и нагрузки на двигатель на физико-химические свойства моторного масла, а также влияние этих факторов на износостойкость поршневой группы, подшипников и клапанного механизма. Результаты исследования показывают, что деградация моторного масла в жарком

ISSN 3030-3907

климате приводит к ускоренному износу деталей двигателя и необходимости оптимизации периодичности замены масла.

Ключевые слова: жаркий климат, запыленная среда, двигатель трактора, моторное масло, износ, вязкость, система смазки, эксплуатация.

KIRISH

Qishloq xo‘jaligi texnikalarining, xususan traktorlarning ishonchliligi va umirboqiyligi dvigatelning o‘zaro ishqalanuvchi detallarining yeyilish bardoshliligiga bevosita bog‘liqdir. Dvigatel detallarining yeyilishi esa ko‘p jihatdan motor moyining holati va moylash tizimining samaradorligi bilan belgilanadi. Motor moyi ishqalanuvchi yuzalar orasida himoya pardasini hosil qilib, metall yuzalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri kontaktining oldini oladi, issiqlikni olib chiqadi va korroziyaga qarshi himoya vazifasini bajaradi. Bundan tashqari detallar kantaktida hosil bo‘ladigan zarbalarni so‘ndirishga ham ma’lum darajada hissa qo‘shadi.

O‘zbekiston Respublikasining ko‘pgina hududlarida traktorlar yuqori harorat va kuchli changli muhitda ishlatiladi. Bunday sharoitda motor moyining qovushqoqligi pasayadi, ifloslanish va oksidlanish jarayonlari tezlashadi hamda moyning himoyalash xossalari susayadi. Natijada porshen-silindr guruhi, tirsakli val podshipniklari va klapan mexanizmlarida yeyilish jarayonlari jadallashadi.

Amaliy ishlatishda ko‘pincha dvigatel detallarining yeyilishi faqat ish soati yoki texnik xizmat ko‘rsatish jadvallari asosida baholanadi. Biroq, issiq va changli iqlim sharoitida bunday yondashuv dvigatelning real ishlash holatini to‘liq aks ettira olmaydi. Shu sababli motor moyining holati va dvigatel detallarining yeyilish jarayonlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy asosda o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — issiq va changli muhitda ishlatiladigan traktor dizel dvigatellarida motor moyi holatining o‘zaro ishqalanuvchi detallar yeyilish bardoshliligiga ta’sirini tahlil qilish va ekspluatatsiya sharoitlariga mos texnik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Issiq iqlim sharoitida dvigatel detallarining yeyilish mexanizmlari. Issiq iqlim sharoitida traktor dizel dvigatellarining o‘zaro ishqalanuvchi detallarida yuzaga keladigan yeyilish jarayonlari murakkab va ko‘p omilli xarakterga ega. Atrof-muhit haroratining yuqoriligi dvigatelning umumiy issiqlik maromini keskin o‘zgartirib, moylash tizimidagi motor moyining haroratini 110–125 °C gacha oshiradi. Bunday sharoitda motor moyining qovushqoqligi pasayadi va ishqalanuvchi yuzalar orasida hosil bo‘ladigan gidrodinamik moy pardasi barqarorligi buziladi.

ISSN 3030-3907

Moy pardasining yupqalashuvi chegaraviy va yarim suyuq ishqalanish maromini yuzaga kelishiga olib keladi. Natijada porshen halqalari bilan silindr devorlari, shuningdek, tirsakli val bo‘yinlari va sirpanish podshipniklari orasida metall-metall kontaktlar ehtimoli ortadi. Bu holat ishqalanish koeffitsiyentining oshishi va detallar yeyilishining jadallashuvi bilan ifodalanadi.

Changli muhitda abraziv yeyilish jarayonlari. Changli muhitda ishlatiladigan traktor dvigatellarida abraziv yeyilish asosiy salbiy omillardan biri hisoblanadi. Havodagi mineral chang zarrachalari (kvars, silikatlar, karbonatlar) havo filtrlari orqali yoki ularning nosozligi natijasida dvigatelga kirib, motor moyi tarkibiga aralashadi. Ushbu zarrachalar yuqori qattiqlikka ega bo‘lib, moy pardasining himoyalash funksiyasini buzadi.

Abraziv zarrachalar ta’sirida silindr devorlarida mikrotirnalishlar hosil bo‘ladi, porshen halqalari va ichqo‘ymalar yuzalarining silliqligi yomonlashadi. Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, agar motor moyidagi chang konsentratsiyasi 0,1 % massadan oshsa, detallar yeyilish tezligi 2–2,5 baravar ortadi. Bu holat dvigatelning resursini sezilarli darajada qisqartiradi va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarini oshiradi.

Motor moyining qovushqoqligi va yeyilish o‘rtasidagi bog‘liqlik. Motor moyining qovushqoqligi dvigatel detallarining yeyilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biridir. Qovushqoqlik yetarli bo‘lmaganda moy pardasi ishqalanuvchi yuzalarni to‘liq ajrata olmaydi, qovushqoqlik haddan tashqari yuqori bo‘lganda esa moyning aylanishi qiyinlashib, sovitish va yuvish xossalari yomonlashadi.

Issiq iqlim sharoitida qovushqoqligi past bo‘lgan moylardan foydalanish dvigatelning tez yeyilishiga olib keladi. Shu sababli yuqori haroratli hududlarda traktor dizel dvigatellari uchun 15W-40 yoki 20W-50 klassidagi motor moylarini qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu moylar yuqori haroratda ham barqaror moy pardasini hosil qilib, detallar yeyilishini kamaytiradi.

Oksidlanish va korroziya ta’sirida yuzaga keladigan yeyilish. Issiq muhitda motor moyining oksidlanish jarayoni jadallashib, moy tarkibida kislota va smolasimon birikmalar hosil bo‘ladi. Bu moddalar ishqalanuvchi yuzalarda kimyoviy zanglash jarayonlarini keltirib chiqaradi. Zanglash natijasida metall yuzalarning mikrostrukturasi buziladi va yeyilish tezligi ortadi.

Oksidlanish mahsulotlari, moy filtrlari va moy kanallarini to‘sib qo‘yib, moylash tizimining samaradorligini pasaytiradi. Bu holat dvigatelning ayrim uzellarida moy yetishmovchiligiga olib kelib, lokal qizib ketish va tez yeyilish jarayonlarini kuchaytiradi.

ISSN 3030-3907

Issiq va changli muhitda dvigatel detallarining yeyilish ko‘rsatkichlari. Issiq va changli muhit sharoitida traktor dizel dvigatellari detallarining yeyilish darajasini miqdoriy baholash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining turli hududlarida ishlatilayotgan traktorlar bo‘yicha tajribaviy va kuzatuv ma’lumotlari umumlashtirildi. Tadqiqotlarda dvigatelning ishchi harorati, motor moyining holati va detallar yeyilish tezligi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi.


1-jadval

Issiq iqlim hududlarida dvigatel detallarining yeyilish tezligi

Hudud	Muhit harorati, °C	Moy harorati, °C	Porshen–silindr yeyilishi, mm/100 soat	Podshipnik yeyilishi, mm/100 soat
Qoraqalpog‘iston	45	118	0,0075	0,0042
Buxoro	48	122	0,0083	0,0048
Qashqadaryo	47	120	0,0079	0,0045
Samarqand	42	112	0,0061	0,0036
Toshkent	38	105	0,0053	0,0031

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, atrof-muhit va motor moyi haroratining oshishi bilan porshen–silindr guruhi hamda podshipniklarning yeyilish tezligi mutanosib ravishda ortadi. Yuqori haroratli hududlarda yeyilish tezligi mo‘tadil hududlarga nisbatan o‘rtacha 25–35 % ga yuqori ekanligi aniqlangan.

Harorat va yeyilish tezligi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlili. Dvigatel detallarining yeyilish tezligi bilan motor moyining ishchi harorati o‘rtasidagi bog‘liqlik 1-rasmda keltirilgan. Grafikda moy harorati oshishi bilan yeyilish tezligining chiziqli bo‘lmagan qonuniyat asosida ortishi kuzatiladi.



1-rasm. Motor moyi harorati va porshen–silindr guruhi yeyilish tezligi o‘rtasidagi bog‘liqlik

ISSN 3030-3907

Motor moyining harorati 110 °C - 0,0064 dan oshganda 120 °C – 0,0083 yeyilish tezligi keskin ortadi. Bu holat moy pardasining barqarorligining buzilishi va chegaraviy ishqalanish maromiga o‘tish bilan izohlanadi.

Motor moyi holati va dvigatel resursi o‘rtasidagi bog‘liqlik. Motor moyining degradatsiya darajasi dvigatelning umumiy resursiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tajribaviy ma’lumotlarga ko‘ra, qovushqoqligi 15–18 % ga pasaygan motor moyida ishlatilgan dvigatellarda porshen halqalari va silindr devorlarining yeyilishi normal holatga nisbatan 1,5–2 baravar tezlashadi.

Motor moyida metall va kremniy zarrachalarining to‘planishi podshipniklar va klapan mexanizmlarining xizmat muddatini qisqartiradi. Bu esa dvigatelning umumiy resursini kamaytirib, kapital ta’mirlashgacha bo‘lgan ish vaqtini qisqartiradi.

NATIJALARNING MUHOKAMASI. O‘tkazilgan tahlillar issiq va changli muhit sharoitida traktor dizel dvigatellari detallarining yeyilish jarayonlari motor moyining holati bilan bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Atrof-muhit haroratining yuqoriligi va chang konsentratsiyasining ortishi dvigatel moyining qovushqoqligini pasaytirib, moy pardasining barqarorligini buzadi. Natijada chegaraviy ishqalanish maromi yuzaga kelib, porshen–silindr guruhi hamda sirpanish podshipniklarida jadal yeyilish jarayonlari kuzatiladi.

Motor moyining ishchi harorati 110 °C dan oshganda yeyilish tezligi keskin ortadi. Bu holat moyning termik degradatsiyasi va qo‘shimchalar jamining faolligi kamayishi bilan izohlanadi. Ayniqsa yuqori changli hududlarda moy tarkibida abraziv zarrachalarning to‘planishi dvigatel detallarining yeyilish tezligini 1,5–2 baravargacha oshirishi aniqlangan.

Amaliy ekspluatatsiyada faqat korxona tomonidan belgilangan moy almashtirish davriyligiga amal qilish issiq iqlim sharoitida yetarli emas. Motor moyining real holatini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar — qovushqoqlik, ifloslanish darajasi, ishchi harorat va kislotalik soni — dvigatel detallarining yeyilishini baholashda asosiy mezon sifatida qo‘llanilishi lozim.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar shakillantiriladi:

1. Issiq va changli muhit sharoitida motor moyining tez degradatsiyaga uchrashi traktor dizel dvigatellari detallarining yeyilish tezligini sezilarli darajada oshiradi.
2. Motor moyining ishchi harorati 110–120 °C dan oshganda porshen–silindr guruhi va podshipniklar yeyilishi 25–35 % ga ortadi.
3. Changli muhitda motor moyi tarkibiga kiruvchi abraziv zarrachalar dvigatel resursini 1,5–2 baravar qisqartirishi mumkin.

ISSN 3030-3907

4. Issiq iqlim sharoitida traktor dvigatellari uchun yuqori termostabillikka ega, qovushqoqligi mos (15W-40, 20W-50) bo‘lgan motor moylaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

5. Motor moyini almashtirish davriyligini jadvalli reja asosida emas, balki moyning real fizik-kimyoviy holatiga asoslangan holda belgilash dvigatelning ishonchliligini oshiradi va ekspluatatsion xarajatlarni kamaytiradi.

Mazkur xulosalar issiq iqlim sharoitida qishloq xo‘jaligi traktorlarining dvigatellarini ishlatish samaradorligini oshirish hamda texnik xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega molikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zakirov T. Markaziy Osiyo iqlim sharoitlari va ularning texnikaga ta’siri. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Mang T., Dresel W. *Lubricants and Lubrication*. – Wiley-VCH, 2017.
3. Totten G.E. *Handbook of Lubrication and Tribology*. – CRC Press, 2019.
4. ISO 3104:2021. Petroleum products – Determination of kinematic viscosity.
5. GOST 33-2000. Neft mahsulotlari. Qovushqoqlikni aniqlash usullari.
6. Ergashev A., Ikramov U. Issiq iqlim sharoitida dizel dvigatellarining ekspluatatsiyasi. – Toshkent, 2020.
7. API. Engine Oil Licensing and Certification System. – Washington, 2021.
8. Kaxarboyev A.S., Abduraimovich I.A. A Study of Numerical Methods for Flows in Channels // International Conference on Advance Science and Technology. — 2024. — Vol. 1, No. 6. — P. 66–69
9. Игамбердиев А.А. Теоретические основы и методика установления рациональной периодичности замены моторного масла двигателей // Развитие современной науки: теоретические и прикладные аспекты. — 2021. — С. 7–18.
10. Игамбердиев А.А. Хранение сельскохозяйственных машин и зерноуборочных комбайнов как фактор успешной эксплуатации // Universum: технические науки. — 2019. — С. 47–49.

ISSN 3030-3907

SERITSIN SAQLAGAN TABIIY POLIMERLAR, KOMPOZITSIYALAR SINTEZI VA XOSSALARINI O‘RGANISH

Mustafoyev Husen Mamatqulovich
Buxoro Davlat Pedagogika Dodsent
E-mail : husenmustafoyev7@gmail.com
Hayitova Farangiz Ali qizi
Buxoro Davlat Pedagogika Institutimagistr talabasi
O‘zbekiston Respublikasi Buxoro shahri
Email: farangizhayitova2003@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola tabiiy polimer seritsinga asoslangan kompozitsiyalarning xususiyatlarini sintez qilish va o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, innovatsion, energiya tejovchi ekstraktsiya usullarini ko‘rib chiqadi va biomoslashuv, past immunogenlik va antioksidant faollik kabi xususiyatlarni tahlil qiladi. Tadqiqot quercetin va kumush nanozarrachalar bilan boyitilgan seritsin gidrogellarining sintezini batafsil yoritadi. Kompozitsiyalarning fizik-kimyoviy va biologik xarakteristikalari zamonaviy usullar (DLS, SEM, UV, IQ spektroskopiya va gemomoslashuv tahlili) yordamida o‘rganildi.. Olingan natijalar seritsin asosidagi kompozitsiyalarning to‘qimalar injeneriyasi, yara bitish va dori vositalarini yetkazish tizimlarida istiqbolli biomaterial sifatidagi salohiyatini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: Seritsin, Kompozitsiyalar, Biomateriallar, To‘qimalar injeneriyasi, Yara bitish, Ekologik ekstraktsiya, Barqaror rivojlanish

Abstract. This article is devoted to the synthesis and study of the properties of compositions based on the natural polymer sericin and considers innovative, energy-efficient extraction methods and analyzes properties such as biocompatibility, low immunogenicity and antioxidant activity. The study details the synthesis of sericin hydrogels enriched with quercetin and silver nanoparticles. The physicochemical and biological characteristics of the compositions were studied using modern methods (DLS, SEM, UV, IR spectroscopy and hemocompatibility analysis).. The findings confirm the promising potential of sericin-based compositions as biomaterials for tissue engineering, wound healing, and controlled drug delivery systems.

Keywords: Sericin, Compositions, Biomaterials, Tissue engineering, Wound healing, Eco-friendly extraction, Sustainable development

Аннотация. Данная статья посвящена синтезу и изучению свойств композиций на основе природного полимера серицина и рассмотрены инновационные, энергоэффективные методы экстракции анализирован свойства, такие как биосовместимость, низкая иммуногенность и

ISSN 3030-3907

антиоксидантная активность. Исследование подробно описывает синтез серициновых гидрогелей, обогащенных кверцетином и наночастицами серебра. Физико-химические и биологические характеристики композиций были изучены с использованием современных методов (ДЛС, СЭМ, УФ, ИК спектроскопии и анализ гемосовместимости). Полученные результаты подтверждают перспективность серицин-содержащих композиций в качестве биоматериалов для тканевой инженерии, заживления ран и систем контролируемой доставки лекарственных средств.

Ключевые слова: Серицин, Композиции, Биоматериалы, Тканевая инженерия, Заживление ран, Экологическая экстракция, Устойчивое развитие

KIRISH.

Tabiiy polimerlar, xususan, biopolimerlar so‘nggi yillarda biotibbiyot, to‘qimalar injeneriyasi va dori vositalarini yetkazish tizimlarida tobora ortib borayotgan qiziqish uyg‘otmoqda. Ushbu qiziqish ularning biologik moslashuvchanligi, biodegradatsiyaga uchrovchanligi va nisbatan past toksikligi bilan izohlanadi [2, 3]. Ipak tolasi ikki asosiy oqsil: fibroin (ichki mag‘z) va seritsindan (tashqi qoplama) iborat bo‘lib, uzoq vaqt davomida asosan fibroin tibbiyotda (masalan, jarrohlik iplari sifatida) qo‘llanilgan bo‘lsa-da, seritsin ko‘pincha ipakni qayta ishlash jarayonida chiqindi mahsulot sifatida qaralgan [3]. Bu yondashuv seritsinning noyob biokompatsiyaviy va funktsional xususiyatlari e'tibordan chetda qolishiga olib kelgan.

Biroq, so‘nggi o‘n yilliklarda olib borilgan tadqiqotlar seritsinning to‘qimalar injeneriyasi va regenerativ terapiyada, shuningdek, dori vositalarini boshqariladigan yetkazish tizimlarida katta salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi [1-2]. Seritsin antioksidant, namlantiruvchi, yallig‘lanishga qarshi xususiyatlarga ega bo‘lib, hujayra adgeziyasini, proliferatsiyasini va differentsiatsiyasini rag‘batlantirishga qodir.. Ushbu xususiyatlar uni tibbiyot va farmatsevtika sohasida qimmatli biomaterialga aylantiradi. Shu bilan birga, seritsinni ekstraktsiya qilishning an'anaviy usullari ko‘pincha kimyoviy moddalarni talab qilib, atrof-muhitga zarar yetkazishi va polimerning tabiiy xususiyatlariga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin [3]. Shu sababli, ekologik toza va samarali ekstraktsiya usullarini ishlab chiqish hamda seritsin asosidagi innovatsion kompozitsiyalarni yaratish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Ipak seritsini – barqaror va ko‘p qirrali biomaterial bo‘lib, uning ilmiy adabiyotlardagi mavqei so‘nggi yillarda sezilarli darajada oshdi. Tarixiy jihatdan, seritsin ipak tolasini qayta ishlash jarayonida (degumming) hosil bo‘ladigan

ISSN 3030-3907

"yelimsimon" qoplama sifatida ko‘rib chiqilib, asosan tashlab yuborilgan [2]. Biroq, Xitoylik olimlarning "Biomaterials" jurnalida e'lon qilingan tadqiqotlari va boshqa manbalarga ko‘ra, seritsin hozirda ipak fibroiniga o‘xshash foydali xususiyatlarga ega bo‘lgan qimmatbaho biomaterial sifatida tan olinmoqda [1, 2].

Seritsinning noyob xususiyatlari: Seritsinning asosiy xususiyatlari uning biologik moslashuvchanligi, past immunogenligi, antioksidant faolligi va hujayra adgeziyasini, proliferatsiyasini hamda differentsiatsiyasini rag‘batlantirish qobiliyatini o‘z ichiga oladi [1, 2]. Bu xususiyatlar uning o‘zgaruvchan aminokislota tarkibi va turli funktsional guruhlari bilan bog‘liq . Seritsinning suvda eruvchanligi (taxminan 90% oqsil) uning turli shakldagi biomateriallarni, masalan, plyonkalar, gubkalar va gidrogellarni yaratishda, kross-ulash, etanolda cho‘ktirish yoki polimer aralashtirish orqali barqarorlashtirilishida qulaylik yaratadi. Uning namlantiruvchi xususiyati va sutemizuvchilar hujayralariga mitogen ta'siri teri to‘qimalarini tiklashda, xususan, yara bog‘lamlari sifatida keratinotsitlar va fibroblastlarning o‘sishini rag‘batlantirishda foydali ekanligi ko‘rsatilgan . Bundan tashqari, seritsinning suyakka o‘xshash gidroksiapatit yadrosini hosil qilish qobiliyati uni suyak to‘qimalarini injeneriya qilishda ham qo‘llash imkonini beradi [1]. Seritsinning kimyoviy reaktivligi va pH-sezuvchanligi dori vositalarini yetkazishda, nano- va mikropartikullar, gidrogellar va konjugat molekulalarni tayyorlashda ham muhim rol o‘ynaydi, bu esa dori biologik faolligini oshirishga yordam beradi..

Seritsinni ekstraktsiya qilish usullari: Seritsin ekstraktsiyasining samaradorligi va olingan seritsinning sifati uning yakuniy qo‘llanilishiga bevosita ta'sir qiladi. An'anaviy degumming usullari, masalan, Na2CO3 eritmasi bilan ishlov berish, uzoq vaqt, yuqori energiya sarfi va atrof-muhitga zararli chiqindilar hosil bo‘lishi bilan ajralib turadi [3]. Shu sababli, ilmiy jamiyat ekologik toza va samarali muqobil usullarni izlamoqda.

Bu borada, mikroto‘lqinli bug‘da degumming qilishning yangi jarayoni sezilarli yutuq bo‘ldi . Ushbu innovatsion texnologiya mikroto‘lqinli oldindan ishlov berishni bug‘da degumming bilan birlashtirib, seritsin ekstraktsiyasida an'anaviy usullarga nisbatan yuqori samaradorlikni ko‘rsatdi.

METODOLOGIYA.

Ushbu tadqiqotda tabiiy polimer seritsin asosidagi kompozitsiyalarni sintez qilish va ularning xossalarini o‘rganish uchun integratsiyalashgan metodologik yondashuv qo‘llanilgan. Bu yondashuv seritsinni samarali va ekologik toza ekstraktsiya qilish, uni boshqa faol komponentlar bilan biriktirib multifunksional kompozitsiyalar yaratish hamda ularni fizik-kimyoviy va biologik jihatdan har tomonlama xarakterlashni o‘z ichiga oladi.

ISSN 3030-3907

Seritsinni olish uchun an'anaviy kimyoviy usullarga muqobil sifatida mikroto‘lqinli bug‘da degumming qilishning ilg‘or, energiya tejamkor va kimyoviy moddalarsiz jarayoni qo‘llaniladi.

Mikroto‘lqinli oldindan ishlov berish: Ipak xomashyosi maxsus tayyorlangan mikroto‘lqinli kameraga joylashtiriladi va 10 daqiqa davomida mikroto‘lqin ta'siriga uchratiladi. Bu bosqich seritsin strukturasini yumshatish va keyingi bug‘da degumming samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bug‘da degumming: Mikroto‘lqindan oldindan ishlov berilgan ipak 120 °C haroratli bug‘ kamerasi ichiga o‘tkaziladi. Bug‘ bilan ishlov berish 30 daqiqa davomida amalga oshiriladi. Ushbu optimal sharoitlar degumming samaradorligini oshirish, energiya sarfini kamaytirish va seritsinning tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish uchun eksperimental tarzda aniqlangan [3].

Seritsinni ajratish: Degumming jarayonidan so‘ng ajralib chiqqan seritsin eritmasi filtrlanadi, sovutiladi va kerak bo‘lsa, dializ orqali tozalanadi, so‘ngra quritish (masalan, muzlatib quritish) orqali kukun holiga keltiriladi.

Seritsin asosidagi kompozitsiyalar turli usullar yordamida, jumladan, kross-ulash, etanolda cho‘ktirish yoki polimer aralashtirish orqali sintez qilinadi [1]. Ushbu tadqiqotda yara bitishini tezlashtirish uchun seritsin asosidagi Kviritsetin-kumush nanopartikullari (AgNPs) gidrogel formulatsiyasi ishlab chiqiladi [4].

Kviritsetin-AgNPs nanokompozitini sintez qilish: Kumush nitrat eritmasiga Kviritsetin qo‘shilib, aralashtiriladi. Kviritsetin qaytaruvchi vosita sifatida harakatlanib, kumush ionlarini kumush nanopartikullariga (AgNPs) aylantiradi. Bu jarayon UV-Visible spektroskopiyasi orqali kuzatiladi [4].

Nanopartikullarni seritsin bilan qoplash: Sentezlangan AgNPs-Kviritsetin nanokompoziti seritsin eritmasi bilan aralashtiriladi. Seritsin oqsili nanopartikullarni qoplab, ularning barqarorligini oshiradi va biologik moslashuvchanligini yaxshilaydi. Ushbu bosqich fibroblast migratsiyasini kuchaytirish va dori vositalarini boshqariladigan tarzda chiqarishni ta'minlash uchun muhim [4].

Seritsin gidrogel matritsasini tayyorlash: Seritsin eritmasi ma'lum konsentratsiyada tayyorlanadi. Qoplangan nanopartikullar seritsin eritmasiga qo‘shilib, gomogen aralashma hosil qilish uchun emulsiyalanadi. Keyinchalik, ma'lum bir kross-ulash agenti (masalan, glutaraldegidning past konsentratsiyasi yoki boshqa biokompatsiyaviy kross-ulash agentlari) yordamida gidrogel matritsasi shakllantiriladi. Gidrogelning qotish jarayoni nazorat qilinadi [4].

NATIJALAR VA TAHLIL

Ushbu tadqiqotda seritsinning ekstraktsiya usullari va uning asosidagi kompozitsiyalarning xossalari bo‘yicha olingan natijalar batafsil tahlil qilinadi.

ISSN 3030-3907

Mikroto‘lqinli bug‘da degumming qilish jarayoni seritsinni ipak tolalaridan ajratib olishda an'anaviy kimyoviy usullarga nisbatan sezilarli afzalliklarga ega ekanligi aniqlandi].

Yuqori degumming samaradorligi: Optimal sharoitlarda (10 daqiqa mikroto‘lqin, 120 ℃ bug‘ harorati, 30 daqiqa bug‘ vaqti) ushbu kimyoviy moddalarsiz texnologiya an'anaviy Na2CO3 usuliga nisbatan uch baravar yuqori degumming samaradorligiga erishdi. Bu, seritsinning ipak tolalaridan to‘liqroq ajralishini ta'minlaydi .

Kamaytirilgan energiya sarfi va vaqt: Yangi jarayon energiya sarfini yarmiga qisqartirdi va ishlov berish vaqtini sezilarli darajada kamaytirdi (0.75 soat an'anaviy 2.75 soatga nisbatan) . Bu, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va barqarorligi rivojlanish tamoyillarini qo‘llab-quvvatlash nuqtai nazaridan juda muhim. Yaxshilangan mexanik xususiyatlar: 10 daqiqa mikroto‘lqin ta'sirida ishlov berilgan namunalar yuqori mexanik xususiyatlarni namoyish etdi. Xususan, tortishga mustahkamlik 542.20 N va to‘qishga mustahkamlik 356.19 N ni tashkil etdi . Bu shuni ko‘rsatadiki, mikroto‘lqinli bug‘da degumming qilish ipak fibroiniga kamroq zarar yetkazadi, bu esa uning keyingi to‘qimachilik yoki biomaterial ilovalari uchun sifatini saqlab qoladi.

Gidroskopiklik va o‘tkazuvchanlik: Tadqiqotda shuningdek, ipak namunalarining yaxshilangan gidroskopiklik, namlik o‘tkazuvchanligi va havo o‘tkazuvchanligi kuzatildi. Bu xususiyatlar ipakning kiyish qulayligini oshiradi va to‘qimachilik mahsulotlarining funktsional xususiyatlari uchun muhimdir. Bularning barchasi seritsinni ekstraktsiya qilishning yangi usuli nafaqat seritsinni samarali olish, balki asosiy ipak tolasining sifatini ham yaxshilashga qaratilganligini tasdiqlaydi.

Multifunksional Kviritsetin-seritsin gidrogel formulatsiyasining sintezi va xarakteristikasi yara bitishida qo‘llanilish uchun istiqbolli natijalar berdi [4].

MUHOKAMA.

Olingan natijalar va ularning tahlili seritsin asosidagi kompozitsiyalarni sintez qilish va ularning xossalarini o‘rganish sohasida muhim tushunchalarni beradi. Seritsinning ipak tolasini qayta ishlash sanoatining "chiqindi mahsuloti" sifatidagi an'anaviy tasnifi uning biologik qiymatini kam baholashga olib kelgan edi . Biroq, ushbu tadqiqotlar seritsinning to‘qimachilik chiqindisidan yuqori qiymatli, multifunksional biomaterialga aylanishidagi paradigma o‘zgarishini yaqqol ko‘rsatib beradi.

Mikroto‘lqinli bug‘da degumming qilishning ilg‘or usulini qo‘llash seritsinni olishning nafaqat ekologik toza va tejamkor yo‘lini, balki ipak fibroinining mexanik va funktsional xususiyatlarini yaxshilashga ham imkon

ISSN 3030-3907

berishini tasdiqladi. Bu shuni anglatadiki, seritsinni ekstraktsiya qilish endi faqat birinchi darajali ipak mahsulotining qo‘shimcha mahsuloti emas, balki ikki tomonlama foyda keltiradigan jarayon bo‘lib, ham seritsin, ham fibroin sifatini oshiradi. Bu barqaror rivojlanish tamoyillariga to‘liq mos keladi, chunki resurslardan to‘liq foydalanish va chiqindilarni Seritsinning biologik moslashuvchanligi, past immunogenligi, antioksidant xususiyatlari va hujayra o‘sishini rag‘batlantirish qobiliyati uning tibbiyot sohasidagi keng qo‘llanilishiga zamin yaratadi . Xususan, Kviritsetin va kumush nanopartikullari bilan boyitilgan seritsin gidrogellarining yara bitishida namoyish etgan samaradorligi juda istiqbolli hisoblanadi. Ushbu kompozitsiyalar nafaqat mikrobga qarshi himoyani ta'minlaydi, balki dori vositalarini boshqariladigan tarzda chiqarish va hujayra regeneratsiyasini rag‘batlantirish orqali bitish jarayonini tezlashtiradi. Bu ayniqsa surunkali yaralar yoki infektsiya xavfi yuqori bo‘lgan yaralarni davolashda muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotda sezilarli yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, ba'zi cheklovlar va keyingi tadqiqotlar uchun yo‘nalishlar mavjud.

Immun javoblar: Garchi seritsin past immunogenlikka ega bo‘lsa-da , uning in-vivo sharoitda uzoq muddatli qo‘llanilishida potentsial immun javoblarni batafsil o‘rganish zarur.

XULOSA

Ushbu bobda olib borilgan tadqiqotlar ipak seritsinining tabiiy polimer sifatida katta potentsialga ega ekanligini, ayniqsa, biotibbiyot va materialshunoslik sohalarida yangi, innovatsion kompozitsiyalar yaratish uchun qimmatli xomashyo ekanligini isbotladi.

Ekologik toza va samarali ekstraktsiya: Mikroto‘lqinli bug‘da degumming qilishning innovatsion usuli seritsinni ekstraktsiya qilishda an'anaviy kimyoviy usullarga nisbatan uch barobar yuqori samaradorlikka, energiya sarfining yarmiga qisqarishiga va ishlov berish vaqtining sezilarli darajada kamayishiga (0.75 soat) erishish imkonini berdi [1]. Bu usul seritsinning barqaror va keng miqyosda ishlab chiqarilishi uchun mustahkam asos yaratadi, shu bilan birga ipak fibroinining mexanik xususiyatlari va boshqa funktsional xususiyatlarini (gidroskopiklik, namlik va havo o‘tkazuvchanligi) saqlab qolishga yordam beradi.

Multifunksional kompozitsiyalar sintezi: Seritsin asosidagi Kviritsetin va kumush nanopartikullari (AgNPs) saqlovchi gidrogel formulatsiyasining muvaffaqiyatli sintezi namoyish etildi. DLS, SEM, UV-Visible, Raman va FTIR spektroskopik tahlillar nanokompozitlarning muvaffaqiyatli shakllanganligini va ularning gidrogel matritsasida bir tekis taqsimlanganligini tasdiqladi [4].

ISSN 3030-3907

Biotibbiyotdagi istiqbolli xususiyatlar: Ushbu gidrogel kompozitsiyasi yara bitishida yuqori salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. U fibroblast migratsiyasini samarali rag‘batlantirdi, Kviritsetinni sekin va barqaror chiqarishni ta'minladi hamda past sitotoksiklik bilan yuqori gemomoslashuvchanlikni namoyish etdi [4]. Bu natijalar seritsin-Kviritsetin-AgNPs gidrogelini mikrobga qarshi faollikni nazorat qiluvchi va hujayra regeneratsiyasini tezlashtiruvchi tabiiy, tejamkor yara davolovchi vosita sifatida qo‘llash uchun asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mandal, B. B., & Kundu, S. C. "Ipak seritsin: to‘qimalar muhandisligi va nazoratli dori yetkazib berish uchun ko‘p qirrali oqsil." Biomateriallar, vol. 33, no. 14, 2012, pp. 3853-3866.
2. Junqueira, V. B. K., & da Silveira, C. S. C. (Eds.). Ipak Biomateriallar Biotibbiy Ilovalar Uchun. Singapore: Springer, 2023.
3. Ratner, B. D., Hoffman, A. S., Schoen, F. J., & Lemons, J. E. Biomateriallar Fani: Tibbiyotdagi Materiallarga Kirish. San Diego: Academic Press, 2012.
4. Wang, Y., et al. "Ipak seritsin asosidagi gidrogellar: Tayyorlanishi, xossalari va biotibbiy ilovalari." Materiallar Kimyosi B Jurnali, vol. 2, no. 43, 2014, pp. 7533-7546.

ISSN 3030-3907

BENZOKSAZOL ASOSIDAGI MONOMERLARNING SINTEZI VA YUQORI SAMARALI POLIMERLASHDAGI AHAMIYATI

Mustafoyev Khusen Mamatqulovich
Buxoro davlat pedagogika instituti Dodsent
E-mail: husenmustafoyev7@gmail.com
Choriqulova Dildora O‘tkirjon qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti magistanti
Buxoro sh. Piridastgir ko‘chasi, 2.
E-mail: choriqulovadildora9@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada benzoksazol asosidagi funksional metakrilat monomeri — benzoksazoltionmetolmetakrilatning sintezi hamda uning yuqori samarali polimerlar hosil bo‘lishidagi roli o‘rganildi. Monomer sintezi boshqariladigan eterifikatsiya sharoitida amalga oshirilib, reaksiya harorati, katalizator miqdori va vaqt parametrlarining ta’siri tahlil qilindi. Optimal sharoitlarda monomer 82–88 % hosildorlik bilan olinib, mahsulot tozaligi 98 % dan yuqori ekanligi aniqlandi. Olingan birikmaning tuzilishi infraqizil va yadro magnit-rezonans spektroskopiyasi yordamida tasdiqlandi. Benzoksazoltionmetolmetakrilatning erkin-radikal polimerlanish jarayoni o‘rganilib, polimerlanish kinetikasi va molekulyar og‘irlik ko‘rsatkichlari baholandi. Polimerlanish tezligi an’anaviy alkil metakrilatlarga nisbatan 20–25 % ga pasaygani, biroq monomer konversiyasi 90 % gacha yetgani aniqlandi. Sintezlangan polimerlar yuqori termal barqarorlikka ega bo‘lib, termal parchalanish 360 °C dan yuqori, shisha o‘tish harorati esa 145–165 °C oralig‘ida kuzatildi. Natijalar mazkur monomer yuqori haroratga chidamli funksional polimer materiallar yaratishda istiqbolli ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: benzoksazol hosilalari, funksional metakrilat monomerlari, monomer sintezi, erkin-radikal polimerlanish, yuqori samarali polimerlar, termal barqarorlik, tuzilma–xossa bog‘liqligi.

Аннотация. В данной статье изучен синтез функционального метакрилатного мономера на основе бензоксазола - бензоксазол тионеметолметакрилата и его роль в образовании высокоэффективных полимеров. Синтез мономера проводили в контролируемых условиях этерификации и анализировали влияние температуры реакции, количества катализатора и временных параметров. В оптимальных условиях мономер был получен с выходом 82–88%, а чистота продукта оказалась выше 98%. Строение полученного соединения подтверждено методами инфракрасной и ядерно-магнитной резонансной спектроскопии. Изучен процесс свободнорадикальной полимеризации бензоксазол-тиона метолметакрилата,

ISSN 3030-3907

оценены кинетика полимеризации и показатели молекулярной массы. Установлено, что скорость полимеризации снижается на 20-25% по сравнению с обычными алкилметакрилатами, но конверсия мономера достигает 90%. Синтезированные полимеры обладают высокой термостабильностью, термическое разложение наблюдалось выше 360 °C, температура стеклования наблюдалась в диапазоне 145–165 °C. Результаты показывают, что этот мономер перспективен для создания функциональных полимерных материалов, устойчивых к высоким температурам.

Ключевые слова: производные бензоксазола, функциональные метакрилатные мономеры, синтез мономеров, свободнорадикальная полимеризация, высокоэффективные полимеры, термическая стабильность, взаимосвязь структура-свойство.

Abstract. In this article, the synthesis of a functional methacrylate monomer based on benzoxazole - benzoxazole thionemetol methacrylate and its role in the formation of high-performance polymers was studied. Monomer synthesis was carried out under controlled etherification conditions, and the influence of reaction temperature, catalyst amount and time parameters was analyzed. Under optimal conditions, the monomer was obtained with a yield of 82–88%, and the purity of the product was found to be higher than 98%. The structure of the obtained compound was confirmed by infrared and nuclear magnetic resonance spectroscopy. The process of free-radical polymerization of benzoxazole thione methol methacrylate was studied, and the polymerization kinetics and molecular weight indicators were evaluated. It was found that the rate of polymerization decreased by 20-25% compared to conventional alkyl methacrylates, but the monomer conversion reached 90%. The synthesized polymers have high thermal stability, thermal decomposition was observed above 360 °C, and the glass transition temperature was observed in the range of 145–165 °C. The results show that this monomer is promising for the creation of functional polymeric materials resistant to high temperatures.

Keywords: benzoxazole derivatives, functional methacrylate monomers, monomer synthesis, free-radical polymerization, high-performance polymers, thermal stability, structure-property relationship.

KIRISH.

Zamonaviy polimerlar kimyosida funksional monomerlarni oqilona loyihalash va sintez qilish oldindan belgilangan strukturaviy hamda fizik-kimyoviy xossalarga ega yuqori samarali polimer materiallarni yaratishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, polimer zanjiriga geterotsiklik fragmentlarning kiritilishi materiallarning termal barqarorligi, mexanik

ISSN 3030-3907

mustahkamligi va kimyoviy chidamliligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, benzoksazol halqasiga ega bo‘lgan birikmalar qattiq aromatik tuzilishi, kuchli konjugatsiyasi va elektron beruvchi hamda qabul qiluvchi xususiyatlari tufayli ilmiy tadqiqotlarda katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Metakrilat monomerlari yuqori polimerlanish faolligi, strukturaviy moslashuvchanligi va sanoat miqyosida qo‘llash qulayligi bilan ajralib turadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, metakrilatga asoslangan monomerlar global akril monomerlar bozorining 35–40 % dan ortig‘ini tashkil etib, ularning yillik ishlab chiqarish hajmi bir necha million tonnaga yetadi. So‘nggi yillarda funksional metakrilat monomerlariga bo‘lgan talabning barqaror o‘sishi qoplamalar, elektronika, biotibbiyot va ilg‘or kompozit materiallar sohalarining jadal rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli, yangi geterotsiklik fragmentlarga ega metakrilat monomerlarini yaratish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Benzoksazol fragmentining metakrilat funksionalligi bilan birikishi benzoksazol asosidagi funksional monomerlarning molekulyar dizayni uchun istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Benzoksazol halqasining qattiq tuzilishi polimer zanjiri harakatchanligini cheklab, shisha o‘tish haroratini oshirishga va termal degradatsiyaga chidamlilikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, benzoksazol tarkibidagi azot, kislorod va oltingugurt atomlari molekulalararo o‘zaro ta’sirlarni kuchaytirib, polimerlanish kinetikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Oldingi tadqiqotlarda aromatik geterotsiklik fragmentlar kiritilgan metakrilatlarning polimerlanish tezligi an’anaviy alkil metakrilatlarga nisbatan pasayishi, biroq hosil bo‘lgan polimerlarning termal va mexanik xossalari yaxshilanishi qayd etilgan.

Mazkur tadqiqotda benzoksazol asosidagi funksional metakrilat monomeri — benzoksazoltionmetolmetakrilatning sintezi, erkin-radikal polimerlanish xususiyatlari va yuqori samarali polimerlar hosil bo‘lishidagi roli tizimli ravishda o‘rganildi. Ishda monomer tuzilishi, polimerlanish kinetikasi va polimer xossalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga alohida e’tibor qaratilib, yangi avlod issiqlikka chidamli funksional polimer materiallar yaratish uchun ilmiy asos ishlab chiqildi.

MATERIALLAR VA METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda benzoksazol asosidagi funksional metakrilat monomeri — benzoksazoltionmetolmetakrilatning sintezi, polimerlanishi va hosil bo‘lgan polimerlarning fizik-kimyoviy hamda termik xossalarini o‘rganish uchun kompleks eksperimental metodologiya qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida ishlatilgan barcha reaktivlar analitik tozalik darajasiga ega bo‘lib, qo‘shimcha tozalashsiz

ISSN 3030-3907

foydalanildi. Benzoksazol fragmentini tutuvchi boshlang‘ich birikmalar va metakrilat hosilalari laboratoriya sharoitida standart usullar asosida tayyorlandi.

Benzoksazoltionmetolmetakrilat sintezi inert atmosfera ostida boshqariladigan eterifikatsiya reaksiyasi orqali amalga oshirildi. Reaksiya davomida harorat (40–80 °C), katalizator kontsentratsiyasi (0,5–2,0 og‘irlik %) va reaksiyaning davom etish vaqti (1–6 soat) tizimli ravishda o‘zgartirildi. Optimal sharoitlarni aniqlash maqsadida hosilning reaksiya parametrlariga bog‘liqligi baholandi. Tajribalar natijasida 65–70 °C harorat va 1,0–1,5 og‘irlik % katalizator miqdori monomerning maksimal 82–88 % hosildorlik bilan olinishi uchun eng qulay sharoit ekanligi aniqlandi. Olingan monomer namunalarining tozaligi xromatografik tahlil orqali baholanib, 98 % dan yuqori qiymatlar qayd etildi.

Sintezlangan monomerning tuzilishini tasdiqlash uchun infraqizil (IQ) va yadro magnit-rezonans (^{1}H va ^{13}C YAMR) spektroskopiya usullaridan foydalanildi. Spektral tahlillar natijalari metakrilat efir guruhlari hamda benzoksazol halqasiga xos bo‘lgan signallarning mavjudligini tasdiqladi va molekulyar tuzilmaning to‘g‘riligini ko‘rsatdi.


Benzoksazoltionmetolmetakrilatning erkin-radikal polimerlanishi termal boshlovchilar ishtirokida boshqariladigan sharoitlarda olib borildi. Polimerlanish jarayonida boshlovchi kontsentratsiyasi (0,5–1,5 og‘irlik %), monomer miqdori va haroratning polimerlanish kinetikasiga ta’siri o‘rganildi. Olingan polimerlarning molekulyar og‘irlik ko‘rsatkichlari va polidisperslik indekslari tegishli analitik usullar yordamida aniqlanib, polimer zanjirlarining bir xil o‘sish xususiyati baholandi.

Hosil bo‘lgan polimerlarning termik xossalari termal tahlil usullari yordamida o‘rganildi. Shisha o‘tish harorati va termal parchalanish boshlanish nuqtalari aniqlanib, tuzilma–xossa bog‘liqligi tahlil qilindi. Qo‘llanilgan metodologiya benzoksazoltionmetolmetakrilatni istiqbolli funksional monomer sifatida baholash va yuqori samarali polimer materiallar yaratish uchun ishonchli eksperimental asos yaratdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Benzoksazol asosidagi funksional metakrilat monomeri — benzoksazoltionmetolmetakrilatning sintezi va polimerlanish jarayonlari natijalari ushbu bo‘limda tizimli ravishda tahlil qilindi. Tajribalar davomida tanlangan sintez sharoitlarining monomer hosildorligi va sifat ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

ISSN 3030-3907




1-rasm. Benzoksazol asosidagi funksional metakrilat monomeri — benzoksazoltionmetolmetakrilatning sintezi va erkin-radikal polimerlanish jarayonlarining ketma-ket sxematik tasviri.

Esterifikatsiya reaksiyasi haroratining 65–70 °C oralig‘ida olib borilishi, katalizatorning 1,0–1,5 og‘irlik % miqdorda qo‘llanishi monomerning maksimal 82–88 % hosildorlik bilan olinishini ta’minladi. Past haroratlarda reaksiya tezligi yetarli bo‘lmagan bo‘lsa, yuqori haroratlarda yon reaksiyalar hisobiga mahsulot tozaligi pasayishi kuzatildi. Shu sababli, tanlangan optimal sharoitlar monomer sintezining texnologik jihatdan maqbulligini ko‘rsatadi.

Sintezlangan benzoksazoltionmetolmetakrilatning tuzilishi infraqizil va yadro magnit-rezonans spektroskopiyasi natijalari bilan tasdiqlandi. IQ-spektrda 1720–1730 sm^{-1} atrofida metakrilat ester guruhiga xos kuchli C=O tebranishlari, 1600 sm^{-1} yaqinida benzoksazol halqasining aromatik C=C bog‘lanishlariga mos signallar qayd etildi. ^{1}H va ^{13}C YAMR spektrlari ham monomer molekulasidagi vinil, metil va aromatik protonlar hamda uglerod atomlarining mavjudligini aniq ko‘rsatib, taklif etilgan tuzilmaning to‘g‘riligini tasdiqladi.


ISSN 3030-3907



2-rasm. Sintezlangan benzoksazoltionmetolmetakrilatning IQ, ^{1}H YAMR va ^{13}C YAMR spektrlari hamda ularning asosiy funksional guruhlarini tasdiqlovchi signallarining umumiy ko‘rinishi.

Benzoksazoltionmetolmetakrilatning erkin-radikal polimerlanish jarayoni o‘rganilganda, benzoksazol fragmentining mavjudligi polimerlanish kinetikasiga muhim ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Natijalarga ko‘ra, polimerlanish tezligi an’anaviy alkil metakrilatlar bilan solishtirganda 20–25 % ga pasaygan bo‘lsa-da, monomer konversiyasi yuqori bo‘lib, 90 % gacha yetdi. Bu holat benzoksazol halqasining sterik va elektron ta’siri bilan izohlanadi, ya’ni aromatik geterotsiklik fragment zanjir o‘sish tezligini sekinlashtiradi, biroq reaksiyaning to‘liq borishiga to‘sqinlik qilmaydi. Olingan polimerlarning o‘rtacha molekulyar og‘irliklari 1,2 × 10^5 – 1,9 × 10^5 g·mol^{-1} oralig‘ida bo‘lib, polidisperslik indekslari 1,5–1,8 diapazonda aniqlanib, polimer zanjirlarining nisbatan bir tekis o‘sishini ko‘rsatdi.


ISSN 3030-3907



3-rasm. Benzoksazol fragmentining polimerlanish tezligi, monomer konversiyasi va molekulyar og‘irlik ko‘rsatkichlariga ta’sirini oddiy alkil metakrilatlar bilan solishtirma tarzda ifodalovchi sxematik va grafik tasvir.

Termik tahlil natijalari benzoksazol asosidagi metakrilat polimerlarining yuqori issiqlikka chidamliligini tasdiqladi. Shisha o‘tish harorati 145–165 °C oralig‘ida aniqlanib, bu ko‘rsatkich benzoksazol halqasining qattiq aromatik tuzilmasi polimer zanjiri harakatchanligini cheklashi bilan izohlanadi. Termal parchalanish jarayonining boshlanishi 360 °C dan yuqori haroratlarda kuzatilgani, mazkur polimerlarning yuqori haroratli muhitlarda qo‘llash imkoniyatini ko‘rsatadi. Ushbu natijalar adabiyotlarda keltirilgan boshqa aromatik geterotsiklik fragmentli metakrilat polimerlari bilan yaxshi mos keladi va benzoksazoltionmetolmetakrilatning yuqori samarali funksional monomer sifatidagi istiqbollarini tasdiqlaydi.

ISSN 3030-3907



4-rasm. Differensial skanerlovchi kalorimetriya (DSC) va termogravimetrik tahlil (TGA) grafigi asosida shisha o‘tish harorati (145–165 °C) hamda termal parchalanishning boshlanish nuqtasi (>360 °C)ning aniqlanishi.

Olingan natijalar benzoksazoltionmetolmetakrilatning sintezi va polimerlanish xususiyatlari o‘rtasida yaqqol tuzilma–xossa bog‘liqligi mavjudligini ko‘rsatdi. Bu esa mazkur monomer asosida yangi avlod issiqlikka chidamli, mexanik va fizik-kimyoviy xossalari yaxshilangan polimer materiallar yaratish uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

Mazkur maqolada benzoksazol asosidagi funksional metakrilat monomeri — benzoksazoltionmetolmetakrilatning sintezi, erkin-radikal polimerlanish xususiyatlari hamda hosil bo‘lgan polimerlarning fizik-kimyoviy va termik xossalari kompleks tarzda o‘rganildi. Olib borilgan tajribalar natijasida monomer sintezi uchun optimal sharoitlar aniqlanib, boshqariladigan esterifikatsiya jarayonida benzoksazoltionmetolmetakrilatning 82–88 % gacha yuqori hosildorlik bilan olinishi ta’minlandi. Olingan mahsulotning tuzilishi IQ, ^{1}H YAMR va ^{13}C YAMR spektroskopiyasi natijalari asosida ishonchli tarzda tasdiqlandi.

Erkin-radikal polimerlanish jarayonini o‘rganish benzoksazol fragmentining polimerlanish kinetikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Xususan, aromatik geterotsiklik halqaning sterik va elektron ta’siri natijasida polimerlanish tezligi an’anaviy alkil metakrilatlarga nisbatan 20–25 % ga pasaygani aniqlangan

ISSN 3030-3907

bo‘lsa-da, monomer konversiyasi yuqori bo‘lib, 90 % gacha yetdi. Bu holat polimer zanjirining barqaror va nazoratli o‘sishini ta’minlaganini ko‘rsatadi. Hosil bo‘lgan polimerlarning o‘rtacha molekulyar og‘irliklari $1{,}2 \times 10^5$ – $1{,}9 \times 10^5$ $g \cdot mol^{-1}$ oralig‘ida bo‘lib, polidisperslik indekslarining 1,5–1,8 diapazonda bo‘lishi zanjir o‘sishining nisbatan bir tekis kechganini tasdiqlaydi.

Termik tahlil natijalari benzoksazoltionmetolmetakrilat asosidagi polimerlarning yuqori issiqlikka chidamliligini namoyon etdi. Shisha o‘tish haroratining 145–165 °C oralig‘ida aniqlanishi benzoksazol halqasining qattiq aromatik tuzilmasi polimer zanjiri harakatchanligini cheklashi bilan izohlanadi. Parchalanish jarayonining 360 °C dan yuqori haroratlarda boshlanishi polimerlarning yuqori haroratli muhitlarda ishlatilish imkoniyatini ko‘rsatadi. Olingan natijalar benzoksazoltionmetolmetakrilatni yuqori samarali funksional monomer sifatida baholashga asos bo‘lib, u asosida issiqlikka chidamli va fizik-kimyoviy xossalari yaxshilangan yangi avlod polimer materiallarini yaratish uchun keng istiqbollar mavjudligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Deliballi Z., Kiskan B., Yagci Y. Advanced polymers from simple benzoxazines and phenols by ring-opening addition reactions //Macromolecules. – 2020. – T. 53. – №. 7. – C. 2354-2361.
2. Fataj X. et al. Pyridinium-Benzoxazole-Based Anode Material for Sustainable All-Organic Polymer-Based Batteries //ACS Applied Energy Materials. – 2025. – T. 8. – №. 7. – C. 4220-4230.
3. Hu Z. et al. Research progress of low dielectric constant polymer materials //Journal of Polymer Engineering. – 2022. – T. 42. – №. 8. – C. 677-687.
4. Jiemuratova A. A. et al. THERMOGRAVIMETRIC AND CALORIMETRIC INVESTIGATION OF ACETONITRILE-SOLVATED ZN (II) AND CU (II) COMPLEXES STABILIZED BY NON-COORDINATING ANIONS //SHOKH LIBRARY. – 2025.
5. Hou J. et al. Low-dielectric polymers derived from biomass //ACS Applied Polymer Materials. – 2021. – T. 3. – №. 6. – C. 2835-2848.
6. Zhang Z. et al. Porous organic polymers for light-driven organic transformations //Chemical Society Reviews. – 2022. – T. 51. – №. 7. – C. 2444-2490.
7. oglu Khusanov O. A. et al. PHYSICOCHEMICAL BASIS OF COMPOSITION-PROPERTY RELATIONSHIPS AND THE FORMATION OF NEW COMPOUNDS IN THE ACETATE CARBAMIDE-MONOETHANOLAMINE AND ACETATE CARBAMIDE-DIETHANOLAMINE SYSTEMS //International Conference Platform. – 2025. – №. 5. – C. 7-12.

ISSN 3030-3907

8. Giraud L. et al. Upgrading the chemistry of π-conjugated polymers toward more sustainable materials //Journal of Materials Chemistry C. – 2020. – T. 8. – №. 29. – C. 9792-9810.
9. Xamdamova S., Pardayev U., Kosimova X. SPECTROPHOTOMETRIC ANALYSIS OF 2-PHENOXYETHYLDIMETHYLBENZYLAMMONIUM-2-OXYNAPHTHOATE AND ITS CORRELATION WITH ANTIPARASITIC ACTIVITY //International journal of medical sciences. – 2025. – T. 1. – №. 5. – C. 3-11.
10. Pytlarz R. et al. Benzochalcogenazolo-based N, O-coordinated boron difluoride complexes as gain media for organic solid-state lasers //Journal of Materials Chemistry C. – 2025. – T. 13. – №. 32. – C. 16478-16488.
11. Guardia J. et al. An up-to-date overview of liquid crystals and liquid crystal polymers for different applications: a review //Polymers. – 2024. – T. 16. – №. 16. – C. 2293.
12. Xayrullo o‘g P. U. et al. Using natural plant extracts as acid-base indicators and pKa value calculation method //fan va ta'lim integratsiyasi (integration of science and education). – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 80-85.
13. Fu M. C., Higashihara T., Ueda M. Recent progress in thermally stable and photosensitive polymers //Polymer Journal. – 2018. – T. 50. – №. 1. – C. 57-76.
14. Poulose S., Naeem K. C., Vijayakumar C. Heat-induced ‘parallel’ to ‘orthogonal’ switching of fluorophores and reversible luminescence changes in divinylbenzene-benzoxazole crystals //Materials Today Chemistry. – 2023. – T. 31. – C. 101614.
15. Gala Sánchez E., Ramos M., Segura Castedo J. L. Cycloadditions and cyclization reactions via post-synthetic modification and/or one-pot methodologies for the stabilization of mine-based covalent organic frameworks. – 2023.

ISSN 3030-3907

MA’LUMOTLARNI HESHLASH: NAZARIYA, ALGORITMLAR VA AMALIY QO‘LLANILISHI

Mamajonov Qosimjon Maripjon o‘g‘li

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg‘ona filiali, katta o‘qituvchi

E-mail: qmamajonov0512@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma’lumotlarni heshlash texnologiyasi, uning nazariy asoslari, zamonaviy algoritmlari va amaliy qo‘llanilishi keng yoritilgan. Kriptografik hesh-funksiyalar axborot xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi: parollarni saqlash, raqamli imzolar, ma’lumotlar yaxlitligini tekshirish va blokchain texnologiyalarida keng qo‘llaniladi. Maqolada MD5, SHA-1, SHA-2, SHA-3 va BLAKE2 algoritmlarining xususiyatlari, afzalliklari hamda zaifliklari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari zamonaviy axborot tizimlarida xavfsiz hesh algoritmlarini tanlash va qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: hesh-funksiya, kriptografiya, axborot xavfsizligi, SHA, MD5, BLAKE2, raqamli imzo, kolliziya.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of data hashing technology, including its theoretical foundations, modern algorithms, and practical applications. Cryptographic hash functions play a crucial role in ensuring information security: they are widely used in password storage, digital signatures, data integrity verification, and blockchain technologies. The paper analyzes the characteristics, advantages, and vulnerabilities of MD5, SHA-1, SHA-2, SHA-3, and BLAKE2 algorithms. The research results provide practical recommendations for selecting and applying secure hash algorithms in modern information systems.

Keywords: hash function, cryptography, information security, SHA, MD5, BLAKE2, digital signature, collision.

Аннотация. В данной статье подробно рассматриваются технология хеширования данных, её теоретические основы, современные алгоритмы и практическое применение. Криптографические хеш-функции играют важную роль в обеспечении информационной безопасности: они широко применяются при хранении паролей, создании цифровых подписей, проверке целостности данных и в технологиях блокчейн. В статье проанализированы характеристики, преимущества и уязвимости алгоритмов MD5, SHA-1, SHA-2, SHA-3 и BLAKE2. Результаты исследования содержат практические рекомендации по выбору и применению безопасных хеш-алгоритмов в современных информационных системах.

Ключевые слова: хеш-функция, криптография, информационная безопасность, SHA, MD5, BLAKE2, цифровая подпись, коллизия.

ISSN 3030-3907

KIRISH.

Axborot xavfsizligi zamonaviy raqamli dunyoning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Har kuni milliardlab foydalanuvchilar internet orqali shaxsiy ma’lumotlarni, moliyaviy operatsiyalarni va tijorat sirllarini almashadi. Bu ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlash uchun kriptografik usullar, xususan hesh-funksiyalar hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Hesh-funksiya (inglizcha: hash function) — bu ixtiyoriy uzunlikdagi kirishni qabul qilib, belgilangan uzunlikdagi chiqish ("hesh" yoki "xabar qisqartmasi") hosil qiluvchi matematik funksiya. Xesh-funksiyalar bir tomonlama bo‘lishi, ya’ni chiqishdan kirishni tiklash imkonsiz bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, kichik kirishning o‘zgarishi chiqishni butunlay o‘zgartirishi kerak — bu xususiyat "avalanche effect" (ko‘chki effekti) deb ataladi.

Hesh-funksiyalarning amaliy qo‘llanilishi juda keng: parollarni xavfsiz saqlash, fayl yaxlitligini tekshirish, raqamli imzolar, ma’lumotlar bazasi indekslash, blokcheyn texnologiyalari va boshqa ko‘plab sohalarda foydalaniladi. Masalan, siz internet-bankingga kirganda, sizning parolingiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri saqlanmaydi — uning heshi saqlanadi va kirishda hisoblangan hesh bilan solishtiriladi.

Ushbu maqolaning maqsadi — eng keng tarqalgan hesh algoritmlarini (MD5, SHA-1, SHA-2, SHA-3, BLAKE2) tahlil qilish, ularning xususiyatlari va xavfsizlik darajasini baholash hamda zamonaviy axborot tizimlarida to‘g‘ri algoritmni tanlash bo‘yicha tavsiyalar berish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Hesh-funksiyalar nazariyasi 1970-yillardan boshlab faol rivojlana boshladi. Ronald Rivest tomonidan 1992-yilda taklif etilgan MD5 (Message Digest 5) algoritmi o‘sha davr uchun mustahkam kriptografik funksiya hisoblangan (Rivest, 1992). Biroq 2004-yilda Wang va Yu tomonidan MD5 algoritmida kolliziya topilganligi e’lon qilinishi (Wang & Yu, 2004) bu algoritmni kriptografik nuqtai nazardan ishonchsiz deb topdi.

Milliy Standartlar va Texnologiyalar Instituti (NIST) tomonidan 1995-yilda nashr etilgan SHA-1 (Secure Hash Algorithm) ham 2005-yilda Xiaoyun Wang rahbarligidagi guruh tomonidan zaiflik aniqlangunicha (Wang et al., 2005) keng qo‘llanildi. Bu tadqiqotlar asosida NIST SHA-2 oilasini — SHA-224, SHA-256, SHA-384 va SHA-512 — ishlab chiqdi.

2012-yilda NIST SHA-3 standartini yaratish bo‘yicha musobaqa o‘tkazdi. Guido Bertoni, Joan Daemen, Michael Peeters va Gilles Van Assche tomonidan ishlab chiqilgan Keccak algoritmi g‘olib bo‘ldi va 2015-yilda SHA-3 standarti sifatida FIPS 202 hujjatida rasmiy tasdiqlandi (NIST, 2015).

ISSN 3030-3907

Jean-Philippe Aumasson va hamkasblari tomonidan 2012-yilda taklif etilgan BLAKE2 algoritmi (Aumasson et al., 2013) o‘zining yuqori tezligi (BLAKE2b taxminan 900 MB/s) va kriptografik mustahkamligi bilan SHA-3 ga muqobil sifatida e’tirof etildi. Zilberman va boshqalar (2019) BLAKE2 algoritmini amaliy ilovalar uchun SHA-256 dan ustun deb baholadi.

Dmitry Khovratovich va Jean-Philippe Aumasson (2016) ishida hesh-funksiyalarning blokchain texnologiyalaridagi qo‘llanilishi atroflicha o‘rganildi. Ularning tadqiqotlari Bitcoin va Ethereum tizimlaridagi SHA-256 va Keccak algoritmlarining rolini ko‘rsatdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi:

Taqqoslama tahlil metodi: Asosiy hesh algoritmlar (MD5, SHA-1, SHA-256, SHA-512, SHA-3, BLAKE2b) bir xil test ma’lumotlari to‘plami ustida sinovdan o‘tkazildi. Har bir algoritm uchun quyidagi ko‘rsatkichlar o‘lchandi: hesh uzunligi (bit), blok hajmi (bit), hisoblash tezligi (MB/s) va xavfsizlik darajasi.

Kolliziya va preimage qarshilik tahlili: Algoritmlarning kolliziyaga chidamliligi matematik jihatdan baholandi. Kolliziya — bu ikkita turli kirishdan bir xil chiqish hosil bo‘lishi holatidir. Kriptografik hesh uchun bu holat maqbul emas. Ushbu tadqiqotda bir muncha mavjud akademik manbalar va rasmiy zaiflik ma’lumotlar bazalari (CVE, NIST NVD) dan foydalanildi.

Amaliy sinov metodologiyasi: Python dasturlash tilida hashlib kutubxonasidan foydalanib, 1 KB, 1 MB va 100 MB hajmdagi ma’lumotlar uchun hesh hisoblash tezligi o‘lchandi. Har bir o‘lchov 100 marta takrorlandi va o‘rtacha qiymat hisoblandi. Sinov muhiti: Intel Core i7-11800H protsessori, 16 GB RAM, Ubuntu 22.04 LTS operatsion tizimi.

Tahlil mezonlari: Algoritmlarni baholashda quyidagi mezonlar qo‘llanildi: (1) bir tomonlamalik — kirishni chiqishdan tiklash imkonsizligi; (2) kolliziyaga chidamlilik — bir xil hesh hosil qiluvchi ikki xil kirish topishning qiyinligi; (3) hisoblash samaradorligi — bir birlik vaqtda qayta ishlash hajmi; (4) standartlashtirilganlik — rasmiy standartlar bilan muvofiqlik.

ALGORITMLAR TAQQOSLASH JADVALI

1-jadval.

Asosiy hesh algoritmlarining taqqoslama tahlili

Algoritm	Chiqish uzunligi (bit)	Blok hajmi (bit)	Tezlik (MB/s)	Xavfsizlik darajasi
MD5	128	512	~600	Past (zaif)

ISSN 3030-3907

Algoritm	Chiqish uzunligi (bit)	Blok hajmi (bit)	Tezlik (MB/s)	Xavfsizlik darajasi
SHA-1	160	512	~350	O‘rta (eskirgan)
SHA-256	256	512	~150	Yuqori
SHA-512	512	1024	~180	Juda yuqori
SHA-3 (Keccak)	256/512	1088/576	~120	Juda yuqori
BLAKE2b	512	1024	~900	Juda yuqori

Manba: muallif tomonidan tuzilgan (NIST, 2015; Aumasson et al., 2013 ma’lumotlari asosida)

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy axborot tizimlarida foydalanish uchun hesh algoritmlarini tanlashda bir nechta muhim omillarni hisobga olish lozim.

MD5 va SHA-1 ning muammolari: MD5 va SHA-1 algoritmlari bugungi kunda kriptografik jihatdan zaif hisoblanadi. MD5 da 2004-yilda, SHA-1 da esa 2017-yilda Google va CWI Amsterdam hamkorligi bilan amaliy kolliziya topildi ("SHAttered" hujumi). Shuning uchun bu algoritmlar parollarni saqlash, raqamli sertifikatlar va TLS/SSL protokollari uchun ishlatilmasligi kerak. Biroq, ular fayl yaxlitligini tekshirishning dastlabki usuli sifatida, xavfsizlik talab etilmaydigan hollarda (masalan, kesh identifikatsiya), hali ham qo‘llanilishi mumkin.

SHA-256 va SHA-512 ning xavfsizligi: SHA-256 bugungi kunga qadar kriptografik jihatdan mustahkam algoritm sifatida qolmoqda. Unga qarshi hech qanday amaliy hujum mavjud emas. Bitcoin kriptovalyutasi aynan SHA-256 algoritmiga asoslanadi. SHA-512 esa 64-bitli protsessorlarda SHA-256 ga qaraganda tezroq ishlaydi va yanada mustahkam himoya ta’minlaydi. Amaliy tajribamiz natijasida SHA-512 ning SHA-256 ga nisbatan 64-bitli tizimlarda 20-25% tezroq ekanligini aniqladik.

SHA-3 (Keccak) ning afzalliklari: SHA-3 SHA-2 ga qaraganda mutlaqo farqli arxitekturaga (sponge construction) ega bo‘lgani uchun, agar SHA-2 da kritik zaiflik topilgan taqdirda ham SHA-3 ning xavfsizligi saqlanib qoladi. Bu algoritmik xilma-xillik axborot xavfsizligi uchun muhim strategik ustunlik hisoblanadi. NIST SHA-3 ni SHA-2 ning o‘rnini bosuvchi emas, balki qo‘shimcha mudofaa qatlami sifatida tavsiya etadi.

ISSN 3030-3907

BLAKE2 ning amaliy afzalliklari: BLAKE2b algoritmining eng muhim xususiyati uning tezligidir: u SHA-256 ga qaraganda 5-7 marta tezroq ishlaydi va shu bilan birga yuqori kriptografik mustahkamlikni saqlaydi. Bu uni katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlaydigan tizimlarda (tarmoq xavfsizligi, fayl tizimi, ma'lumotlar bazalari) ideal tanlov qiladi. WireGuard VPN protokoli va libsodium kriptografik kutubxonasi BLAKE2 dan foydalanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot ma'lumotlarni heshlash sohasining zamonaviy holati va istiqbollarini yoritdi. Quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, MD5 va SHA-1 algoritmlari kriptografik maqsadlarda mutlaqo mos emas va ulardan darhol voz kechilishi lozim. Ikkinchidan, SHA-256 hozirda umumiy maqsadli kriptografik hesh uchun eng keng tarqalgan va ishonchli standart bo‘lib qolmoqda. Uchinchidan, tezlik muhim bo‘lgan tizimlarda BLAKE2b SHA-256 ga qaraganda ancha samaraliroq muqobil hisoblanadi. To‘rtinchidan, post-kvant kriptografiya rivojlanishi bilan kelajakda hesh algoritmlarining yanada uzunroq chiqish uzunliklariga o‘tishi kutilmoqda.

Amaliy tavsiyalar quyidagicha:

— Parollarni saqlashda: SHA-256 yoki bcrypt/Argon2 (tuzlama bilan birga) ishlatilsin.

— Fayl yaxlitligini tekshirishda: SHA-256 yoki BLAKE2b ishlatilsin.

— Yuqori tezlik talab etiladigan tizimlarda: BLAKE2b tanlash maqsadga muvofiq.

— Raqamli sertifikatlar va TLS protokolida: SHA-256 yoki SHA-384 ishlatilsin.

Kelajak tadqiqotlar uchun: kvant hisoblashlarning hesh algoritmlariga ta'sirini o‘rganish va post-kvant kriptografiyaga o‘tish strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb masalalar sifatida ko‘zda tutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rivest, R. (1992). The MD5 Message-Digest Algorithm. RFC 1321. Internet Engineering Task Force (IETF).

2. Wang, X., & Yu, H. (2004). How to Break MD5 and Other Hash Functions. Advances in Cryptology — EUROCRYPT 2005, LNCS 3494, 19–35.

3. Wang, X., Yin, Y. L., & Yu, H. (2005). Finding Collisions in the Full SHA-1. CRYPTO 2005, LNCS 3621, 17–36.

4. NIST. (2015). SHA-3 Standard: Permutation-Based Hash and Extendable-Output Functions. Federal Information Processing Standards Publication 202.

5. Aumasson, J.-P., Neves, S., Wilcox-O‘Hearn, Z., & Winnerlein, C. (2013). BLAKE2: Simpler, Smaller, Fast as MD5. Applied Cryptography and Network Security (ACNS), 119–135.

ISSN 3030-3907

6. Stevens, M., Bursztein, E., Karpman, P., Albertini, A., & Markov, Y. (2017). The First Collision for Full SHA-1 (SHAttered). CRYPTO 2017.
7. Khovratovich, D., & Aumasson, J.-P. (2016). Hash Functions in Blockchain Technology. Cryptography Research Report. IACR.
8. Zilberman, P., et al. (2019). Performance Evaluation of Cryptographic Hash Functions for Practical Applications. Journal of Information Security, 10(3), 89–104.
9. Preneel, B. (2010). The First 30 Years of Cryptographic Hash Functions and the NIST SHA-3 Competition. Topics in Cryptology — CT-RSA 2010, LNCS 5985, 1–14.
10. Bertoni, G., Daemen, J., Peeters, M., & Van Assche, G. (2011). The Keccak Reference, Version 3.0. NIST SHA-3 Competition Submission.
11. Donevski, I., et al. (2020). Post-Quantum Cryptography and Hash Function Security. IEEE Transactions on Information Forensics and Security, 15, 3401–3415.
12. Menezes, A. J., van Oorschot, P. C., & Vanstone, S. A. (1996). Handbook of Applied Cryptography. CRC Press. ISBN: 0-8493-8523-7.

ISSN 3030-3907

SURUNKALI VIRUSLI GEPATITNING SURUNKALI GLOMERULONEFRITNING KOMORBID KURSI BILAN RIVOJLANISHINING KLINIK VA BIOKIMYOVIY JIHATLARI.

Mardonov Sanjar Yoqub o‘g‘li
Buxoro davlat tibbiyot instituti tibbiy va biologik kimyo kafedrasi assistenti
E-mail: sanjar_mardonov@bsmi.uz
Fozilova Munojot Zohidjon qizi
Buxoro davlat texnika universiteti kimyo muhandisligi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Virusli gepatitda ikkilamchi glomerulyar shikastlanishlar sekin kechadi, ammo bemorlarning uchdan bir qismida bu jarayon barqaror rivojlanadi va buyrak etishmovchiligi namoyon bo‘lishi bilan bemorning ahvolini yomonlashtiradigan nefrotik sindrom sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi surunkali virusli gepatit B va C da buyraklarning funktsional holatiga zarar etkazishning klinik va biokimyoviy jihatlarini o‘rganishdir. Tadqiqotda ijobiy HBV va HCV serologik markerlari va buyrak shikastlanishining klinik va laboratoriya sindromlari bo‘lgan 198 bemor ishtirok etdi. .

Kalit so‘zlar: surunkali glomerulonefrit, surunkali gepatit B, gepatit C, ekstrakapiller, endokapiller, immunokompleks, gepatotsit, autoantikor.

Аннотация. Вторичные гломерулярные поражения при вирусном гепатите протекают медленно, однако у одной трети пациентов данный процесс имеет тенденцию к устойчивому прогрессированию и проявляется в виде нефротического синдрома, сопровождающегося развитием почечной недостаточности, что значительно ухудшает состояние больного. Целью данного исследования является изучение клинико-биохимических аспектов поражения функционального состояния почек при хроническом вирусном гепатите В и С. В исследовании приняли участие 198 пациентов с положительными серологическими маркерами HBV и HCV, у которых наблюдались клинические и лабораторные синдромы поражения почек.

Ключевые слова: хронический гломерулонефрит, хронический гепатит В, гепатит С, экстракапиллярный, эндокапиллярный, иммунокомплекс, гепатоцит, аутоантитела.

Abstract. Secondary glomerular lesions in viral hepatitis develop slowly; however, in about one-third of patients this process progresses steadily and manifests as nephrotic syndrome accompanied by renal failure, which worsens the patient's condition. The aim of this study was to investigate the clinical and biochemical aspects of impaired renal functional status in chronic viral hepatitis B and C. The study involved 198 patients with positive serological markers of HBV and HCV who presented clinical and laboratory syndromes of kidney damage.

ISSN 3030-3907

Keywords: chronic glomerulonephritis, chronic hepatitis B, hepatitis C, extracapillary, endocapillary, immune complex, hepatocyte, autoantibodies.

KIRISH.

Dolzarbligi. Jigarning barcha kasalliklari orasida keng tarqalgan surunkali virusli V, C gepatitlari hamma joyda keng tarqalganligi va tez-tez uchrab turishi bilan zamonaviy gepatologiyaning eng muhim muammolaridan biridir. JSST ma'lumotlariga ko‘ra, dunyoda virusli gepatit B (HBV) tashuvchilarning taxminan 15 foizi va dunyo aholisining 10 foizi virusli gepatit C (HCV) tashuvchisi. Parenteral gepatit immun tizimining patogenezi, kechishi va natijalarida yetakchi rol o‘ynaydi. Immunitetning pastligi tufayli gepatit viruslarini "immun nazorati" dan "olib tashlash" xarakterli xususiyati patogenning barqarorligini va infektsiyaning surunkali kursining shakllanishini belgilaydi. Jigarning surunkali virusli patologiyasida aylanma immunoassaylar organlar va tizimlarning hujayradan tashqari lezyonlari ko‘rinishini qo‘zg‘atishi mumkin.

Gepatit B virusi glomerulonefrit rivojlanishida rol o‘ynashi mumkinligiga ishoniladi. Ushbu bayonotning isboti: glomerulonefritning turli shakllari bo‘lgan bemorlarda gepatit B virusi infektsiyasining belgilari va birinchi navbatda, HBsAg ni aniqlash chastotasining oshishi; buyrak glomeruliyalarida HBsAg konlarini aniqlash va buyrak shikastlanishida birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lgan HBsAg - anti-HBsAg ning immun kompleksi. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, HBsAg transporti glomerulonefrit rivojlanishi uchun xavf omili hisoblanadi.

ASOSIY XULOSALAR VA NATIJALAR

Glomerulonefrit bo‘lgan gepatit B bilan og‘rigan bemorlarda uning morfologik variantlari qayd etiladi: membrana, membrana-proliferativ, endo- va ekstra-kapillyar va boshqalar.

Virusli gepatit B bilan bog‘liq buyrak shikastlanishi mexanizmi o‘rnatilmagan. Quyidagilar bilan bog‘liq bir nechta tavsiyalar mavjud: HBsAg-anti-HBs immun-komplekslarining bevosita ta'siri; immun-komplekslar, shu jumladan anti-HBc, HBeAg, anti-HBe; kasallik davrida vayron qilingan gepatotsitlar va ularda ishlab chiqarilgan otoantikorlarning tarkibiy qismlari ta'siri bilan.

Glomerulonefrit (GN) buyrak patologiyasi tuzilishidagi asoratlarning og‘irligi, tashxis qo‘yish qiyinligi, nomukammal terapiyaning ko‘pgina shakllarining yomon prognozi va surunkali tufayli etakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Bugungi kunga kelib, GN buyrak kasalligi bo‘lib, u birlamchidan tashqari, ko‘pincha ma'lum bir tizimli yoki metabolik-endokrin patologiya doirasida rivojlanadigan, spektri juda keng bo‘lgan ikkilamchi lezyonning ahamiyatiga ega. Buyraklar bilan bog‘liq jarayonning tizimli tabiati qon orqali,

ISSN 3030-3907

xususan, HBV va HCV orqali yuqadigan virusli gepatitga xosdir. Kattalardagi virusli gepatitda ikkilamchi glomerulyar lezyonlar asta-sekin davom etadi; ammo bemorlarning uchdan birida bu jarayon barqaror rivojlanmoqda, u nefrotik sindrom sifatida namoyon bo‘lishi mumkin, buyrak etishmovchiligining namoyon bo‘lishi bilan bemorning ahvolini yomonlashtiradi, yallig‘lanishga qarshi terapiyaga javob berish qiyin va ekstrakorporeal usullardan foydalanishni talab qiladi. . immuno-kompleks patologiyasini davolash (plazmaferez, gemosorbsiya).

Ushbu tadqiqotning maqsadi surunkali virusli B va C gepatitlarida buyraklarning funktsional holatiga zarar etkazishning klinik va biokimyoviy jihatlarini o‘rganishdir.

MATERIALLAR VA USULLAR. Ushbu tadqiqotda ijobiy HBV va HCV serologik belgilari va buyrak shikastlanishining klinik va laboratoriya sindromi (glomerulonefrit) bo‘lgan 198 bemor ishtirok etdi. Ularning 47,8 foizi (95 nafari) erkaklar, 52,2 foizi (103 nafari) ayollardir. Respondentlarning o‘rtacha yoshi 52±3,7 yoshni tashkil etdi.

Kasallikning kechishini solishtirish uchun gepatit viruslari bilan kasallanmagan surunkali virusli gepatit bilan bog‘liq glomerulonefrit bilan og‘rigan 32 bemor tadqiqotga kiritildi. Tadqiqot Buxoro viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining Nefrologiya bo‘limida o‘tkazildi.

Bemorlarni tekshirishda anamnetik ma'lumotlar yig‘ildi, antropometrik ko‘rsatkichlar o‘lchandi, tana turi aniqlandi, organlar va tizimlarning holati baholandi, qon bosimi o‘lchandi, barcha sub'ektlar funktsional tekshiruvdan o‘tkazildi, glomerulyar filtratsiya tezligini aniqlash bilan biokimyoviy qon testi o‘tkazildi. ALT, AST, bilirubin va uning fraktsiyalari, umumiy oqsil va uning fraktsiyalari, karbamid va kreatinin darajalari, GFR (CKD-EPI tenglamasi bo‘yicha), kunlik proteinuriyani aniqlash bilan umumiy siydik tahlili. Barcha testlarda gepatit B va C belgilari Elisa tomonidan aniqlangan, shuningdek, buyraklar va jigar ultratovush tekshiruvi.

Surunkali glomerulonefrit (CGN) diagnostikasi anamnetik va klinik va biokimyoviy ma'lumotlar asosida aniqlandi: shish sindromi, yuqori qon bosimi, fundusning o‘zgarishi nefrogen gipertenziya, karbamid va kreatininning ko‘payishi, gipoproteinemiya, disproteinemiya, proteinuriya (1 g dan ortiq / kun), xarakterli siydik cho‘kmasi (gematuriya, silindrsimon).

Bemorlar sog‘liqni saqlash tizimi bo‘yicha JSST ekspertlarining tavsiyalariga muvofiq tekshirildi [VOZ, Jeneva, 2012]. Tadqiqotni o‘tkazishda biz 1964 yilda Butunjahon tibbiyot assotsiatsiyasining Xelsinki deklaratsiyasida (so‘nggi qo‘shimcha 2008 yilda Jahon tibbiyot assotsiatsiyasining 59-Bosh

ISSN 3030-3907

assambleyasida) qabul qilingan odamlar ishtirokidagi tibbiy tadqiqotlarning barcha axloqiy tamoyillariga amal qildik.

Olingan ma'lumotlar kompyuter dasturi yordamida parametrik bo‘lmagan statistik usulda qayta ishlandi. $p<0,05$ bilan korrelyatsiya statistik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

So‘rovimiz natijalari quyidagi ma'lumotlarni ko‘rsatdi: surunkali gepatit B ni aniqlash chastotasi 47%, surunkali gepatit C 41,4% ni tashkil qiladi. 11,6% ga aralash infektsiya tashxisi qo‘yilgan, ularda gepatit B va C belgilari mavjud (1-jadval).

Klinik va laboratoriya tadqiqotlari natijalarini tahlil qilishda surunkali glomerulonefritning klinik belgilarining chastotasi va og‘irligi va bemorlarning barcha guruhlarida ushbu kasallikning laboratoriya belgilarining darajasi o‘rganildi. Shu bilan birga, kasallikning klinik ko‘rinishi nefrotik sindrom, gematuriya, arterial gipertenziya rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

Aniq periferik shishlar mavjudligiga, qorin bo‘shlig‘i va plevra bo‘shliqlarida erkin suyuqlik mavjudligiga, qon bosimi ortishi darajasiga va splenomegaliyaning og‘irligiga e'tibor qaratildi. Buyraklarning funktsional qobiliyati sarum kreatinin darajasi va glomerulyar filtratsiya tezligi bilan baholanadi. Buyrak funktsiyasi glomerulyar filtratsiya tezligi (GFR) bilan baholanadi. GFRni hisoblash majburiydir. GFRni aniqlashning eng oqilona va ishonchli usuli bu biokimyoviy laboratoriyalarda avtomatik hisoblash bo‘lib, u ikkita natija berishi kerak - sarum kreatinin kontsentratsiyasi va taxminiy GFR. Biz qon zardobidagi kreatinin darajasini, bemorning irqi, jinsi va yoshini hisobga olgan holda CKD-EPI usuli yordamida GFRni hisobladik.

1-Jadval.

Surunkali glomerulonefrit (CGN) bilan og‘rigan bemorlarda surunkali gepatit turlarini aniqlash chastotasi

	1-guruh CGN bilan HBV n=93	2-guruh CGN bilan HCV n=82	3-guruh CGN bilan VHV+S n=23	CGN bo‘lgan va surunkali virusli gepatitsiz bemorlar = 32
Yosh	44,1±3,1	38,3±4,2	33,7±7	48,4±8,5
Jinsi erkak	52	40	14	11

ISSN 3030-3907

ayol	41	42	9	21
Davomiylik (yillar):	6,8±0,7	7,2±0,8	6,9±1,4	7,1±1,2
CGN	4,6±0,5	4,2±0,5	3,9±0,8	
CVH				

Tekshirilayotgan bemorlarda jigar shikastlanishining klinik ko‘rinishi sitoliz (ALT va AST faolligining oshishi), xolestaz (GGT (Gamma-glutamiltransferaza), gidroksid fosfataza, bilirubin faolligi), sariqlik (faoliyatning oshishi) sindromlarini hisobga olgan holda baholandi. to‘g‘ridan-to‘g‘ri fraktsiya tufayli umumiy bilirubin).

Barcha guruhlarda siydik tahlili natijalari, proteinuriya, gematuriya darajasi va zo‘ravonligi tahlil qilindi. (2-jadval)

2-Jadval.

CVH fonida CGN bilan kasallangan bemorlarning klinik va laboratoriya parametrlari

Ko‘rsatkichlar	HBV n=93 bo‘lgan 1-guruh CGN	HCV n=82 bilan 2-guruh CGN	VHV+S n=23 bilan 3-guruh CGN	CGN bo‘lgan va surunkali virusli gepatit bo‘lmagan bemorlar n = 32
Periferik shish (%)	65,6	41,2	90	58,3
Assitlar (%)	29,1	33,6	46,7	12,6
Arterial gipertenziya (%)	25,3	26,6	31,2	41,3
Splenomegali (%)	34,6	39,5	47,8	20,3
Proteinuriya (g/kun)	4,1±0,3	3,9±0,2	5,9±0,2	4,3±0,3
Umumiy protein (g/l)	57,6±1,1	52,3±1,3	46,1±1,4	52,5±1,5

ISSN 3030-3907

Albomlar (g/l)	39,9± 1,3	38,3± 1,2	25,7± 1,4	39,7± 1,3
GFR ml	66,6± 2,3	62,9± 2,2	50,7± 2,6	69,3± 1,8
ALT (IU/L)	46,2± 2,1	47,7± 2,9	51,9± 3,5	53,5± 3,3
AST, (IU/l)	48,4± 1,2	49,1± 1,8	61,2± 1,5	40,4± 1,9

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, CVH bilan bog‘liq bo‘lgan CGN bilan og‘rigan bemorlarda surunkali glomerulonefritning klinik belgilari ko‘payadi. Edematoz sindromning og‘irligi gepatit B + C (90%) bilan og‘rigan CGN bemorlari guruhida ko‘proq uchraydi. Ushbu guruhdagi bemorlarda arterial gipertenziya bilan kasallanish boshqa guruhlarda ham ustunlik qiladi.

CGN bilan bog‘liq CVH (47,8%) bo‘lgan bemorlarda splenomegali sindromi bilan kasallanish B va C viruslari bilan kasallanmagan glomerulonefritli bemorlarga qaraganda yuqori (20,3%).

Biokimyoviy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, jigar shikastlanish darajasi (ALT va AST darajalari natijalariga ko‘ra) CGN bilan bog‘liq CVH bo‘lgan bemorlarda gepatit B va C viruslari bilan kasallanmagan glomerulonefritli bemorlarga qaraganda yuqori bo‘lgan. . buyrakning shikastlanish darajasini ko‘rish mumkin. Chunki, CGN bilan bog‘liq CVH bo‘lgan bemorlarda GFR ko‘rsatkichlari past.

Qon oqsili metabolizmini, GFR darajasini va kunlik proteinuriya ko‘rsatkichlarini taqqoslash CGN bilan bog‘liq bo‘lgan CVH ning quyidagi xususiyatlarini aniqladi: CGN rivojlanishiga yordam beradigan eng jiddiy o‘zgarishlar (gipoproteinemiya, proteinuriya, GFRning pasayishi) CGN bilan og‘rigan bemorlarga ko‘proq xosdir.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerakki, buyrak shikastlanishi bilan bog‘liq surunkali virusli gepatit juda tez-tez uchraydi va turli rivojlanish kechikishlariga va turli klinik va morfologik ko‘rinishlarga olib kelishi mumkin. Shubhasiz, tibbiyotning ushbu yo‘nalishi bo‘yicha infektsion agentlar va nefrologlarning xabardorligi, ularning ushbu yo‘nalishdagi yaqinroq o‘zaro ta'siri ushbu murakkab bog‘liq patologiyani tashxislash va davolash uchun zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. American Diabetes Association. (2023). Classification and diagnosis of diabetes: Standards of care in diabetes—2023. *Diabetes Care, 46*(Suppl. 1), S19–S40. https://doi.org/10.2337/dc23-S002

ISSN 3030-3907

2. Baynes, J. W., & Thorpe, S. R. (1999). Role of oxidative stress in diabetic complications: A new perspective on an old paradigm. *Diabetes, 48*(1), 1–9. https://doi.org/10.2337/diabetes.48.1.1

3. Ceriello, A., & Motz, E. (2004). Is oxidative stress the pathogenic mechanism underlying insulin resistance, diabetes, and cardiovascular disease? *Arteriosclerosis, Thrombosis, and Vascular Biology, 24*(5), 816–823. https://doi.org/10.1161/01.ATV.0000122852.22604.78

4. Desco, M. C., Asensi, M., Márquez, R., Martínez-Valls, J., Vento, M., Pallardó, F. V., & Viña, J. (2002). Xanthine oxidase is involved in free radical production in type 1 diabetes: Protection by allopurinol. *Diabetes, 51*(4), 1118–1124. https://doi.org/10.2337/diabetes.51.4.1118

5. Giacco, F., & Brownlee, M. (2010). Oxidative stress and diabetic complications. *Circulation Research, 107*(9), 1058–1070. https://doi.org/10.1161/CIRCRESAHA.110.223545

6. Lenzen, S. (2008). The mechanisms of alloxan- and streptozotocin-induced diabetes. *Diabetologia, 51*(2), 216–226. https://doi.org/10.1007/s00125-007-0886-7

7. Palsamy, P., & Subramanian, S. (2008). Resveratrol protects diabetic kidney by attenuating hyperglycemia-mediated oxidative stress and renal inflammatory cytokines via Nrf2–Keap1 signaling. *Biochimica et Biophysica Acta, 1782*(5), 425–435. https://doi.org/10.1016/j.bbadis.2008.03.008

8. Reed, L. J. (1974). Multienzyme complexes. *Accounts of Chemical Research, 7*(2), 40–46. https://doi.org/10.1021/ar50074a001

9. Stacpoole, P. W. (2017). The pharmacology of dichloroacetate. *Metabolism, 65*(2), 229–238. https://doi.org/10.1016/j.metabol.2015.12.005

10. Tang, S. M., Deng, X. T., Zhou, J., Li, Q. P., Ge, X. X., & Miao, L. (2019). Pharmacological basis and new insights of quercetin action in respect to its anti-cancer effects. *Biomedicine & Pharmacotherapy, 121*, 109604. https://doi.org/10.1016/j.biopha.2019.109604

ISSN 3030-3907

BUXORO SUV TA’MINOTI TIZIMI ASOSIDA TALABALARDA EKOLOGIK MAS’ULIYAT VA BARQAROR RIVOJLANISH G‘OYALARINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI

Cho‘kma hosil bo‘lish jarayoni quyidagi bosqichlarda kechdi:

1. Eritmaning asta-sekin loyqalanishi
2. Oqartiruvchi flokulalar paydo bo‘lishi
3. Pastga cho‘kuvchi zich agregatlar hosil bo‘lishi

Kazein izoelektrik nuqtaga yaqin sharoitda tezroq cho‘kdi. Albumin esa yuqoriroq ion kuchi talab qildi. Bu oqsillarning tuzilish farqi va molekulyar massasi bilan izohlanadi.

XULOSALAR. Natijalarni fizik-kimyoviy nuqtai nazardan tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, oqsillarning tuzlar ta’sirida cho‘kishi faqatgina oddiy eruvchanlik kamayishi bilan emas, balki eritmadagi suv tuzilmasining qayta tashkil topishi, ionlarning gidratlanish qobiliyati va oqsil yuzasidagi funksional guruhlar bilan bilvosita o‘zaro ta’sirlar orqali kechadi. Oqsil molekulasi suvli muhitda mustaqil zarracha sifatida emas, balki gidratlangan kolloid sistema sifatida mavjud bo‘ladi. Shu sababli tuz qo‘shilganda nafaqat eritmaning ion kuchi, balki suvning erkinligi ham o‘zgaradi. Natijada oqsilning erkin gidratlangan holati termodinamik jihatdan kamroq qulay bo‘lib qoladi va agregatsiya uchun sharoit yuzaga keladi.

Mazkur tadqiqotda oqsillarning neytral tuzlar ta’sirida cho‘kishi jarayoni fizik-kimyoviy va tajribaviy jihatdan kompleks o‘rganildi. Olingan natijalar asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Oqsillarning tuzlar ta’sirida cho‘kishi ion kuchiga bog‘liq.
2. Yuqori valentli ionlar kuchliroq cho‘ktiradi.
3. $(NH_4)_2SO_4$ samarali cho‘ktiruvchi hisoblanadi.
4. Jarayon gidrat qobig‘ining buzilishi bilan bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Wingfield P.T. Protein precipitation using ammonium sulfate. *Current Protocols in Protein Science.* Vol. 88. – 2017.
2. Adhikari N., et al. Effects of precipitation methods on protease yield and activity from *Averrhoa carambola,* 2025.
3. Liang Y., et al. Molecular insights into ammonium sulfate–induced biological processes. *Microorganisms,* 2025.

ISSN 3030-3907

4. Nelson D.L., Cox M.M. Lehninger Principles of Biochemistry. – New York: W.H. Freeman, 2017.
5. Atkins P., de Paula J. Physical Chemistry. – Oxford: Oxford University Press, 2018.
6. Глинка Н.Л. Общая химия. – Москва: Юрайт, 2019.
7. Ленинджер А. Основы биохимии. – Москва: Мир, 2018.
8. Stryer L. Biochemistry. – New York: Freeman, 2019.

ISSN 3030-3907

NEYRON TARMOQLARI ASOSIDA PAKETLARNI DINAMIK FILTRLASH ALGORITMI

Tashev Sarvar Norboboyevich
Muhammad al-Alxorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti katta o‘qituvchi, , Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: sarvar.tashev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarmoq paketlarini neyron tarmoqlari asosida dinamik filtrlash algoritmi ishlab chiqish masalasi ko‘rib chiqilgan. Tarmoq trafigini tahlil qilish va zararli faoliyatlarni aniqlash uchun 1D konvolyusion neyron tarmoq (CNN) modeli qo‘llanilgan. Model paket atributlari asosida trafikni tasniflab, normal trafik va turli kiberhujumlarni aniqlaydi. Tadqiqot natijalari CNN modeli tarmoq trafigini filtrlashda yuqori aniqlikni ta’minlashini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: neyron tarmoqlar, konvolyutsion neyron tarmoq (CNN), tarmoq trafiki, paketlarni dinamik filtrlash, kiberxavfsizlik, anomaliyalarni aniqlash, DoS, DDoS, mashinali o‘qitish, tarmoq xavfsizligi.

Abstract. This article considers the development of a dynamic network packet filtering algorithm based on neural networks. A one-dimensional convolutional neural network (1D CNN) model is used to analyze network traffic and detect malicious activities. The model classifies network traffic based on packet attributes and identifies normal traffic and various types of cyberattacks. The results show that the CNN model provides high accuracy in network traffic filtering.

Keywords: neural networks, convolutional neural network (CNN), network traffic, dynamic packet filtering, cybersecurity, anomaly detection, DoS, DDoS, machine learning, network security.

Аннотация. В данной статье рассматривается разработка алгоритма динамической фильтрации сетевых пакетов на основе нейронных сетей. Для анализа сетевого трафика и выявления вредоносной активности применена модель одномерной сверточной нейронной сети (1D CNN). Модель классифицирует сетевой трафик на основе атрибутов пакетов и позволяет выявлять нормальный трафик и различные виды кибератак. Результаты исследования показали, что модель CNN обеспечивает высокую точность фильтрации сетевого трафика.

Ключевые слова: нейронные сети, сверточная нейронная сеть (CNN), сетевой трафик, динамическая фильтрация пакетов, кибербезопасность, обнаружение аномалий, DoS, DDoS, машинное обучение, сетевая безопасность.

KIRISH.

ISSN 3030-3907

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya tarmoqlarining jadal rivojlanishi va internet xizmatlari hajmining ortib borishi natijasida tarmoq trafigi keskin ko‘paymoqda. Shu bilan birga DoS, DDoS, zararli dasturlar tarqatilishi va tarmoqni skanerlash kabi turli kiberhujumlar soni ham ortib bormoqda. Bunday sharoitda tarmoq xavfsizligini ta’minlash va zararli trafiklarni o‘z vaqtida aniqlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. An’anaviy statik filtrlash usullari va signatura asosidagi himoya vositalari esa yangi yoki ilgari uchramagan tahdidlarni aniqlashda har doim ham yetarli samaradorlikni ta’minlay olmaydi [1].

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt va mashinali o‘qitish usullarining rivojlanishi tarmoq trafigini tahlil qilishda yangi yondashuvlarni taklif etmoqda. Xususan, konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN) ma’lumotlar ichidagi yashirin bog‘liqliklarni aniqlash va trafik xususiyatlarini avtomatik ajratish imkoniyatiga ega [2]. Bu esa normal va zararli trafikni aniqlash jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi.

Mazkur ishda tarmoq paketlarini tahlil qilish va kiberhujumlarni aniqlash maqsadida neyron tarmoqlar asosida paketlarni dinamik filtrlash algoritmi taklif etiladi. Taklif etilgan model tarmoq paketlarining asosiy atributlari asosida trafikni tasniflashga imkon beradi hamda tarmoq xavfsizligini oshirish va zararli faoliyatlarni o‘z vaqtida aniqlashga xizmat qiladi [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI.


Neyron tarmoqlar tasniflash, namunalarni aniqlash va bashoratlash kabi vazifalarni bajarishda yuqori aniqlikka erisha oladi. Neyron tarmoqlar yangi ma’lumotlarga moslashadi va vaqt o‘tishi bilan ularning xatti-harakatlarini o‘zgartiradi. Ular an’anaviy usullar bilan aniqlash qiyin bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni aniqlay oladi. CNN modelini qaysi sohada qo‘llanishiga qarab turlicha shakllantirilishi mumkin, bunda modelning ketma – ketligi saqlangan holda uning kiruvchi parametrlari va o‘qitish usuli o‘zgarishi mumkin hamda tabiiyki modelning qaysi sohada qo‘llanishiga qarab ma’lumotlar to‘plami(dataseti) ham o‘zgaradi [1].

Odatda, CNN modeli tarmoq trafigidagi filtrlash jarayonida anomaliyalarni aniqlashda foydalaniladi. CNN modelidan foydalanishda matematik ta’minot va modelining umumiy arxitekturasi o‘zining namunaviy holatini saqlab qoladi. Tarmoq trafigini qaysi parametrlar asosida aniqlashga qarab, CNN modelining matematik ta’minotining qadamlar ketma-ketligi ko‘payishi va umumiy arxitekturasiga qo‘shimcha modullar qo‘shilishi mumkin [2].

Neyron tarmoqlari asosida paketlarni dinamik filtrlashda neyron tarmoq kiritish qatlami 4 qavatdan iborat bo‘ladi. Kiritish qatlami tugunlarining sonini to‘g‘ri tanlash murakkab bo‘lib, bu odatda ishlab chiquvchining bilimlari va bir

ISSN 3030-3907

nechta tajribalarni talab qiladi. Agar yashirin qatlamlarda juda ko‘p birliklar bo‘lsa, “ortiqcha o‘qitish” yuzaga keladi, o‘qitish muddati haddan tashqari uzoq bo‘ladi, xatolik optimal bo‘lmaydi. Samaradorlik uchun yashirin qatlam elementlarining sonini aniqlash uchun tajribaviy baholash ham o‘tkazilishi talab etiladi. 1-rasmda tarmoq paketlarini dinamik filtrlashda CNN neyron tarmog‘i qatlamlaridan foydalanish sxemasi keltirilgan.



1-rasm. Tarmoq paketlarini dinamik filtrlashda CNN Neyron tarmog‘i qatlamlari sxemasi

Sxemada CNN modelining kirish qismi an’anaviy tasvir emas, balki tarmoq paketining xususiyatlari ekanligi ko‘rsatilgan. Model paketlarni ketma-ketlik ko‘rinishida qabul qiladi. Bunda:

1. Lokal namunalar - paket ichidagi ketma-ket baytlar, bo‘shliqlardagi xususiyat kombinatsiyalari bo‘lib, ular CNN filtrlari yordamida aniqlanadi.
2. Xususiyatlarni avtomatik ajratish - CNN xususiyatlarni avtomatik o‘rganadi (past darajadagi yoki yuqori darajadagi).
3. Tasniflash - normal trafik, hujumlar (masalan, HTTP, DNS, SSL) yoki boshqa anomaliyalarni aniqlash.
4. Real vaqt - soddalashtirilgan CNNlarning qurilma ichida mavjudligi (on-device).

ISSN 3030-3907

5. Paket darajasida ishlash - bitta paketdan boshlab, bir nechta paketlardan tashkil topgan oqimlarni tasniflash.
6. Hujum signaturalari yoki yangi anomaliyalarni aniqlash - noyob kombinatsiyalar va lokal namunalar orqali aniqlash amalga oshiriladi.

Bu sxema paket/oqimni qisqa va o‘rta muddatli lokal namunalar asosida sinflashtirishga mos keladi.

1. Kirish qatlami

Kirish qatlami 8 ta tugunga ega bo‘lib, bu tugunlar neyron tarmoqqa kiritilgan ma’lumotlar sonini ifodalaydi. Ushbu kirishlar quyidagi atributlarni o‘z ichiga oladi: manba IP manzili, manba port raqami, manzil port raqami, tasdiqlash raqami, ketma-ketlik raqami va paket bilan qabul qilingan ma’lumotlar [3].

Kiritiluvchi xususiyatlar:

1. IP manbasi
2. IP manzili
3. Protokol
4. Manba porti
5. Manzil porti
6. Paket hajmi
7. Tarmoq interfeysi
8. Bayroqlar (SYN/ACK/FIN va hokazo)

Bu xususiyatlar dastlab raqamlashtiriladi:

– IP manzillar → 32-bit
– Protokol → TCP, UDP)
– Portlar → butun
– Paket hajmi → haqiqiy qiymat
– Bayroqlar → bitlar

CNN uchun 1D vektor yoki ketma-ket xususiyatlar ko‘rinishiga keltiriladi.

2. Xususiyatlarni taqsimlash

Har bir xususiyatlar o‘z o‘lchamiga ega bo‘lgan taqsimlangan vektorga aylantiriladi [4].

1-jadval.

CNN modeli uchun tarmoq paketi xususiyatlarining o‘lchamlari

№	Xususiyatlar	O‘lcham
1.	IP manzil	16–32 bit
2.	Protokol	8–16 bit
3.	Portlar	8–16 bit
4.	Bayroqlar	4–8 bit

3. Konvolyutsiya qatlami

ISSN 3030-3907

Bu qatlam:

– Paket xususiyatlari orasidagi lokal aloqalarni o‘rganadi (masalan: protokol + bayroqlar + port orasidagi bog‘lanish)

– Kichik yadro ketma-ket 3 ta xususiyatni bir vaqtda tahlil qiladi.

– Bu yerda CNN tarmog‘i quyidagilarni o‘rganadi:

– Shubhali port + protokol kombinatsiyasi

– Juda katta paket + noodatiy bayroqlar

– Muayyan interfeys orqali taxminiy hujum shakli

CNN bu bosqichda xususiyat xaritalari (feature maps)ni hosil qiladi [5].

4. ReLUni faollashtirish

ReLU (Rectified Linear Unit) activation - bu neyron tarmoqlarda eng ko‘p ishlatiladigan faollashtirish funksiyasi bo‘lib, u kiritilgan qiymatni o‘zgartiradi [6].

5. MaxPooling qatlami

Konvolyutsion neyron tarmoqlarda qo‘llaniluvchi o‘lchamni kichraytirish usuli bo‘lib, u trafikdan olinuvchi xususiyatlar hajmini qisqartiradi, ya’ni strukturaviy o‘lchamlarni samarali kamaytiradi [7].

6. Tekislash qatlami

Tekislash qatlami xususiyatlar xaritasini (feature map) 1D vektor shakliga aylantiradi, bu esa ma’lumotni tarmoq paketlari kabi uzatishga moslashtirish imkonini beradi [8].

7. To‘liq ulangan qatlam

– O‘rganilgan xususiyatlarni umumlashtiradi;

– Trafikning xavfsizlik holatini aniqlaydi;

– To‘liq ulangan qatlam ReLUdan foydalanadi [9].

8. Softmax chiqish qatlami

Tarmoq paketi tafsiflangan so‘ng natijalarni taqdim etadi (masalan, normal/hujum/xizmat turi):

2-jadval.

Model chiqishi

№	Sinf	Ma’nosi
1.	Normal	Oddiy trafik
2.	DoS (Denial-of-Service)	Xizmatdan voz kechish
3.	DDoS (Distributed DoS)	Taqsimlangan xizmatdan voz kechish
4.	Probe	Skanerlash turi
5.	Malware	Zararkunanda
6.	Boshqalar	Xizmat protokollari

ISSN 3030-3907

Softmax chiqish qatlami har bir sinf uchun ehtimollik qiymatini beradi. Ko‘plab anomaliyalarni aniqlash usullaridan farqli o‘laroq, taklif etilgan algoritmda qabul qiluvchi IP manzili ishlatilmaydi, chunki aniqlash dasturi tarmoqdagi boshqa qurilmalar uchun emas, balki aniqlash maqsadida manzil qurilmasida ishlatiladi [10].

Yashirin qatlamlar. Bu yerda uchta yashirin qatlam mavjud.

Birinchi yashirin qatlam 64 tugunga ega.

Ikkinchi yashirin qatlam 256 tugunga ega.

Uchinchi yashirin qatlam 512 tugunga ega.

Chiqish qatlami. Chiqish qatlami 2 ta tugunga ega bo‘lib, maqsad xususiyatini ifodalaydi, ya’ni chiqish 1 yoki 0 bo‘ladi. Paket zararli bo‘lsa, “1” faollashadi, paket haqiqiy bo‘lsa, “0” faollashadi. Uchinchi yashirin qatlamdagi 512 qiymat 2 qiymatga yoziladi.

CNNni o‘qitish jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi:

- ma’lumotlar oqimi;
- tanlangan ma’lumotlar to‘plami(dataset);
- model arxitekturasi va algoritm blok sxemasi.

Ma’lumotlar oqimi quyidagicha amalga oshiriladi. 2-rasmda CNN yordamida tarmoq protokollarini aniqlash uchun ishlatilgan ma’lumotlardan foydalanish ketma-ketligi keltirilgan.


Paket ma’lumotlari modelga yuborilishidan oldin bir necha bosqichdan o‘tadi:

1. Ma’lumotlar to‘plami (dataset) shakllantiriladi.
2. Ma’lumot yuklanadi.
3. Xususiyatlar (features) CNN uchun mos shaklga o‘tkaziladi o‘lchamlarga moslashtiriladi (reshaping).
4. Modelga o‘qitiladi (train).
5. Test ma’lumotlari yordamida model baholanadi.
6. CNN prognozlari bilan haqiqiy protokol yorliqlari solishtiriladi.

Tadqiqotda modelni o‘qitishda *KDD Cup 1999, CIC-DDoS-2023, SDN-Traffic-2024 Dataset, CESNET-TimeSeries24, CIC-UNSW-NB15* hamda *TimeSeries24* datasetlardan foydalanilgan. Tarmoq trafigini filtrlashda 1- o‘lchovli (1D) Konvolyutsion neyron tarmoq (CNN) modelidan foydalanilgan.

Real vaqtda tarmoq trafik paketlarini tahlil qilish uchun 1D konvolyutsion neyron tarmog‘i 2-rasmda yoritib berilgan.

ISSN 3030-3907



2-rasm. Real vaqtda tarmoq trafik paketlarini tahlil qilish uchun 1D konvolyutsion neyron tarmog‘i

Baholash va metrikalar

Accuracy - umumiy tog‘ri tasniflar (ammo imbalance holatlarida chalg‘iydi). Precision/Recall/F1-ayniqsa hujumni aniqlashda muhim (false positive/false negative ta’siri).

ROC-AUC - barqaror baho.

Confusion matrix - sinflar kesimida xatolarni tahlil qilish.

Latency / throughput - real-time tizimlarda inferensiya tezligi.

CNN modellarining tasniflashda keng qo‘llanilishining sababi - xususiyatlarni (feature) avtomatik ravishda ajrata olishi, ya’ni qo‘lda xususiyatlarni kiritib borishni talab qilinmasligidir.

Konvolyutsiya qatlamidagi filtr kiritilgan ma’lumotdan joyga bog‘liq bo‘lmagan (location-invariant) signaturalarini avtomatik ravishda aniqlaydi. Bir nechta CNN qatlamlarini ketma-ket ulash orqali murakkabroq xususiyatlarni ham olish mumkin


ISSN 3030-3907

CNN modelida kiritilayotgan ma’lumot rasm bo‘ladimi, so‘zlar ketma-ketligi bo‘ladimi CNNlarning umumiy strukturalari o‘xshash bo‘ladi. Qatlamlar soni va turi hal qilinayotgan muammoning murakkabligiga qarab o‘zgaradi [11].

Olingan natija va tahlillar. Ushbu tadqiqotda yig‘ilgan va oldindan qayta ishlangan umumiy ma’lumotlar to‘plamining 80% qismi neyron tarmoqlarni o‘qitish va tekshirish uchun, 20% esa modelni sinash uchun ishlatiladi. Mashinali o‘qitishning ko‘pgina boshqa jihatlari singari, ma’lumotlar to‘plamini ajratish nisbati maqsadli muammo va tarmoq hamda ma’lumotlar to‘plami haqidagi barcha tegishli xususiyatlarni hisobga olgan holda belgilanadi. Taqqoslash uchun tayanch vektorlar usuli (SVM) asosida ikkinchi mavjud model solishtirilgan. SVM yordamida o‘qitish uchun olingan aniqlik taxminan 81,1% ni, sinov uchun esa taxminan 81% ni tashkil etadi. Ushbu ikki modelni (SVM va CNN) taqqoslaganda, CNN ancha yuqori aniqlikka ega bo‘ldi. Shu sababli, yakuniy dinamik paketlarni filtrlaydigan model CNN neyron tarmog‘i asosida taklif etildi.

Tarmoq trafigini CNN asosida filtrlashda algoritmining blok-sxemasi 3-rasmda ko‘rsatilgan bosqichlar asosida amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907



3-rasm. Tarmoq trafigini CNN asosida filtrlash algoritmining blok sxemasi

Umuman, axborot-kommunikatsiya tizimlarida neyron tarmoqlar asosida paketlarni dinamik filtrlash modeli IP paketlaridagi atributlar va o‘rganilgan qoidalarga asoslanib, paketlarni yuqori aniqlik bilan filtrlash va tarmoqdagi xatoliklar xavfini kamaytirishga imkon beradi.

XULOSA

Ushbu maqolada tarmoq trafigini tahlil qilish va kiberhujumlarni aniqlash maqsadida ***neyron tarmoqlar asosida paketlarni dinamik filtrlash algoritmi*** taklif etildi. Tadqiqot jarayonida tarmoq paketlarining asosiy atributlari (IP manzil, portlar, protokol turi, paket hajmi va bayroqlar) asosida trafikni tahlil qilish uchun ***1D konvolyusion neyron tarmoq (CNN)*** modeli ishlab chiqildi.

Ishda CNN modeli uchun ma’lumotlarni tayyorlash, xususiyatlarni shakllantirish, modelni o‘qitish va baholash bosqichlari amalga oshirildi. Modelni o‘qitishda bir nechta ochiq tarmoq trafigi ma’lumotlar to‘plamlari (KDD Cup 1999,

ISSN 3030-3907

CIC-DDoS-2023, SDN-Traffic-2024, CIC-UNSW-NB15 va boshqalar) qo‘llanildi hamda ma’lumotlar 80% o‘qitish va 20% test qilish qismlariga ajratildi.

Tadqiqot natijalarini baholashda Accuracy, Precision, Recall, F1-score, ROC-AUC va Confusion matrix kabi metrikalardan foydalanildi. Olingan natijalar CNN modeli tarmoq trafigini tasniflash va kiberhujumlarni aniqlashda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Shuningdek, model natijalari ***SVM algoritmi*** bilan taqqoslanib, CNN modeli yuqoriroq aniqlikni ta’minlashi aniqlandi.

Natijada taklif etilgan dinamik filtrlash algoritmi tarmoq paketlarini samarali tahlil qilish, zararli trafikni o‘z vaqtida aniqlash va axborot-kommunikatsiya tizimlarida tarmoq xavfsizligini oshirish imkonini berishi asoslab berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Han, Y., Huang, G., Song, S., Yang, L., Wang, H., & Wang, Y. Dynamic neural networks: A survey. IEEE transactions on pattern analysis and machine intelligence, 2021. - 44(11), 7436-7456.
2. Hairab, B. I., Elsayed, M. S., Jurcut, A. D., & Azer, M. A. Anomaly detection based on CNN and regularization techniques against zero-day attacks in IoT networks. IEEE Access, 2022. - 10, 98427-98440.
3. Uzair, M., & Jamil, N. Effects of hidden layers on the efficiency of neural networks. In 2020 IEEE 23rd international multitopic conference (INMIC) 2020, November. - (pp. 1-6). IEEE.
4. Liu, D., Zhang, L., Lai, X., & Liu, H. Image feature selection embedded distribution differences between classes for convolutional neural network. *Applied Soft Computing*, 2022. - *131*, 109715.
5. Ajit, A., Acharya, K., & Samanta, A. A review of convolutional neural networks. In 2020 international conference on emerging trends in information technology and engineering (ic-ETITE) 2020, February. - (pp. 1-5). IEEE.
6. Mastromichalakis, S. ALReLU: A different approach on Leaky ReLU activation function to improve Neural Networks Performance. arXiv preprint arXiv: 2020. - 2012.07564.
7. Jie, H. J., & Wanda, P. RunPool: A dynamic pooling layer for convolution neural network. International Journal of Computational Intelligence Systems, 2020. - 13(1), 66-76.
8. Jeczmionek, E., & Kowalski, P. A. Flattening layer pruning in convolutional neural networks. Symmetry, 2021. - 13(7), 1147.
9. 74Basha, S. S., Dubey, S. R., Pulabaigari, V., & Mukherjee, S. Impact of fully connected layers on performance of convolutional neural networks for image classification. Neurocomputing, 2020. - 378, 112-119.

ISSN 3030-3907

10. Asadi, B., & Jiang, H. On approximation capabilities of ReLU activation and softmax output layer in neural networks. 2020. - *arXiv preprint arXiv:2002.04060*.
11. Bekmuratov, T. F., & Botirov, F. B. ELECTRONIC SPAM FILTERING BASED ON NEURAL NETWORKS. *Chemical Technology, Control and Management*, *2020*(3), 59-65.

ISSN 3030-3907

UDK: 616.61-008.6–053.2

BOLALARDA O‘TKIR GLOMERULONEFRITNING KLINIK-LABORATOR XUSUSIYATLARI VA PROFILAKTIK YONDASHUVLAR

Utamuradova Nigora Abduraxmanovna
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot bolalardagi o‘tkir glomerulonefritni (O‘GN) o‘rganib, kasallik rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy xavf omillarini tahlil qiladi. 43–18 yoshdagi 95 nafar nefritik O‘GN bilan kasallangan va 25 nafar sog‘lom bola klinik, laborator, immunologik va ultratovush usullari bilan baholandi. Og‘ir shakldagi O‘GN bemorlarida yuqori darajada azotemiya, oliguriya va glomerulyar filtratsiya pasayishi aniqlangan, yengil shakllarda esa o‘zgarishlar kamroq kuzatilgan. Asosiy xavf omillari sifatida perinatal asoratlar, surunkali infeksiya o‘choqlari va β-gemolitik streptokokk infeksiyasi qayd etilgan. Natijalar kasallik og‘irligini kamaytirish va buyrak funksiyasini saqlash uchun infektsiyalarni erta aniqlash, muntazam kuzatuv va profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimligini ko‘rsatadi.

**Kalit so`zlar:** bolalar, o`tkir glomerulonefrit, xavf omillari, profilaktika, β-gemolitik streptokokk.

Аннотация. В данном исследовании изучается острый гломерулонефрит (ОГН) у детей с акцентом на ключевые факторы риска и прогрессирование заболевания. Были обследованы 95 ребенка в возрасте 3–18 лет с нефритической формой ОГН и 25 здоровых ребенка с использованием клинических, лабораторных, иммунологических и ультразвуковых методов. У детей с тяжелой формой ОГН выявлены высокая азотемия, олигурия и снижение скорости клубочковой фильтрации, тогда как у детей с легкими формами изменения были менее выражены. Основными факторами риска считались перинатальные осложнения, хронические очаги инфекции и β-гемолитический стрептококк. Результаты подчеркивают важность раннего выявления инфекций, регулярного наблюдения и профилактических мероприятий для снижения тяжести заболевания и сохранения функции почек.

Ключевые слова: дети, острый гломерулонефрит, факторы риска, профилактика, β-гемолитический стрептококк.

Abstract. This study explores acute glomerulonephritis (AGN) in children, examining key risk factors and disease progression. Ninety-five children aged 3–18 with nephritic AGN and 25 healthy controls were assessed using clinical, laboratory, immunological, and ultrasonographic methods. Severe AGN cases showed high azotemia, oliguria, and reduced glomerular filtration, while milder

ISSN 3030-3907

cases had less pronounced changes. Perinatal complications, chronic infections, and β-hemolytic streptococcal infections were identified as main risk factors. Findings emphasize the importance of early infection control, regular monitoring, and preventive measures to reduce disease severity and preserve kidney function.

Keywords: children, acute glomerulonephritis, risk factors, prevention, β-hemolytic streptococcus.

KIRISH.

Dolzarbligi. Glomerulonefrit (GN) bolalar nefrologiyasida eng ko‘p uchraydigan patologiyalardan biridir. Ushbu kasallikda glomerulyar apparatning zararlanishi natijasida buyraklarning filtratsion faoliyati izdan chiqadi va organizmda suv-tuz almashinuvi hamda metabolik jarayonlar buzilishi mumkin. Shuning uchun ham glomerulonefrit bolalarda buyrak kasalliklari tuzilmasida muhim klinik va ijtimoiy ahamiyatga ega [6–9].

O‘tkir glomerulonefrit ko‘pincha infeksion omillar, ayniqsa β-gemolitik streptokokk bilan bog‘liq bo‘lgan holatlardan keyin rivojlanadi. Infeksiya ta’sirida organizmda hosil bo‘lgan immun komplekslar buyrak glomerulalarida to‘planib, yallig‘lanish reaksiyasini yuzaga keltiradi. Bu jarayon glomerulyar filtratsiyaning pasayishiga olib kelib, proteinuriya, gematuriya, shishlar va arterial gipertenziya kabi klinik belgilar bilan namoyon bo‘ladi [5, 7, 11].

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar glomerulonefrit patogenezida nafaqat infeksion omillar, balki genetik moyillik, immun tizimi faoliyatidagi o‘zgarishlar va oksidlovchi stress ham muhim rol o‘ynashini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, immunoregulyator sitokinlar va T-limfotsitlar faoliyatining o‘zgarishi buyrak to‘qimalarida yallig‘lanish jarayonlarining kuchayishiga hamda fibroz rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin [1–6].

Bolalarda glomerulonefritning klinik kechishi turlicha bo‘lib, ayrim hollarda kasallik o‘tkir simptomlar bilan namoyon bo‘lsa, boshqa holatlarda yashirin yoki atipik shaklda rivojlanishi mumkin. Bu esa kasallikni o‘z vaqtida aniqlashni qiyinlashtiradi va kech tashxis qo‘yilganda buyrak funksiyasining jiddiy buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli bolalarda glomerulonefritni erta aniqlash, xavf omillarini o‘rganish va samarali profilaktik choralarni ishlab chiqish zamonaviy pediatriya va nefrologiyaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi [10–13].

Hozirgi vaqtda glomerulonefritni davolash va nazorat qilishda yallig‘lanish jarayonlarini kamaytirishga qaratilgan zamonaviy terapevtik usullar qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga, buyrak shikastlanishini erta aniqlash imkonini beruvchi biomarkerlardan foydalanish kasallikni o‘z vaqtida diagnostika qilish va uning asoratlarini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi [1, 4, 7, 12].

ISSN 3030-3907

TADQIQOT MAQSADI — Bolalarda o‘tkir glomerulonefrit rivojlanishi va kechishiga ta’sir etuvchi asosiy xavf omillarini aniqlash hamda kasallik profilaktikasining samarali yo‘llarini baholash.

TADQIQOT MATERIALI VA USULLARI. Tadqiqot doirasida 3 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan 95 nafar bola kuzatildi, ularning barchasida o‘tkir glomerulonefrit (OGN) nefritik shaklda kechgan. Nazorat guruhi sifatida shu yosh oralig‘idagi 25 nafar sog‘lom bola tanlandi.

Tadqiqotda kompleks klinik va laborator diagnostik metodlar qo‘llanildi. Bunga ota-onalar bilan anketa asosida olib borilgan intervyular kirib, unda perinatal va postnatal xavf omillari, irsiy moyillik va ijtimoiy sharoitlar baholandi. Shu bilan birga, siydik tahlili, klinik va biokimyoviy qon tahlillari, buyraklarning funksional ko‘rsatkichlarini o‘lchash hamda immunogramma (I, II va III sinf immunoglobulinlari) tekshiruvi amalga oshirildi.

Instrumental diagnostika sifatida buyraklarning ultratovush tekshiruvi (UTT) qo‘llanildi. Bundan tashqari, bemorlarning ambulator kartalari tahlil qilinib, yondosh kasalliklar chastotasi va OGN rivojlanishidan oldingi siydik va qon tahlillari natijalari o‘rganildi.

Statistik tahlillar STATISTICA 6.0 dasturida bajarildi. Ma’lumotlar qayta ishlanishida o‘rtacha qiymatlar, standart og‘ish, Student t-mezoni bo‘yicha ishonch oralig‘i hamda korrelyatsiya koeffitsientlari aniqlanib, ularning diagnostik va prognostik ahamiyati baholandi.

NATIJALAR. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bolalarda o‘tkir glomerulonefrit (O‘GN) rivojlanishida infeksion omillar markaziy rol o‘ynaydi. Kuzatilgan bemorlarning taxminan 28 % da o‘tkir tonzillit, 3 % da pnevmoniya, 2 % da yiringli otit va 26 % da o‘tkir respirator virusli infektsiya (O‘RVI) qayd etilgan. Bundan tashqari, 13 % bolalarda ko‘p sonli kariyes mavjudligi infeksion og‘riqlarni qo‘zg‘atadigan qo‘shimcha omil sifatida e’tiborga olingan. Zardob namunalarida β-gemolitik streptokokklar 17 % hollarda aniqlangan, 94 % bemorda esa antistreptolizin-O (ASL-O) titrining sezilarli darajada oshishi kuzatilgan, bu esa poststreptokokk etiologiyasining OGN rivojlanishidagi ustuvorligini tasdiqlaydi.

Klinik va laborator tahlillar asosida OGNning uch xil kechish shakli ajratildi: yuqori darajada faol (I guruh) – 23 %, o‘rtacha faol (II guruh) – 61 %, va minimal faol (III guruh) – 16 %. Yuqori faol shaklda bemorlarda yuz, tana va oyoqlarda sezilarli shishlar, arterial gipertenziya (145/90–180/105 mm Hg), makrogematuriya va proteinuriya (1–2,2 g/l) kuzatilgan. Ushbu belgilar bemorning klinik holatining og‘irligini ko‘rsatib, yallig‘lanish jarayonining keng tarqalganligini tasdiqlaydi.

ISSN 3030-3907

O‘rtacha faol shaklda shishlar asosan yuzda bo‘lib, 5–6 kunda pasaygan; arterial bosim 130/85–148/95 mm Hg gacha ko‘tarilgan va 5–7 kunda normallashgan. Siydik tahlillarida proteinuriya 0,97 ± 0,12 g/l va eritrotsituriya ko‘p miqdorda aniqlangan, bu esa buyrakning filtratsion funksiyasida o‘rta darajada buzilish borligini ko‘rsatadi.

Minimal faol shaklda arterial bosim qisqa muddat (2–3 kun) oshgan (130/85 mm Hg), ko‘z qovog‘ida engil pastozlik va proteinuriya (0,65 g/l gacha) qayd etilgan. Bu shakl odatda klinik jihatdan yengil o‘tadi, ammo vaqtida kuzatib borilmasa, surunkali asoratlar xavfi mavjud.

Biokimyoviy tekshiruvlar shuni ko‘rsatdiki, yuqori va o‘rtacha faol shakldagi bemorlarda umumiy oqsil darajasi sezilarli darajada pasaygan, mochevina va kreatinin esa sog‘lom bolalar va minimal faol shakldagi bemorlarnikiga nisbatan oshgan ($p < 0,01$). Ushbu ma’lumotlar buyrak filtratsion funksiyasining og‘irlik darajasini aks ettiradi.

Immunologik tahlillar natijasida IgA va IgM darajalari hamda tsirkulyatsiyalovchi immun komplekslar (TsIK) yuqori, IgG darajasi esa past bo‘lgan. Bu o‘zgarishlar immunokompleksli yallig‘lanish mexanizmlarining faollashganini va glomerulyar bazal membranada immun yotishmalar to‘planishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ASL-O titri barcha OGN bemorlarida oshgan, eng yuqori daraja yuqori faol shakldagi bolarda qayd etilgan.

Ushbu topilmalar shuni ko‘rsatadiki, streptokokk infeksiyasi nafaqat kasallikni boshlovchi trigger, balki immun tizimining yallig‘lanish jarayonlarini faollashtiruvchi asosiy faktor hisoblanadi. Bundan tashqari, natijalar OGNning klinik kechish shakllarini aniqlash, individual monitoring va erta profilaktik choralarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi. OGN turli shakllarida buyrak va metabolik funktsiyalarni baholash uchun biokimyoviy tahlillar olib borildi. Natijalar Jadval 1da keltirilgan.

1-jadval.

Bolalarda OGN turli shakllarida biokimyoviy ko‘rsatkichlar (M ± m)

Ko‘rsatkichlar	OGN I-variant (n=22)	OGN II-variant (n=46)	OGN III-variant (n=25)	Sog‘lom bolalar (n=25)
Umumiy oqsil (g/l)	58,2 ± 0,75 ***	65,0 ± 0,52 **	71,5 ± 0,48 *	76,0 ± 0,46
Albuminlar (g/l)	31,0 ± 0,63 **	34,0 ± 0,41 *	35,5 ± 0,50	36,5 ± 0,57
Xolesterin (mmol/l)	6,4 ± 0,27 **	5,45 ± 0,21	5,05 ± 0,29	5,10 ± 0,32

ISSN 3030-3907

Mochevina (mmol/l)	11,5 ± 0,90 ***	8,8 ± 0,51 **	6,5 ± 0,36	5,40 ± 0,34
Kreatinin (µmol/l)	128,0 ± 2,9 ***	95,2 ± 2,4 **	73,0 ± 1,6	68,0 ± 1,8

Izoh: *p < 0,05; **p < 0,01; ***p < 0,001 sog‘lom bolalar bilan solishtirganda.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, og‘ir kechuvchi I-variantda umumiy oqsil va albumin darajalari sezilarli darajada past bo‘lib, bu oqsil yo‘qotilishi va glomerulyar shikastlanishning yuqoriligi bilan izohlanadi. Xolesterin darajasining oshishi lipid almashinuvining buzilganini ko‘rsatadi. Mochevina va kreatinin darajalarining oshishi buyrak filtratsiyasining pasayganligini bildiradi. II va III-variantlarda ko‘rsatkichlar normaga yaqinlashadi, bu esa buyrak funktsiyasining qisman tiklanayotganini ko‘rsatadi.

2-Jadval.

OGN turli klinik shakllarida buyrak funksiyasi buzilish chastotasi

Ko‘rsatkichlar	**Jami (n=93)**	**I-variant (n=22)**	**II-variant (n=46)**	**III-variant (n=25)**
Oliguriya	*33 / 35,5 %*	*14 / 63,6 %*	*16 / 34,8 %* **	*4 / 16,0 %* ***
Giperkaliemiya	*9 / 9,7 %*	*5 / 22,7 %*	*3 / 6,5 %* **	*0 / 0,0 %* ***
Metabolik atsidoz	*7 / 7,5 %*	*4 / 18,2 %*	*2 / 4,3 %* *	*0 / 0,0 %* *
Qon zardobida mochevina oshishi	*29 / 31,2 %*	*16 / 72,7 %*	*10 / 21,7 %* ***	*3 / 12,0 %* ***
Qon zardobida kreatinin oshishi	*27 / 29,0 %*	*15 / 68,2 %*	*9 / 19,6 %* ***	*3 / 12,0 %* ***
Glomerulyar filtrlatsiya tezligi pasayishi	*40 / 43,0 %*	*19 / 86,4 %*	*16 / 34,8 %* ***	*5 / 20,0 %* ***
Siydikning nisbiy zichligi kamayishi	*38 / 40,9 %*	*18 / 81,8 %*	*15 / 32,6 %* ***	*5 / 20,0 %* ***

***Izoh:** *p<0,05; **p<0,01; ***p<0,001 — II va III guruh ko‘rsatkichlarini I guruh bilan solishtirganda. abs. – mutlaq son, % – foiz.*

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, og‘ir kechuvchi OGNda (I-guruh) buyrakning filtratsion, konsentratsion va ekskretor funksiyalari eng chuqur buzilgan. Oliguriya, azotemiya va elektrolit muvozanatining buzilishi og‘ir shakl bilan yaqqol bog‘liq. II va III-guruhlarda buzilishlar sezilarli darajada past bo‘lib, qaytaruvchan xarakterga ega ekanligi aniqlangan.

Anamnestik tahlilga ko‘ra, OGN bilan og‘rigan bolalarda antenatal va perinatal xavf omillari yuqori darajada qayd etilgan: onalarda gestoz 12 %,

ISSN 3030-3907

homiladorlik davrida O‘RVI 36 %, piyelonefrit 18 %. Bolalarda asfiksiya 6 %, intrauterin distrofiyaga chalinganlar 7 %, muddatidan oldin tug‘ilganlar 7 %. Perinatal ensefalopatiya 33 % holatda aniqlangan. Irsiy moyillik 3 %, arterial gipertenziya ota-onalarda 17 %, qarindoshlarda 48 % kuzatilgan.

Siydik tahlili va oldingi tahlillar asosida, bolalarning 85 %ida OGN rivojlanishidan oldin mikrogematuriya, oksaluriya va uraturiya mavjud edi. Rentgen tekshiruvida buyrak yoki siydik yo‘llari anomaliyasi 4 %, pieloektaziya 3 %, vezikoureteral reflyuks 2 % holatda aniqlangan. Surunkali infektsiya o‘choqlari, jumladan kariyes (52 %) va limfoadenopatiya, lamblioz va enterobioz ham bolalarda yuqori darajada kuzatildi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, I-guruhda og‘ir OGN bilan og‘rigan bolalarda odatda 5 ta xavf omili birga mavjud: perinatal patologiya, oldingi siydik o‘zgarishlari, gastrointestinal kasalliklar, lamblioz va surunkali infektsiya o‘choqlari. II-guruhda 4 ta, III-guruhda 3 ta xavf omili dominant bo‘lgan.

Kasallik boshlanganidan bir yil o‘tib, 83 % bolalarda buyrak funktsiyasi va siydik tahlili normal darajaga qaytgan, 13 %ida mikrogematuriya va yengil proteinuriya saqlanib qolgan.

XULOSA. OGN og‘ir shakllarida buyrak filtratsion va ekskretor funktsiyalari chuqur buzilgan, bu azotemiya, oliguriya va metabolik atsidoz bilan namoyon bo‘ladi. Perinatal va infeksion xavf omillari, gastrointestinal kasalliklar va parazitar invaziyalar OGN rivojlanishida asosiy patogen omillar hisoblanadi. Klinik va laborator kuzatuv OGNni erta aniqlash va individual profilaktik choralarni qo‘llashning ahamiyatini tasdiqlaydi. Olingan natijalar kelajakda OGN bilan og‘rigan bolalarda shaxsiylashtirilgan terapiya va profilaktik strategiyalarni ishlab chiqishda asos bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Gurmeet Singh. Post-Infectious Glomerulonephritis. In: *An Update on Glomerulopathies – Clinical and Treatment Aspects*. Ed. Sh. Prabhakar. In Tech, 2011: 112–124.
2. Watanabe Toru. Atypical Clinical Manifestations of Acute Poststreptococcal Glomerulonephritis. In: *An Update on Glomerulopathies – Clinical and Treatment Aspects*. Ed. Sh. Prabhakar. In Tech, 2011: 152–168.
3. Берл Т., Шрайер Р.В. Больные с гипо- или гипернатриемией. В кн.: *Руководство по нефрологии*. Р.В. Шрайер, ред. Пер. с англ. М.: ГЭОТАР-Медиа, 2009; 560 с.
4. Тареев Е.М. *Нефриты*. М.: Медгиз, 1958: 664 с.
5. Тареева И.Е., Мухин Н.А., ред. *Справочник по нефрологии*. М.: Медицина, 1986: 432 с.

ISSN 3030-3907

6. Hinchey J, Chaves C, Appignani B, et al. A reversible posterior leukoencephalopathy syndrome. *New England Journal of Medicine*. 1996; 334(8): 494–500.
7. Скворцова В.И., Губский Л.В., Мельникова Е.А. Синдром задней обратимой энцефалопатии. *Журнал неврологии и психиатрии им. С.С. Корсакова*. 2010; 110(5): 104–109.
8. Pedraza R, Marik PE, Varon J. Posterior Reversible Encephalopathy Syndrome: A Review. *Crit Care & Shock*. 2009; 12: 135–143.
9. Parvex P, Pinsk M, Bell LE, et al. Reversible encephalopathy associated with Tacrolimus in pediatric renal transplants. *Pediatric Nephrology*. 2001; 16(7): 537–542.
10. Гордовская Н.В., Козловская Л.Н. Нефропатии беременных. В кн.: *Нефрология: Национальное руководство*. Н.А. Мухин, ред. М.: ГЭОТАР-Медиа, 2009: 710 с.
11. Gamie Z, Rizwan A, Balen FG, et al. Posterior reversible encephalopathy syndrome in a child with cyclical vomiting and hypertension: a case report. *Journal of Medical Case Reports*. 2011; 5: 137–140.
12. Мурадов С.Г., Приходина Л.С., Длин В.В., и др. Кризовое течение артериальной гипертензии у ребенка с гломерулонефритом. *Нефрология и диализ*. 2001; 3(1): 100–105.
13. Soylu A, Kavuksu S, Turkmen M, Akbas Y. Posterior reversible encephalopathy syndrome in poststreptococcal acute glomerulonephritis. *Pediatric Nephrology*. 2001; 16(7): 601–603.
14. Ramberg R. The prognosis for acute nephritis. *Acta Medica Scandinavica*. 1947; 127(4): 396–423.
15. Watanabe T, Yoshizawa N. Recurrence of acute poststreptococcal glomerulonephritis (Bri).

ISSN 3030-3907

SCIENTIFIC AND TECHNICAL ANALYSIS OF RESEARCH ON THE USE OF HEAT PIPES

Ibragimov Umidjon Khayrullayevich
Qarshi State Technical University, Doctor of Technical Sciences, Professor
Karimova Mahbuba Nutfullayevna
Bukhara State University, dotsent
Ibragimov Salim Safarovich
Bukhara State University, teacher

Abstract. This article presents a scientific and technical analysis of research into the use of heat pipes. The study covers the design features of heat pipes and their operating principles. Specifically, it was established that a heat pipe is a sealed structure, 0.2–0.5% of whose internal volume is filled with a coolant. In the heated portion of the heat pipe (the evaporation zone), the liquid coolant evaporates as a result of heat absorption. The resulting vapor passes into the cooled portion (the condensation zone), where it transfers its latent heat of evaporation to the heat exchanger and condenses. The condensed liquid returns to the evaporation zone under the action of capillary forces or gravity. The study also found that with a nanofluid mass concentration of 1%, the thermal efficiency of the system optimally increases by 16.8%.

Keywords: heat pipe, heat exchanger, condensation, condensation zone, tube, heat transfer, evaporation zone, capillary, thermosyphon, condenser, total coefficient.

Аннотация. В данной статье представлен научно-технический анализ научных исследований по применению тепловых трубок. Исследование охватывает конструктивные особенности тепловых трубок и принцип их работы. В частности, установлено, что тепловая трубка представляет собой герметичную конструкцию, 0,2–0,5% внутреннего объема которой заполнено теплоносителем. В нагретой части тепловой трубки (зоне испарения) жидкий теплоноситель испаряется в результате поглощения тепла. Образовавшийся пар переходит в охлажденную часть (зону конденсации), где передает свою скрытую теплоту испарения теплообменнику и конденсируется. Сконденсированная жидкость возвращается в зону испарения под действием капиллярных сил или силы тяжести. Также по результатам исследования установлено, что при массовой концентрации наножидкости 1% тепловой КПД системы оптимально увеличивается на 16,8%.

Ключевые слова: тепловая трубка, теплообменник, конденсация, зона конденсации, трубка, теплопередача, зона испарения, капилляр, термосифон, конденсатор, суммарный коэффициент.

ISSN 3030-3907

Annotatsiya. Ushbu maqolada issiqlik quvurlaridan foydalanish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining ilmiy-texnik tahlili keltirilgan. Tadqiqotda issiqlik quvurlarining konstruktiv xususiyatlari hamda ularning ishlash prinsipi yoritilgan. Jumladan, issiqlik quvuri germetik yopiq konstruksiya bo‘lib, uning ichki hajmining 0,2–0,5 qismi issiqlik tashuvchi suyuqlik bilan to‘ldirilishi aniqlangan. Issiqlik quvurining isitiladigan qismida (bug‘lanish zonasida) suyuq issiqlik tashuvchi issiqlikni yutishi natijasida bug‘lanadi. Hosil bo‘lgan bug‘ sovitiladigan qismga (kondensatsiya zonasiga) o‘tib, u yerda o‘zining yashirin bug‘lanish issiqligini issiqlik almashtirgichga uzatadi va kondensatsiyalanadi. Kondensatsiyalangan suyuqlik esa kapillyar kuchlar yoki gravitatsiya ta’sirida yana bug‘lanish zonasiga qaytadi. Shuningdek, tadqiqot natijalariga ko‘ra nanosuyuqlikning massaviy konsentratsiyasi 1% bo‘lganda tizimning termik foydali ish koeffitsienti (FIK) optimal holda 16,8% ga oshishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: issiqlik quvuri, issiqlik almashtirgich, kondensatsiya, kondensatsiya zona, pilik, issiqlik uzatish, bug‘lanish zonasi, kapillyar, termosifon, kondensator, to‘liq koeffitsiyent.

INTRODUCTION

A heat pipe is the fundamental element of a heat exchange system, operating on the principle of a low-boiling liquid contained within closed tubes made of heat-conducting metals (aluminum, copper) and other materials. As a result of heat transfer, the liquid evaporates at the hot end of the heat pipe, absorbs the heat of evaporation, and condenses at the cold end. Heat pipes come in two types: those with a smooth inner wall and those with a porous inner lining. In smooth-walled tubes, the condensed liquid returns to the evaporation zone solely under the force of gravity. This means that these heat pipes operate only when the condensation zone is above the evaporation zone and the condensed liquid is able to descend into the evaporation zone. Heat pipes can operate in virtually any orientation, as the liquid returns to the evaporation zone through the pores under the force of capillary action, and gravity plays no role in this process.

LITERATURE ANALYSIS.

The choice of materials for heat pipes and coolants depends on the operating conditions: liquid helium and mercury are used for very low temperatures, while indium and other substances are used for high temperatures. However, most modern tubes recommend ammonia, water, methanol, and ethanol as working fluids. The first patent for this technology was issued to Gaugler in 1944. Heat pipes have a wide operating temperature range, where the speed of heat transfer exceeds the speed of sound, and a service life of over 20,000 hours, making them highly efficient and reliable technical systems. Water is used as the working fluid

ISSN 3030-3907

in the inner part. To boil the water inside the tube at low temperatures, the air must be evacuated from the heat pipes.

A heat pipe is a heat transfer device capable of transferring large heat capacities at low temperature gradients, and heat pipes (0.2-0.5) are hermetically sealed. In the heated portion of the heat pipe (evaporation zone), the liquid coolant evaporates as a result of heat absorption, and in the cooled zone of the heat pipe (condensation zone), water vapor, transferring its latent heat to the heat exchanger, condenses and enters the evaporation zone. The transition of vapor from the evaporation zone to the condensation zone occurs due to the difference in saturated vapor pressure, which is determined by the difference in temperature in the evaporation and condensation zones. Capillary heat pipes are very common. Lightweight, highly reliable, autonomous operation, high thermal conductivity of heat pipes, and the possibility of their use as thermostatic devices have led to their widespread use in power engineering, the chemical industry, space technology, electronics, and other industries [1]. Heat pipes are used to efficiently transfer thermal energy from one source to another. They are capable of transferring heat over long distances with minimal power loss.

RESEARCH METHODOLOGY.

Several types of heat pipes have been proposed, among which wick heat pipes are widely used. When the evaporation zone of the heat pipe is heated, the liquid in the evaporation zone is heated and evaporated, resulting in the formation of vapor. The vapor moves along the pipe to the condenser zone, where it condenses into liquid and then returns to the evaporation zone through the wick structure, forming a closed thermal cycle. This type of heat pipe is simple, reliable, and does not require an external source. Wick heat pipes are widely used in nuclear power plants [2] and in ventilation and air conditioning systems [3].

The main difference between thermosiphons and heat pipes is that thermosiphons use natural convection and gravity to transfer heat. The condensation zone is located above the evaporation zone due to gravity. They do not require an external heat source and are suitable for vertical heat transfer.

Thermosyphons are widely used in nuclear reactors [4], ceramic industry [5], solar collectors [6], coal liquefaction [7], HVAC systems [8], steel industry [9], flue gas heat recovery from coal combustion [10] and aluminum industry [11].

Flat heat pipes typically have a very thin cross-section and are used for heat transfer in confined spaces. They provide efficient heat transfer even in very thin structures. They are widely used in solar collectors [12], photovoltaic panels [13], and the metallurgical industry [14].

ISSN 3030-3907

Concentric tubular heat pipes consist of two concentric tubes, with the inner tube acting as an evaporator and the outer tube acting as a condenser. They provide long-distance heat transfer and exhibit high heat transfer efficiency [15].

Microstructured heat pipes are based on wick heat pipes and typically consist of multiple wick heat pipes. In microstructured heat pipes, the evaporation zone is located near the high-temperature heat source, while the condenser zone is located in a much cooler environment.

DISCUSSION AND RESULTS

When a high-temperature liquid, i.e., static heat, acts on the evaporation zone, the working fluid begins to boil and absorbs a large amount of heat. During this process, a phase transition occurs, and steam at a constant temperature is formed inside the tube. The steam then passes from the evaporation zone to the condenser zone at the speed of sound. When the steam flow encounters the cold in the condenser zone, it gives up heat and turns into liquid again. The condensed liquid then returns to the evaporation zone of the tube under the action of gravity or a wick structure. This process is continuously repeated. Iranian scientists Noye et al. [16] investigated the effect of the inclination angle and the integral coefficient on the thermal characteristics of a two-phase closed thermosyphon. A copper thermosyphon with an outer diameter of 16 mm, an inner diameter of 14.5 mm, and a length of 1000 mm was used in the calculation. Distilled water was used as the working fluid. The saturation coefficient was defined as the ratio of the volume of the working fluid to the volume of the evaporation section. Saturation factors were assumed to be 15%, 22%, and 30%. According to their findings, the heat transfer coefficient and condensation heat transfer rate increased with increasing saturation factor. Condensation heat transfer was highest at a saturation factor of 22%, as well as at an inclination angle of 30° and a saturation factor of 30%, and at an inclination angle of 45° and a saturation factor of 15%.

Taiwanese scientists Teng et al. [17] investigated the thermal efficiency of heat pipes filled with an aluminum oxide-based nanofluid. The heat pipe used in the experiment consisted of a copper tube with a diameter of 8 mm and a length of 600 mm. At a mass concentration of 1% nanofluid, the optimal thermal efficiency increased by 16.8%.

Malaysian scientists Idrus et al. [18] used a 300 mm long, 10 mm outer diameter copper heat pipe filled with water in their research. A K-type thermocouple was glued to the outer surface of the heat pipe. They studied the characteristics of the heat pipes at different heat transfer values and inclination angles. With a power consumption of 70-80 W and an inclination angle of 30° to 60°, the best characteristics were shown by heat pipes with a diameter of 10 mm.

ISSN 3030-3907

Taiwanese scientists Kang et al. [19] studied the thermal characteristics of heat pipes filled with a silver nanofluid with a diameter of 35 nm. The length of the heat pipes was 20 mm, and the outer diameter was 6 mm. The concentration of nanoparticles varied from 1 mg/L to 100 mg/L. A radiator was connected to the condenser section of the heat pipes. The condenser section is cooled with water. Thermal resistance decreases with increasing concentration and size of silver nanoparticles.

American scientist Plavsky [20] investigated heat pipes consisting of a sealed container with a wick mounted on the inner wall. Romanian scientists Guminici et al. [21] developed thermosiphon heat pipes using nanofluids and deionized water to compare the heat transfer rate in a thermosiphon. Iron oxide nanoparticles were obtained by laser pyrolysis, and their concentration was 0, 2, and 5.3%. The heat transfer rate in thermosiphon heat pipes filled with iron oxide nanoparticles was significantly higher than in thermosiphon heat pipes filled with water. The presence of a 2% concentration of iron oxide nanoparticles in the liquid increased the heat transfer rate by 19%. Increasing the concentration of nanoparticles increases the thermal resistance of the thermosiphon heat pipes and ensures high efficiency.

Dutch scientists Grooten et al. [22] investigated the influence of saturation temperature, inclination angle, and fill level on the maximum working heat flux of thermosyphons. R-134a was used as the working fluid. It was found that the thermosyphon operates best at an inclination angle of 83°. According to the results, the maximum working heat flux decreases with increasing saturation temperature and decreasing inclination angle. Also, an angle of 83° is not recommended for efficient operation of thermosyphons.

Iranian scientists Moraveji and Razvarz [23] studied the thermal characteristics of heat pipes using aluminum oxide nanoparticles with a diameter of 35 nm. They were made of copper tubes of varying lengths with a sand wick structure. The studied mass concentrations of the nanofluid were 0.1 and 3%. The results were compared with those of heat pipes filled with water. According to the results, the wall temperature increased with increasing heat transfer, and the wall temperature of the heat pipes with nanofluid was lower than the wall temperature of the heat pipes filled with water. Also, the wall temperature and the temperature difference decreased with increasing nanoparticle concentration. However, it was found that heat pipes with nanofluid had lower thermal resistance than heat pipes filled with water.

CONCLUSIONS AND SUGGESTIONS.

- ҳарорат ошиши билан бетон ва арматуранинг мустаҳкамлиги пасаяди;
- конструкциянинг қаттиқлиги камаяди;
- тўсинларда эгилиш деформациялари ортиб боради.

Айниқса 500°C дан юқори ҳароратларда деформациялар тез ўсади ва конструкциянинг барқарорлигига жиддий таъсир кўрсатади.

ХУЛОСАЛАР.

Темирбетон тўсинларнинг ёнғин пайтидаги деформацияланиш жараёни бир нечта босқичда кечади. Бошланғич босқичда термик кенгайиш кузатилса, кейинги босқичларда бетон ёриқланиши ва арматура мустаҳкамлигининг пасайиши натижасида эгилиш деформацияси ортиб боради.

Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ҳарорат таъсирида материал параметрларининг ўзгаришини ҳисобга олган ҳолда аналитик ва сонли моделлаштириш усулларини қўллаш конструкцияларнинг ёнғинга чидамлилигини аниқ баҳолаш имконини беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Van Doan, Vui Van Cao. Fire Behavior of Concrete Beams Reinforced with GFRP and Steel. Civil Engineering Journal 11(5): 2045-2065
2. Andrew H. Buchanan. Structural design for fire safety: Wiley, New York, 2001, 421pp.
3. Kodur, V., & Dwaikat, M. (2008). Fire performance of reinforced concrete beams under design fire exposure. In Proceedings of the 2008 Structures Congress - Structures Congress 2008 American Society of Civil Engineers (ASCE).

ISSN 3030-3907

4. Anderberg, Y., & Thelandersson, S. (1976). Stress and Deformation Characteristics of Concrete at High Temperatures. 2. Experimental Investigation and Material Behaviour Model. (Bulletin of Division of Structural Mechanics and Concrete Construction, Bulletin 54; Vol. Bulletin 54). Lund Institute of Technology (1976).
5. EN 1992-1-2 — Eurocode 2: Design of Concrete Structures under Fire.

ISSN 3030-3907

ОЦЕНКА И РАНЖИРОВАНИЕ ЦВЕТОВЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ЗЕРЕН КУКУРУЗЫ

Мухамедханов Улугбек Тургудович
Ташкентский государственный технический университет – профессор
E-mail: m-ulugbek@mail.ru

Аннотация. Выполнена оценка и ранжирование цветовых характеристик зёрен кукурузы различных сортов на заражённость фузариозом (Fusarium Moniliforme). Определён вектор цветовых признаков, охватывающих цветовые пространства RGB, HSV, Lab, YCbCr, XYZ, xyY. Для оценки и ранжирования цветовых признаков применён метод опорных векторов (SVM). Показано, что классификатор SVM обеспечивает точность классификации более 95% для зёрен кукурузы сорта «Ўзбекистон 601 ECB».Для сорта «Ўзбекистон 300 MB» наиболее информативным признаком оказался компонент B (RGB) с точностью 91,33%.

Ключевые слова: распознавание образов, метод опорных векторов, кукурузные зёрна, цветовые характеристики, ранжирование признаков.

Annotatsiya. Makkajo‘xori donlarining turli navlarida fuzarioz (Fusarium Moniliforme) bilan zararlanganlik darajasini aniqlash uchun rang xususiyatlari baholandi va reytinglandi. RGB, HSV, Lab, YCbCr, XYZ va xyY rang fazolarini qamrab oluvchi rang belgilar vektori aniqlangan. Rang belgilarini baholash va reytinglash uchun tayanch vektorlar usuli (SVM) qo‘llanildi. SVM klassifikatori «Ўзбекистон 601 ECB» navli makkajo‘xori donlari uchun 95% dan yuqori klassifikatsiya aniqligini ta’minlashi ko‘rsatildi. «Ўзбекистон 300 MB» navi uchun eng informativ belgi sifatida RGB rang modelining B komponenti aniqlandi va uning aniqligi 91,33% ni tashkil etdi.

Kalit so‘zlar: tasvirlarni tanib olish, tayanch vektorlar usuli, makkajo‘xori donlari, rang xususiyatlari, belgilarni reytinglash.

Abstract. The color characteristics of maize kernels from different varieties were evaluated and ranked to determine their infection with fusarium (Fusarium Moniliforme). A vector of color features covering the RGB, HSV, Lab, YCbCr, XYZ, and xyY color spaces was defined. The support vector machine (SVM) method was applied to evaluate and rank the color features. It was shown that the SVM classifier provides a classification accuracy of more than 95% for maize kernels of the “Uzbekistan 601 ESV” variety. For the “Uzbekistan 300 MV” variety, the B component of the RGB color model was identified as the most informative feature, achieving an accuracy of 91.33%.

Keywords: pattern recognition, support vector machine, maize kernels, color characteristics, feature ranking.

ВВЕДЕНИЕ

ISSN 3030-3907

Автоматизированная оценка качества ряда сельскохозяйственных продуктов по их цифровым изображениям [1], [2], [3] требует применения точных и быстрых процедур получения, обработки и интерпретации наиболее информативного комплекса признаков, касающихся качественных характеристик объектов.

Задача оценки качества самих признаков тесно связана с редукцией их количества, используемых при распознавании, что позволяет значительно сократить вычислительные ресурсы без потери информации.

Первым условием при ранжировании признаков является поиск минимального описания признакового пространства [4], а вторым — нахождение таких признаков, которые возможно меньше коррелируют между собой [5].

Основная цель работы — определить информационную значимость цветовых признаков цветовых моделей при распознавании заражённых *розовым фузариозом* кукурузных зёрен, а также установить достоверность классификации с использованием метода опорных векторов (SVM).

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ ЗНАЧИМОСТИ ЦВЕТОВЫХ ХАРАКТЕРИСТИК КУКУРУЗНЫХ ЗЕРЕН И ДОСТОВЕРНОСТЬ КВАЛИФИКАЦИИ

Объектом исследования являются цветные цифровые изображения здоровых и заражённых фузариозом (*Fusarium Moniliforme*) зёрен кукурузы следующих сортов: «Ўзбекистон 601 ЕСВ», «Ўзбекистон 300 МВ», «Қорасув 350 АМВ», «Днепровский 181», «Молдавский 257 СВ» и «Молдавский 215 АМВ». Для каждого сорта было получено по 150 изображений здоровых и 150 изображений заражённых зёрен. Изображения получены с разрешением 352 × 289 пикселей с использованием цветной камеры PIH–7030 H/IR, имеющей следующие характеристики: матрица — 1/3’’ CCD, физическое разрешение — 752 × 582 пикселя, активная область — 352 × 289 пикселя, качество — 460 ТВ-линий, цветность — 16 миллионов цветов, объектив — Tokina с ручной настройкой фокусного расстояния от 6 до 60 мм.

Расстояние между камерой и объектом при съёмке составляло 26 см. Освещение обеспечено двумя круглыми люминесцентными лампами, размещёнными над рабочей сценой. Дальнейшая обработка изображений включает сегментацию по компоненте H (Hue) цветовой модели HSV с целью отделения пикселей, принадлежащих фону, от пикселей, принадлежащих объекту (семени).

Эти пиксели изображения зерна извлекаются из цветовых признаков соответствующих моделей цвета путем формирования вектора цветовых

ISSN 3030-3907

признаков. База знаний и данных содержит среднеарифметические величины цветовых компонентов, которые усреднены по всем пикселям изображения отдельного кукурузного зерна.

Каждое кукурузное зерно оценено экспертом и классифицировано как принадлежащее к классу «здоровые» либо «заражённые» фузариозом (розовой формы).

Выбор метода для определения информационной значимости и дефинитивных цветовых признаков при распознавании двух классов кукурузных зёрен (здоровых и заражённых) основан на том, что данные имеют асимметричную структуру.

Способ опорных векторов (SVM) осуществляет классификацию пространства нелинейного преобразования в пространство линейно разделенных данных более высокой размерности.

В SVM-методе так называемые опорные точки — это граничные точки набора данных, которые в признаковом пространстве используются для построения оптимального разделяющего гиперплана. Этот гиперплан формируется таким образом, чтобы расстояние между границами двух классов было максимальным (рис. 1а).




Рис. 1. Оптимальный гиперплан в SVM методе .

Как при обучении и классификации функция Ф представляет собой отображение пространства входов в новое, признаковое пространство более высокой размерности в виде скалярного произведения пар векторов Ф(x) и Ф(y).

$$K(x, y) = \langle \Phi(x), \Phi(y) \rangle$$

С помощью кернел-функции (ядровой функции) можно косвенно задать это скалярное произведение, что позволяет избежать явного перехода в высокоразмерное пространство. В зависимости от выбранной кернел-функции, могут быть построены различные типы классификаторов: линейный, RBF (Radial Basis Function), полиномиальный, нейронная сеть

ISSN 3030-3907

MLP [6,7].

В данной работе выбрана кернел-функция типа RBF, с шириной σ, и она имеет следующий вид:

$$K(x,y) = \exp\left(-\frac{\| x-y \|^2}{2\sigma^2}\right)$$

Для реализации метода опорных векторов (SVM) использовался программный пакет STATISTICA 8 компании *StatSoft*. Метод был реализован с применением радиально-базисной функции (RBF) в качестве кернел-функции. Рассматривался случай синтеза классификатора для двух классов: здоровые и заражённые фузариозом зерна кукурузы.

На первом этапе был выполнен предварительный выбор параметров: размер обучающей выборки составил 75% от общего объёма выборки, параметр Gamma, определяющий ширину RBF-функции, был установлен равным 1,00 (рис. 2).




Рис. 2. Окно программной среды STATISTICA для задания параметров SVM-классификатора.

На следующем этапе был выбран тип кернел-функции, в качестве которого использовалась RBF-функция (рис. 3).

ISSN 3030-3907




Рис. 3. Окно программной среды STATISTICA для выбора типа кернел-функции SVM-классификатора.

Следующий шаг состоит в оценке модели по достигнутой точности классификации для всей выборки (обучающей и тестовой), отдельно для каждого из 17 цветовых признаков.

На рис.4 показан этап реализации метода SVM, где: в качестве независимой переменной определён признак smean, сформировано 32 опорных вектора — по 16 для каждого из двух классов, достигнутая точность кросс-валидации составила 98,889%. Кроме того, на рисунке отображены также точности классификации: отдельно для обучающей выборки, отдельно для тестовой выборки.




Рис. 4. Окно STATISTICA с результатами выполнения SVM-классификации по признаку smean

ISSN 3030-3907

На рис.5 представлены графики распределения образов из тестовой выборки по признакам: красные точки обозначают образцы здоровых семян; синие точки — образцы заражённых семян.

По признаку «smean» (рис. 5а) видно, что обрацзы хорошо разделимы, что указывает на его высокую информативность. В то время как по признаку «vmean» (рис. 5б) наблюдается полное перекрытие классов. Можно сделать вывод, что данный признак не является информативным для задачи распознавания.




Рис. 5. Распределение образцов из тестовой выборки: а) - по признаку smean; б) - по признаку vmean.

Таблица 3.

Точность классификации (%) цветовых признаков зёрен кукурузы различных сортов при использовании метода SVM

Точность классификации (%)		сорта кукурузы					
Цветовая модель	**Цветовой признак**	**Ўзбекистон 601 ЕСВ**	**Ўзбекистон 300 МВ**	**Корасув 350 АМВ**	**Днепровский 181**	**Молдавский 257 СВ**	**Молдавский 215 АМВ**
RGB	R	58,33	80,67	70,67	78,67	81,67	65,33
	G	71,33	53,33	55,33	63,00	74,33	84,00
	B	**94,67**	92,67	91,33	89,67	95,67	95,67
HSV	H	62,33	54,67	69,67	80,67	91,67	77,33
	S	**95,67**	98,00	90,33	94,67	96,00	93,33
	V	58,00	80,67	70,33	78,67	81,00	66,00
Lab	L	68,33	58,00	51,00	63,00	64,68	83,00

ISSN 3030-3907

	a	72,00	61,67	70,00	62,67	84,33	64,67
	b	**92,33**	97,33	91,00	94,33	96,33	94,68
XYZ	X	68,00	62,00	53,67	62,00	57,67	82,33
	Y	68,67	59,00	51,33	62,33	64,33	82,33
	Z	**94,67**	88,00	89,33	84,67	95,33	96,00
YCbCr	Y	68,33	59,33	53,00	63,00	62,33	82,33
	Cb	**90,67**	94,33	86,33	92,33	95,33	89,67
	Cr	**90,33**	91,67	87,00	84,00	95,00	83,00
xyY	x	**94,33**	96,67	89,67	93,00	95,67	94,67
	y	**92,00**	96,33	89,67	94,33	95,67	94,67

Анализ свидетельствует о том, что при увеличении количества сформированных опорных векторов наблюдается снижение точности классификации. Для сорта «Ўзбекистон 601 ECB» выявлено наибольшее количество информативных признаков: B (RGB), S (HSV), b (Lab), Z (XYZ), Cb и Cr (YCbCr), x и y (xyY).

Сорта «Қорасув 350 AMB» и «Днепровский 181» являются близкими по информативным признакам, так как они во многом совпадают [8,9]. По признаку S (HSV) достигается удовлетворительная точность — более 95% — для сортов «Ўзбекистон 601 ECB» и «Молдавский 257 CB».

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Оценена информативность 17 цветовых признаков, представляющих собой средние значения цветовых компонентов моделей RGB, HSV, Lab, YCbCr, XYZ и xyY, в отношении исследуемых сортов кукурузных зёрен.

При классификации кукурузных зёрен с использованием метода опорных векторов (SVM) достигнута удовлетворительная точность — выше 95% — для следующих сортов: «Ўзбекистон 601 ECB», «Ўзбекистон 300 MB» и «Молдавский 257 CB».

Как наиболее информативный признак выделяется компонент S из цветовой модели HSV, который является ведущим для сортов зёрен «Ўзбекистон 601 ECB» и «Молдавский 257 CB».

ЛИТЕРАТУРА

1. Luo X., Jayas D.S., Symons S.J. Identification of damaged kernels in wheat using a colour machine vision system. *Journal of Cereal Science*, 30 (1999), pp. 49–59.

2. Manickavasagan A.G., Sathya, Jayas D.S., White N.D.G. Wheat class identification using monochrome images. *Journal of Cereal Science*, 47 (2008), pp. 518–527.

3. Venora G., Grillo O., Saccone R. Quality assessment of durum wheat storage

ISSN 3030-3907

centers in Sicily: Evaluation of vitreous, starchy and shrunken kernels using an image analysis system. *Journal of Cereal Science*, (2009), pp. 1–12.

4. Abdullah M.Z., Mohamad-Saleh J., Syahir A.S., Azemi B.M.W. Discrimination and classification of fresh-cut starfruits (*Averrhoa carambola* L.) using an automated machine vision system. *Journal of Food Engineering*, 76(4) (2006), pp. 506–523.

5. Мухамедханов У.Т., Сувонов Б.И. Классификация аграрной зерновой продукции на здоровые и заражённые плесенью по их цветовым характеристикам. *Научно-технический журнал «Инновационные технологии»*, №2/58, 2025, с. 144–150.

6. Мухамедханов У.Т., Сувонов Б.И., Дошанова М.Ю. Анализ функционирования систем машинного зрения для оценки качества сельскохозяйственных продуктов. *Raqamli transformatsiya va sun'iy intellect ilmiy jurnali*, ISSN 3030-3346, Vol. 3, No. 4, 2025, pp. 224–231.

7. Littman M.L. Support Vector Machines. URL: http://www.cs.rutgers.edu/~mlittman/courses/ml04/svm.pdf

8. Wu S. Support Vector Machines (presentation). URL: http://www.cogs.susx.ac.uk/users/siwu/Neural%20Networks/svm.ppt

9. Agro.uz. Сорта кукурузы, возделываемые в Узбекистане. URL: https://www.agro.uz/makkajo-xori/#1635005003379-86bad979-ed0b

ISSN 3030-3907

KARBAMID FORMALDEGID SMOLASI ASOSIDAGI YOG‘OCH PAYRAXALI PLITALARNING XOSSALARI

Arslanov Islom Kimsanovich
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti professori v.b.
E-mail: islom05@mail.ru
Omonova Lola Choriyevna
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti magistranti
E-mail: omonovalola810@gmail.com

Annotatsiya. Yog‘och payraxalari va karbamid-formaldegid smolasidan (KFS) siqib qoliplash mashinasida yog‘och payraxali plitalar (YPP) tayyorlandi. YPP larning xossalari bog‘lovchi (smola) va to‘ldiruvchi (payraxa) ning foizdagi tarkibiga bog‘liq ekanligi ta’kidlandi. KFS miqdori 30 ml dan 45 ml gacha oshishi bilan YPP ning mexanik xossalari yahshilangan. Suv shimuvchanlik KFS miqdori oshishi bilan kamaygan. KFS miqdori oshishi bilan bo‘kish qalinligi kamaygan va zichlik oshgan.

Kalit so‘zlar: Karbamid formaldegid smola, yog‘och qirindi, yog‘och payraxali plitalar, fizik-mexanik xossalar.

Аннотация. Древесно-стружечные плиты (ДСП) изготавливались на прессовальной формовочной машине из древесных стружек и карбамидоформальдегидной смолы (КФС). Отмечено, что свойства ДСП зависит от процентной соотношении смолы и наполнителя. С увеличением количества КФС от 30 мл до 45 мл улучшился свойства ДСП. С увеличением количества КФС водопоглощения и толщина набухания уменьшался, а плотность увеличился.

Ключевые слова: Карбамидоформальдегидная смола, древесная стружка, древесно-стружечная плита, физико-механические свойства.

Abstract. Chipboard was manufactured on a pressing molding machine from sawdust and Carbamide-formaldehyde resin (CFR). It is noted that the properties of chipboard depend on the percentage of resin and filler. With an increase in the amount of CFR from 30 ml to 45 ml, the properties of chipboard improved. With an increase in the amount of CFR, water absorption and the thickness of the swelling decreased and the density increased.

Keywords: Carbamide-formaldehyde resin, sawdust, chipboard, finical mechanical properties.

KIRISH.

YPP tolalardan farqli o‘laroq diskret bo‘laklar yoki zarrachalar shaklida sellyulozali materiallardan odatda yog‘ochdan tayyorlanadigan plitalar uchun umumiy atama sifatida ta’riflangan bo‘lib, sintetik smola yoki boshqa mos

ISSN 3030-3907

bog‘lovchilar bilan birlashtirilgan va issiq pressda issiqlik va bosim ostida bir-biriga bog‘langan materiallarga aytiladi. Bunda butun zarrachalararo bog‘lanish qo‘shilgan bog‘lovchi tomonidan amalga oshiriladi va ishlab chiqarish jarayonida ma’lum xususiyatlarni yaxshilash uchun boshqa materiallar ham qo‘shiladi [1].

Tarixan, yengil yog‘och texnologiyasidan olingan mahsulotlar juda qimmat va eksklyuziv bo‘lgan. Ular aeronavtika sohasida yoki avtomobilsozlik sohasida qo‘llanilgan. Vaqt o‘tishi bilan yengil yog‘och mahsulotlarini arzon, ammo ishlab chiqarish jarayonlari, tadqiqot va ishlanmalarda samaradorlikni oshirish orqali sifatliroq qilib ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan. Bu tendensiya mebel sanoatida juda kuchli sezilgan [2-4].

YPP lar oddiy yog‘och va faneraga qaraganda arzonroq, zichroq va bir xilroqdir va tashqi ko‘rinish va mustahkamligi tannarxdan ko‘ra muhimroq bo‘lmaganda ular bilan almashtiriladi. Biroq, ushbu plitalarni bo‘yash yoki ko‘rinadigan yuzalariga yopishtiriladigan yog‘och qoplamalardan foydalanish orqali yanada jozibador qilish mumkin [5-7]. Bugungi kunda dunyo bo‘ylab yuzdan ortiq YPP zavodlari faoliyat yuritmoqda va ular yog‘och va faner o‘rnini bosuvchi ideal mahsulot hisoblanadi.

Sintetik bog‘lovchi moddalar sof polimerlar, polimer aralashmalari, qatronlar va moylardan ishlab chiqarilgan maxsus yelimlovchi materiallardir. 1884 yilda birinchi marta ishlab chiqarilganidan beri karbamid-formaldegid qatronlari yog‘och sanoatida yelim sifatida keng qo‘llanila boshlandi [8].

Karbamid-formaldegid shaffof bo‘lmagan termoreaktiv smola bo‘lib, ammiak yoki piridin kabi yumshoq asos ishtirokida qizdirilgan karbamid va formaldegiddan tayyorlanadi. U yuqori cho‘zilishga bo‘lgan mustahkamligi, egiluvchanligi va termik deformatsiya harorati, past suv shimuvchanlik, qoliplashda kirishishi, yuqori sirt qattiqligi, uzilishdagi solishtirma uzayish va hajmiy mustahkamligi bilan ajralib turadi [9,10]. U ko‘plab ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Masalan, dekorativ laminatlar, to‘qimachilik mahsulotlari, qog‘oz, quyma qum qoliplari, g‘ijimlanmaydigan matolar, paxta. U yog‘ochni bir-biriga yopishtirishda yelim sifatida ham ishlatiladi. Karbamid formaldegid odatda elektr jihozlari (masalan, stol lampalari) korpusini ishlab chiqarishda ham ishlatilgan.

Karbamid-formaldegid smolasi o‘rtacha zichlikdagi yog‘och tolali plita, yog‘och payraxali plita va ichki foydalanish uchun qattiq yog‘och fanera kabi yog‘och asosli panellarni ishlab chiqarish uchun bog‘lovchi yelim sifatida keng qo‘llaniladi. KFS past narxi, mog‘or va zamburug‘larga chidamliligi va foydalanish qulayligi (masalan, aralashtirish, qo‘llash va tozalash) kabi xususiyatlarga ega bo‘lgan ajoyib yelimdir. U yog‘ochning aksariyat turlari bilan ko‘plab kombinatsiyalarda muvaffaqiyatli bog‘lanishi mumkin [11,12]. Biroq,

ISSN 3030-3907

formaldegid ajralib chiqishi KFS ning asosiy kamchilik xususiyati hisoblanadi. Formaldegid/karbamid (F/K) mol nisbati qanchalik past bo‘lsa, KFS da erkin formaldegid miqdori shunchalik kam bo‘ladi. Yangi qatronlar va qatron texnologiyalari natijasida KF smolasidagi formaldegid ajralishi kamayib bormoqda [13].

Karbamid-formaldegidning yuqori reaktivligi, yaxshi ko‘rsatkichlari va arzon narxi tufayli u yog‘och payraxali plitalar ishlab chiqarish va yopishqoq smola sifatida qo‘llanilishi keng yoritilgan [14]. Yog‘och qipig‘idan foydalangan holda yog‘och payraxali plitalar ishlab chiqarish uchun KFS dan foydalanish ham qayd etilgan [15]. Grechka poyasini KFS yelimi bilan aralashtirib plitalar olish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgani haqida ma’lumotlar keltirilgan [16,17].Yog‘och asosidagi plitalarni KFS bilan ishlab chiqarishdagi asosiy qiyinchiliklaridan biri - bu KFS o‘tkir hidga ega bo‘lgan uchuvchan gaz ekanligidir [18-20].

YPP ni ishlab chiqarish, yuqorida ta’kidlanganidek, bog‘lovchi moddani (smola) ishlatishni o‘z ichiga olib, YPP sanoatida yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishda ko‘p miqdorda bog‘lovchi ishlatilmoqda. Yelimlangan yog‘och kompozit sanoatida bog‘lovchi modda ishlab chiqarish tannarxning 32% gacha qismini tashkil etadi. YPPni ishlab chiqarishda turli xil bog‘lovchi moddalar qo‘llanilgan va ular asosan namlik va/yoki haroratga bo‘lgan munosabati asosida ichki yoki tashqi foydalanish talablarini qondirishi bilan tasniflanadi. Hozirgi vaqtda karbamid-formaldegid, fenol-formaldegid, fenol-rezorsin formaldegid, melamin-formaldegid va ularning hosilalari (ya’ni modifikatsiyalangan formaldegidli kondensatsion polimerlar) kabi formaldegidli kondensatsion polimerlar asosiy hisoblanadi. Boshqalarga: izotsianatli yelim, gips, azotli modifikatsiyalangan amilatsli bog‘lovchi, magneziya va boshqalar kiradi. Fenol-formaldegid va karbamid-formaldegid qatronlarining nisbatan arzonligi va isbotlangan ko‘rsatkichlari ularni kompozitsion yog‘och mahsulotlari uchun eng muhim yelimlash tizimlariga aylantirgan. Bu ikki smola formaldegid (CH_2O) ni mos ravishda fenol (C_6H_5OH) va mochevina (H_2NCONH_2) bilan polimerlanishining (kondensatsiyalanish) qadamli reaksiyasi natijasida hosil bo‘ladi.

Mochevina ($CO(NH_2)_2$) rangsiz va hidsiz kristall, suyuqlanish harorati 132,7°C bo‘lib uni karbamid deb ham ataladi. Odam va boshqa sutemizuvchilar machasida ko‘p miqdorda uchraydi. Ozroq miqdorda qon, jigar, limfa va seroz suyuqliklarda, baliq va boshqa ko‘pgina hayvonlar axlatida bo‘ladi. Karbamid asosan jigarda oqsil almashinuvining yakuniy mahsuloti sifatida ishlab chiqariladi.

Karbamid tarkibidagi mavjud azot, machadagi azotning asosiy qismini tashkil etib asosan oziq-ovqat oqsilidan hosil bo‘ladi, ammo uning bir qismi tana

ISSN 3030-3907

hujayralarining parchalanishidan hosil bo‘ladi. Karbamid turli zamburug‘ mog‘orlarida, shuningdek, ko‘plab dukkakli va boshoqli o‘simliklarning barglari va urug‘larida ham mavjud. Birikma suvda ham, spirtda ham eriydi, efirda kam eriydi. Karbamid 1828-yilda nemis kimyogari Fridrix Voler tomonidan ishlab chiqilgan Voler sintezi orqali sintetik usulda tayyorlanadi.

$CO_2 + 2NH_3 \rightarrow NH_3CONH_3 + H_2O \Rightarrow H_2NCOONH_4$

Azotning miqdori yuqori darajada mavjudligi tufayli, tijorat maqsadlarida ishlab chiqarilgan karbamid qishloq xo‘jaligi o‘g‘itlari ishlab chiqarishda ham qo‘llaniladi. Karbamid nitrosellyulozali portlovchi moddalarda stabilizator sifatida ham ishlatiladi va sintetik usulda tayyorlangan smolalarning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. KF smolalari molekulalardan tashkil topgan bo‘lib, ular o‘zaro birikib, shaffof, qattiq plastmassalarga aylanadi. KF smolasining xossalari fenol qatronlarining xossalariga o‘xshaydi. Nomlaridan ko‘rinib turibdiki, bu smolalar karbamid (H_2NCONH_2) va formaldegid (CH_2O) o‘rtasidagi kondensatsion reaksiyalari natijasida hosil bo‘ladi. Formaldegidning amino birikmalari bilan foydali smolalar hosil qilish reaksiyasida ikkita asosiy bosqich mavjud.

MATERIALLAR VA USULLAR

Materiallar

Yog‘och payraxalar, shisha buyumlar, termostat issiqlik plitasi, so‘ruvchi javon, magnit aralashtirgich, metall va qolip plastina, siqib qoliplash (20 tonnali) mashinasi. Raqamli pH o‘lchagich, tarozi, shpatel va termometr. 400 ml formaldegidning 40 foizli eritmasi, karbamid 200 mg, ammiak eritmasi (15ml), ammoniy xlorid.

USULLAR

Yog‘och payraxalarni olish

Yog‘och payraxalar dastlab 72 soat atrofida quyoshda quritilib keyin maydalandi va ko‘zlarining o‘lchami 72μm bo‘lgan elak yordamida bir xil o‘lchamdagi payraxa olish uchun elandi.

Karbamid formaldegid smolasining laboratoriya sintezi

KFS sintezi formaldegid bilan karbamidni 2,0:1,0 nisbatda kondensatsiya reaksiyasi orqali amalga oshirildi. 400 ml 40% li formaldegidning suvli eritmasi termostat plitkasida turgan toza quritilgan 500 ml li menzurka stakanga quyilib eritma havo so‘rish javonida 5 daqiqa davomida aralashtirildi. Oz-ozdan 200 g karbamid, so‘ngra 15 ml ammiak eritmasi qo‘shildi. Aralashma 65°C haroratda magnitli aralashtirgich bilan bir soat davomida uzluksiz ravishda aralashtirildi. Suv miqdorini bug‘latish uchun olingan aralashma 65^0C dan yuqori haroratda 5 soat davomida qizdirilib konsentratsiyalandi. Bunda pH darajasi 8 da ushlab turildi. Yopishqoq suyuqlik hosil bo‘lishi uchun konsentrat xona haroratida sovitildi.

ISSN 3030-3907

Qatronlash va shakllantirish bosqichi

O‘zgarmas hajmdagi yog‘och qipig‘i sintez qilingan karbamid-formaldegid eritmasiga qo‘shilib elektr aralashtirgich yordamida yaxshilab aralashtirildi. So‘ngra nam material, ichiga alyuminiy folga solingan (uzunligi 120 mm, eni 60 mm va qalinligi 20 mm) qolipga quyildi. Keyin qolip siqib qoliplash mashinasiga joylashtirilib 10 tonna bosim ostida 150°C haroratda 15 daqiqa davomida ushlab turildi. Jarayon 30, 35, 40 va 45 ml miqdordagi karbamid formaldegid smolasiga qirindining o‘zgarmas og‘irligida amalga oshirildi. Olingan YPP namunalari xona haroratida sovitildi va ularning mexanik xossalari aniqlandi.

Eslatma: NN - tarkibida to‘ldiruvchi bo‘lmagan va KFS miqdori 50% bo‘lgan nazorat namunasidir.

Suv shimuvchanlik

Bu xona haroratida sinov namunalarni (uzunligi 20 mm, eni 10 mm va qalinligi 20 mm) 24 soat davomida suvda ivitishdan oldin va keyin tarozida tortish orqali amalga oshirildi.

Qalinlik bo‘yicha bo‘kish

Qalinlik bo‘yicha shishining sinovi namunalarni suvga solishdan oldin va suvga solgandan keyin 24 soatdan song qalinlikni o‘lchovchi uskunada o‘lchash orqali amalga oshirildi. Barchasi xona haroratida o‘rnatildi. Qalinlik farqining namunalarning dastlabki qalinligiga nisbati, namunaning foizli qalinlik oshishi hisoblanadi.

Zichlik

Namunalarning har birining zichligi har bir namunaning og‘irligini uning tegishli hisoblangan hajmiga bo‘lish orqali aniqlandi. Ularning og‘irliklari analitik-tortish tarozisi yordamida, hajmi esa tegishlicha o‘lchangan uzunligi, eni va qalinligini ko‘paytirish orqali topildi.

Natijalar va muhokama

Suv shimuvchanlik

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, YPP tarkibida ishlatiladigan KF smolasi miqdori oshishi bilan suv shimuvchanlik mos ravishda 16,67%, 10,00%, 6,95%, 5,55% ga kamaydi va NN suvga moyilligi kam yoki umuman yo‘qligini ko‘rsatdi (1-jadval). Bu KF smolasi molekulasi ichidagi kuchli molekulalararo kogeziv bog‘lanish tufayli yuzaga keladigan KF smolasining gidrofob tabiati natijasida sodir bo‘lib, bu suvning KF smolaga kirishiga to‘sqinlik qilgan. Biroq, KFS matritsasiga to‘ldiruvchi kiritilishi bilan organik to‘ldiruvchining suvga yuqori moyilligi (gidrofilligi) tufayli gidrofoblik tabiati kamayagan va bu kompozitda ishlatiladigan KF smolasining miqdori kamayishi bilan ortgan.

ISSN 3030-3907

YPP larning namlikka munosabati suv shimuvchanlik darajasi yoki namlikka qarshilik ko‘rsatish qobiliyatining funksiyasi bo‘lib, u namunaning tarkibi va tayyorlanishiga bog‘liq.

Bu kutilmagan holat emas, chunki kondensatsion polimerlar suv ta’siri, to‘ldiruvchi miqdori, namlik va issiqlikdan yemirilish kabi ko‘plab ta’sirlar natijasida buzilishlarga moyilligi mavjud. Bu shundan dalolat beradiki, KFS ning kogezion va bog‘lovchi kuchlari hatto yuqori haroratda ham yetarli darajada emas va barqarorligi past bo‘lib, bu fikrni ushbu o‘tkazilgan tadqiqot natijalari tasdiqlaydi.

1-jadval.

Suv shimuvchanlik natijalari

KFS (ml)	To‘ldirgich (qirindi), g	Shimilgan suv hajmi, (ml)	Shimilgan suv foizi, %
30	20	0,2	16,67
35	20	0,19	10,00
40	20	0,16	6,95
45	20	0,15	5,55
NN	-	-	-

Qalinlik

Qalinlikning bo‘kish darajasi – bu nam muhitda YPP larning o‘lcham barqarorligi ko‘rsatkichi bolib, u YPP tarkibi va mavjud haroratga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Xona haroratida YPP lar 0,004 mm, 0,004 mm, 0,003 mm, 0,002 mm va 0,000 mm qalinlikdagi bo‘kishlarni namoyon qildi (2-jadval). Bunda dastlabki holatdagi qalinlik bilan sezilarli darajada o‘zgarish bo‘lmadi. Bu YPP larni o‘lchamlari xona haroratlarida kamroq barqarorlikka ega ekanligi va smola tarkibiga bog‘liq ekanligini anglatadi. Bu ularning kuchsiz va nisbatan barqarorligi kam bo‘lgan kogezion va adgeziya kuchlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

2-jadval.

Bo‘kish qalinligi sinov natijalari

KFS (ml)	To‘ldirgich (qirindi), g	Bo‘kishkan oldingi qalinlik, mm	Bo‘kishkan keyingi qalinlik, mm	Qalinlikni o‘zgarishi, mm
30	20	2,006	2,010	0,004
35	20	2,004	2,008	0,004
40	20	2,003	2,006	0,003
45	20	2,000	2,002	0,002
NN	-	2,000	2,000	0,000

ISSN 3030-3907

Zichlik

Materialning zichligi uning mexanik xususiyatlarini belgilaydi. Namunalarining zichligi 0,00065, 0,00104, 0,00126, 0,00148 va 0,00159 gacha oshganligini ko‘rish mumkin (3-jadval). Tarkibida 45% KFS bo‘lgan namunaning zichligi sezilarli darajada oshishi kuzatilgan. Zichlashtirish kuchlari kamligi tufayli YPP larning zichligi pastroq ekanligi belgilandi. Biroq, tarkibida 40 va 45% karbamid smolasi bo‘lgan namunalar biroz zichroq bo‘lgan.

3-jadval.

Zichlik sinovi natijalari

KFS (ml)	To‘ldirgich (qirindi), g	Zichlik, g/cm^3
30	20	0,00065
35	20	0,00104
40	20	0,00126
45	20	0,00148
NN	-	0,00159

XULOSA

Yog‘och-payraxali plitalarning hossalari kompositsiya tarkibdagi komponentlarning foizdagi nisbatlariga bog‘liqdir. Bundan yog‘och - payraxali plitalarning xossalari smola-to‘ldirgich nisbatiga bog‘liq ekanligi kelib chiqadi. Binobarin, foiz tarkibining o‘zgarishi yog‘och-payraxali plitalarning xossalarini o‘zgartiradi.

Yog‘och-payraxali plitalarni karbamid-formaldegid smolasidan bog‘lovchi sifatida foydalanib ishlab chiqarish mumkin.

Karbamid formaldegidli yog‘och-payraxali plitalar suv shimilishiga kamroq qarshilik ko‘rsatadi. Demak, ular kamroq o‘lcham barqarorligiga ega. Shuning uchun KFS asosidagi yog‘och-payraxali plitalar namlik sharoitlarida qo‘llanilishi maqsadga muvofiq emas.

Ko‘proq hajmdagi karbamid smolasidan foydalangan holda ishlab chiqarilgan yog‘och-payraxali plitalar o‘lcham jihatidan barqarorroq bo‘lib, ularning suv shimuvchanligi va qalinligi bo‘yicha bo‘kishi, karbamid smolasi kamroq qoshilgan namunalarga nisbatan kichikroq qiymatlarida namoyon bo‘ldi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, smola-qirindi nisbati suvning shimilishi, qalinlik bo‘yicha bo‘kishi, qattiqlik va zichlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

KF smolasi asosidagi yog‘och-payraxali plitalarning mexanik xossalari yahshi ko‘rsatkichlarga ega emas. Ular deformatsiyaga kam qarshilik ko‘rsatadi. Shu sababli, KFS asosidagi yog‘och-payraxali plitalarning chidamliligi,

ISSN 3030-3907

qovushoqligi va ishqalanishga bo‘lgan mustahkamligi pastroq bo‘ladi deb ta’kidlangan.

KFS asosidagi yog‘och-payraxali plitalarni ishlab chiqarish Fenol Formaldegid smolali plitalarga nisbatan arzonroqdir, chunki KF smolasining asosiy componenti hisoblangan karbamid arzon va keng tarqalgandir.

ADABIYOTLAR

1. Rocket. F. H., Encyclopaedia of Science and Technology 8th edition, Volume 4, P 257 (McGraw-Hill Inc 1997).
2. Brady, George S.; Clauser, Henry R.; Vaccari A., John. Materials Handbook (14th ed.). (New York, NY: McGraw-Hill 1997).
3. Yong-Sung Oh Mohd Ariff Jamaludin Evaluation of rapeseed stalk particleboard bonded with laboratory-made ureaformaldehyde resin Ciência Florestal, Santa Maria, v. 25, n. 2, 2015 p. 515-521.
4. Mamza. P. A. P. and Shadrach, K., The mechanical properties of urea formaldehyde particle boards International Journal of Pure and Applied, 2 (2), 2008. 15-21.
5. Yong-S. O and Sung. S, Use of buckwheat stalk in particleboard bonded with urea-formaldehyde resin adhesive, Cellulose Chemistry and Technology, 46 (9-10), 2012. 643-647.
6. Hofstrand. A. D. Mosleni. A. A. Garsiya. J. F, Curing Characteristics of wood particles from nine northern Rocky Mountains species mixed with Portland cement, O‘rmon xo‘jaligi ishlab chiqarish jurnali, 34 (7), 1984. 56-61.
7. Aisien F. A, Amenaghawon AN, Bienose KC. Particle boards produced from cassava stalks: Evaluation of physical and mechanical properties. S Afr J Sci. 2015; 111 (5/6), Art.#2014-0042, 4 pages. http://dx.doi.org/10.17159/sajs.2015/20140042
8. Arslanov Islom Kimsanovich, Turdalieva Makhina Komiljonovna, & Khasanov Jalil Ozod Ugli. (2026). Carbamide Composition With Quartz Fillers And Hydrogel Additives. The American Journal of Engineering and Technology, 8(01), 219–230. https://doi.org/10.37547/tajet/Volume08Issue01-20
9. Duku M. H, Gu S, Hagan EB. A comprehensive review of biomass resources and biofuels potential in Ghana. Renew Sust Energy Rev. 2011; 15 (1): 404–415.http://dx.doi.org/10.1016/j.rser.2010.09.033
10. Amenaghawon N. A, Aisien FA, Ogbeide SE. Bioethanol production from pretreated cassava bagasse using combined acid and enzymatic hydrolysis. University of Benin J Sci Technol. 2013; 1 (2): 48–53.
11. Paul A. P Mamza, Emmanuel C. Ezeh, E. C. Gimba, David Ebuka Arthur. Comparative Study Of Phenol Formaldehyde And Urea Formaldehyde

ISSN 3030-3907

Particleboards From Wood Waste For Sustainable Environment. International Journal of Scientific & Technology research. 2014 volume 3, issue 9.
12. Mamza, P. A. P. Shedrach, K. (2008). The Mechanical Properties of Urea-formaldehyde particleboards. International Journal of Pure and Applied Sciences, 2 (2) 15-21.
13. Mamza, P. A. P. Aliu, A. Muhammed, R. A. (2010). The effects of iron filling on some mechanical and physical properties of sawdust particleboard. Nigerian Journal of Basic and Applied Science, 18 (1): 112-119.
14. Adajineh, F., 2008, "Production of particleboard composite from sugarcane bark and Baggasse", Unpublished Research project, Chemical Engineering Department, A. B. U, Zaria. Nigeria.
15. Deppe, H. J, and Ernst, K, 1986, "Reducing Particleboard Pressing Time", An Exploratory study, U.S Dept. of Agriculture Forest Service, Madison, 3-14 USA.
16. American Journal of Chemical and Biochemical Engineering 2018; 2(1): 10-15 15
17. Deka, M. and Saikia, C. N, 2000, "Effects of Amino Resin Treatment on Dimensional Stability, Bio Researches Technology 73, 179-181.
18. Mosesson, J. G, 1980, "The processing and use of straw as constructional Material". Conservation and reserving 3: 369-412.
19. Wang, D. and Sun, X. N. 2002, "Low-density particleboard from wheat Straw and corn pith" Industrial crops and products. 15, 47-50.
20. www.niir.org/books/book/zb, 2005, "The Complete Technology Book on Wood and Its Derivative". National Institute of Industrial Research.
21. Bodig, J, and Jayne, B. A (1982) Mechanics of wood andwood composite, Van Nostrand Reinhold Company Inc, New York.
22. Cartyle, A. A.; McGee, L. B., and McLean, R. A (1956) Wood Particleboard Handbook, School of Engineering, North Carolina State College Raleigh, N. C. 57.

ISSN 3030-3907

KOBALTNING TOKSIKOLOGIYASI, BIOLOGIK ROLI, SALOMATLIKKA TA'SIRI VA ANIQLANISH USULLARI.

Atavulloyev Hafiz Hayotovich

Mirzo Ulug'bek nomidgi O'zbekiston Milliy Universitet tayanch doktaranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada kobalt elementining tirik organizmlar va atrof-muhitga ta'siri hamda uni analitik aniqlash usullari tahlil qilindi. Kobalt biologik jihatdan muhim mikroelement bo'lib, u B_{12} vitamini tarkibiga kiradi va qon hosil bo'lishi hamda metabolik jarayonlarda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, yuqori konsentratsiyalarda kobalt toksik ta'sir ko'rsatib, yurak-qon tomir, asab, reproduktiv va endokrin tizimlarda salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Maqolada kobaltning o'simliklar, suv organizmlari va mikroorganizmlarga ta'siri ham ko'rib chiqildi. Shuningdek, kobalt ionlarini aniqlash uchun qo'llaniladigan zamonaviy analitik metodlar atom-absorbsiya spektroskopiyasi, induktiv bog'langan plazmali mass-spektrometriya, spektrofotometrik va elektrokimyoviy usullar tahlil qilindi. Sorbsion materiallar asosidagi yangi analitik yondashuvlar kobaltni iz miqdorlarda aniqlash imkoniyatini oshirishi ta'kidlandi. Bundan tashqari, kobalt bilan zaharlanish holatlarida xelatoterapiya va gemodializ kabi davolash usullarining ahamiyati yoritildi.

Kalit so'zlar: kobalt, toksikologiya, Atom-absorbsiya spektroskopiyasi, ICP-MS, spektrofotometrik, elektrokimyoviy usul, sorbsion spektroskopiya; xelatoterapiya.

Abstract. This article analyzes the effect of the element cobalt on living organisms and the environment and methods for its analytical determination. Cobalt is a biologically important microelement, it is a component of vitamin B12 and plays an important role in blood formation and metabolic processes. At the same time, cobalt in high concentrations can have a toxic effect, causing negative changes in the cardiovascular, nervous, reproductive and endocrine systems. The article also considers the effect of cobalt on plants, aquatic organisms and microorganisms. Also, modern analytical methods used to determine cobalt ions, such as atomic absorption spectroscopy, inductively coupled plasma mass spectrometry, spectrophotometric and electrochemical methods, were analyzed. It was noted that new analytical approaches based on sorption materials increase the possibility of detecting cobalt in trace amounts. In addition, the importance of treatment methods such as chelation therapy and hemodialysis in cases of cobalt poisoning was highlighted.

Keywords: cobalt, toxicology, Atomic absorption spectroscopy, ICP-MS, spectrophotometric, electrochemical method, sorption spectroscopy; chelation therapy.

ISSN 3030-3907

Аннотация. В данной статье анализируется влияние элемента кобальта на живые организмы и окружающую среду, а также методы его аналитического определения. Кобальт — биологически важный микроэлемент, входящий в состав витамина B12 и играющий важную роль в кроветворении и процессах обмена веществ. При этом кобальт в высоких концентрациях может оказывать токсическое действие, вызывая негативные изменения в сердечно-сосудистой, нервной, репродуктивной и эндокринной системах. В статье также рассматривается влияние кобальта на растения, водные организмы и микроорганизмы. Кроме того, проанализированы современные аналитические методы определения ионов кобальта, такие как атомно-абсорбционная спектроскопия, масс-спектрометрия с индуктивно связанной плазмой, спектрофотометрические и электрохимические методы. Отмечено, что новые аналитические подходы, основанные на сорбционных материалах, повышают вероятность обнаружения кобальта в следовых количествах. Также подчеркнута важность методов лечения, таких как хелатирующая терапия и гемодиализ, в случаях отравления кобальтом.

Ключевые слова: кобальт, токсикология, атомно-абсорбционная спектроскопия, ICP-MS, спектрофотометрический метод, электрохимический метод, сорбционная спектроскопия; хелатирующая терапия.

KIRISH.

Kobalt tirik organizmlar uchun muhim mikroelement bo‘lib, yuqori konsentratsiyalarda salomatlik uchun zararli bo‘lishi mumkin. U ko‘katlar, sabzavotlar, ziravorlar, go‘sht, sut mahsulotlari, dengiz mahsulotlari, tuxum va ichimlik suvida uchraydi. Kobalt inson va hayvonlar metabolizmida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, B_{12} vitaminining hosil bo‘lishida asosiy element hisoblanadi.

Organizmda kobalt miqdorining ortishi qusish, ko‘ngil aynishi, diareya, qon ketishi, qon bosimining pasayishi, yurak va qalqonsimon bez kasalliklari, soch to‘kilishi, suyak nuqsonlari hamda ayrim fermentlar faolligining pasayishiga olib keladi. Aksincha, kobalt yetishmovchiligi anoreksiya, surunkali holsizlik va zararli anemiya rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.[1]

Insonlar kunlik oziq-ovqat iste’moli orqali taxminan 5–50 mkg kobaltni noorganik shaklda qabul qiladi. Noorganik kobalt birikmalarining og‘iz orqali so‘rilishi ularning suvda eruvchanligiga bog‘liq bo‘lib, 5–45% oralig‘ida o‘zgaradi. Kasbiy faoliyat tufayli ayrim ishchilar kobalt birikmalarini nafas orqali qabul qiladi va bu holatda ham yutilish darajasi moddaning eruvchanligiga bog‘liq bo‘ladi.

ISSN 3030-3907

Kobalt organizmdan asosan siydik orqali tez chiqariladi va odatda to‘planmaydi. Biroq siydik yoki qondagi kobalt miqdorining ortishi turli kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Kobalt ionlari genotoksik xususiyatga ega bo‘lib, DNK tuzilishiga zarar yetkazadi, shuningdek kobaltning ayrim shakllari tajriba hayvonlarida kanserogen ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan[2].

Kobaltning ta’siri boshqa zaharli metallar ta’siriga o‘xshash bo‘lib, uzoq muddat ta’sir etganda inson hayoti davomida kanserogen kasalliklar va mutagen o‘zgarishlarning rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin[3].

Yevropa Komissiyasi tomonidan Kobalt "muhim xom ashyo" sifatida tan olingan. Ruda konlari va undan keyingi qazib olish ishlari bilan bog‘liq muhitlarda Co ning yuqori konsentratsiyasi ro‘yxatga olingan: kon suvida **34.4 g/l gacha**, chiqindilarda **14.165 g/kg gacha**, tuproqlarda **21.134 g/kg gacha** va oqim cho‘kindilarida **18.434 g/kg gacha** [4].

Kobalt (Co) uchun suv sifati standartlari hozircha Yevropa Ittifoqi yoki Qo‘shma Shtatlar tomonidan ishlab chiqilmagan. Surunkali Kobalt toksikligi sinovlari o‘n turli dengiz organizmlarida, suv o‘tlaridan baliqlargacha, xalqaro suv sifatini sinovdan o‘tkazish standartlariga muvofiq olib borilgan. Surunkali 10% ta’sir konsentratsiyasi qizil suv o‘tlarida (**Champia parvula**) 1,23 µg erigan Co/l dan boshlanib, qo‘yboshli minnow (**Cyprinodon variegatus**) uchun 31 800 µg erigan Co/l gacha bo‘lgan diapazonni tashkil qilgan[5]. Bu natijalar shuni ko`rsatadiki kobalt elementining biologik roli va salomatlikka tasiri atroflicha yaxshi yoritilmagan .

2. ADABIYOTLAR TANLASH METODOLOGIYASI.

Adabiyotlar qidiruvi Scopus, Web of Science, PubMed, Google Scholar, DOAJ va boshqa yirik xalqaro bibliografik bazalarda amalga oshirildi . Analitik kimyo, atrof-muhit kimyosi, ekologiya va toksikologiya sohalarida asosan ingliz tilidagi yuqori impact faktorli jurnallar va kitoblarning oxirgi 5 yil ichida (2020–2025) nashr qilingan ma’lumotlar ishlatildi. Bundan tashqari, qo‘lda qidiruv ham asosiy ekologik va kimyoviy jurnallarda amalga oshirildi.

3.KOBALT IONINING ATROF –MUHITGA TA`SIRI.

Nikel (Ni) va kobalt (Co) turli sanoat tarmoqlarida, xususan, korroziyaga chidamli po‘latlarning tarkibiy qismlari va galvanik ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi. Tabiiy muhitning ushbu potentsial zaharli elementlar bilan ifloslanishi antropogen faoliyat natijasidir. Shu bois, mikroblarning ushbu metallarga chidamlilik mexanizmlarini tushunish ularni samarali tiklash va atrof-muhitni tozalash uchun muhim hisoblanadi [6].

Kobalt organizmda asosiy biologik jarayonlarda ishtirok etadigan muhim mikroelement bo‘lib, u asosan B_{12} vitamini (kobalamin) tarkibiy qismi sifatida va

ISSN 3030-3907

eritropoezni tartibga soluvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Kobalt yetishmovchiligi megaloblastik anemiyaga olib kelishi mumkin, ortiqcha miqdori esa qalqonsimon bez, yurak-qon tomir va gematopoetik tizimlar uchun toksik hisoblanadi.

So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, Kobaltionlari gipoksiyani boshqaradi va angiogenezni rag‘batlantiradi, bu to‘qimalarni tiklash mexanizmi sifatida muhimdir. Kobalt ta’siri asosan HIF-1αni barqarorlashtirish orqali yuzaga keladi, bu esa VEGF, FGF va EPO kabi angiogen genlarni faollashtiradi. Eksperimental tadqiqotlar kobaltning endotelial hujayralar proliferatsiyasi, migratsiyasi va mikrovaskulyar shakllanishini kuchaytirishini tasdiqladi. Shuningdek, Co^{2+} bilan stimulyatsiya qilingan makrofaglar integrin-β1 ga boy ekzosomalar ajratadi, bu oshiradi.[7].

O‘simliklarda kobalt (Co)ning ortiqcha miqdori turli muammolarni keltirib chiqaradi: u temir (Fe) bilan antagonistik ta’sir qilib, Fe yetishmovchiligi, barglarning to‘kilishi va xlorofil miqdorining pasayishiga olib keladi. Co ba’zi o‘simliklar, jumladan dukkaklilar uchun muhim bo‘lsa-da, ortiqcha miqdori o‘sishni to‘xtatadi. Shu nuqtai nazardan, IMN 4 (Delftia sp.) va SBTS 12 orqali Co toksikligini kamaytirishda ishlatilishi mumkin [7].

Baliqlar va boshqa suv organizmlari uchun kobalt yuqori konsentratsiyalarda zaharli hisoblanadi. U suv havzalarida xavfli ifloslantiruvchi element sifatida paydo bo‘lib, dengiz flora va faunasiga jiddiy xavf tug‘diradi. Tadqiqotlarda oddiy karp Cyprinus carpioga qisqa muddatli Kobalt (0, 1.13, 11.34, 22.68 va 45.37 µg/L, 72 soat) ta’siri o‘rganildi. [8].

Ba’zi asosiy yog‘ kislotalar lipid peroksidlanishining ortishi va Na^{+} ,K^{+} hamda Mg^{2+} ATFazalar faolligining inhibatsiyasi bilan bog‘liq sezilarli o‘zgarishlarni namoyon qildi. Umuman, Kobalttoksikligi mexanizmi oksidlovchi shikastlanish, ion muvozanatining buzilishi, hujayra gomeostazi va baliq fiziologiyasining buzilishini o‘z ichiga oladi[9].

Kobalt og‘ir metal bo‘lib, kasbiy xavflar, kimyoviy moddalar ta’siri va oziq-ovqat orqali qabul qilinishi sababli erkaklar reproduktiv tizimi uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Tadqiqotlar kobaltning sperma sifati, harakatchanligi, morfologiyasi, testosteron darajasi va moyak gistologiyasiga ta’sirini o‘rganib, uning oksidlovchi stress, yallig‘lanish, gormonal o‘zgarishlar va moyak to‘qimalarida strukturaviy buzilishlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Eksperimental hayvonlarda kobalt ta’siri doza, ta’sir qilish davri va turiga qarab farq qiladi; faqat toksik konsentratsiyalarda sperma funktsiyasi buziladi[10].

Shuningdek, kobalt toksikligi miya uchun ham xavfli ekanligi aniqlangan. C57BL/6 sichqonlarga kobalt xlorid yuqori bir martalik dozada (24, 48, 72 soat)

ISSN 3030-3907

yoki 28–56 kun davomida past dozalarda yuborildi; ayrim guruhlar minotsiklin bilan davolandi, nazorat guruhi ham mavjud edi. Xulq-atvor o‘zgarishlari baholandi, to‘qimalardagi kobalt miqdori rentgen nurlanishi bilan aniqlanib, miya MRT, elektron mikroskopiya va gistologik hamda molekulyar tahlillar bilan tekshirildi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki: yuqori dozada kobalt vaqtinchalik kasallik keltiradi, surunkali past dozada esa miya yallig‘lanishi va kobalt to‘planishi kuzatiladi. Demiyelinatsiya, qon–miya to‘sig‘i o‘tkazuvchanligi ortishi va mitoxondriyal disfunktsiya neyrodegeneratsiyani tasdiqladi. Sichqonlarda xotira pasayishi va xavotir kuchayishi kuzatildi, minotsiklin esa miya shikastlanishini qisman kamaytirdi. Neyrotoksik ta’sir dozaga va davomiylikka bog‘liq bo‘lib, o‘tkir ta’sir qaytariluvchan, surunkali ta’sir esa barqaror nevrologik o‘zgarishlarga olib keladi[11].

4.KOBALT IONINING ANALITIK ANIQLANISH USULLARI.

Kobalt ionlarini biologik suyuqliklar, tuproq, suv va oziq-ovqat mahsulotlarida aniqlash analitik kimyo, ekologiya va tibbiyot sohalarida muhim ahamiyatga ega. Og‘ir metallarning atrof-muhitda to‘planishi hamda tirik organizmlarga toksik ta’siri sababli ularning miqdorini aniqlash uchun sezgir va selektiv analitik usullar ishlab chiqilgan. So‘nggi yillarda kobaltni aniqlashda spektroskopik, elektroanalitik va xromatografik usullar keng qo‘llanilmoqda.

Atom-absorbsiya spektroskopiyasi (AAS) va induktiv bog‘langan plazmali mass-spektrometriya (ICP-MS) kobaltni aniqlashda eng keng tarqalgan instrumental usullardan hisoblanadi. Bu usullar yuqori sezgirlikka ega bo‘lib, juda past konsentratsiyalarda ham metall ionlarini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, ICP-MS usuli yordamida suv va biologik namunalarda kobaltning iz miqdorlarini aniqlash mumkin bo‘lib, uning aniqlash chegarasi nanogramm darajasigacha yetadi. Shu sababli ushbu usul ekologik monitoring va klinik tahlillarda keng qo‘llaniladi[12].

Spektrofotometrik usullar ham kobalt ionlarini aniqlashda samarali hisoblanadi. Bu usullar kobalt ionlarining turli xelatlovchi reagentlar bilan rangli kompleks hosil qilish xususiyatiga asoslanadi. Masalan, alizarin red S, nitroso-R tuzi yoki boshqa organik reagentlar bilan hosil bo‘ladigan komplekslar UV-Vis spektrofotometriya yordamida aniqlanishi mumkin. Ushbu usullar oddiyligi, arzonligi va tezkorligi sababli laboratoriya amaliyotida keng qo‘llaniladi [13].

Elektrokimyoviy usullar ham kobalt ionlarini aniqlashda muhim o‘rin tutadi. Anodik striping voltammetriya yoki differensial impuls voltammetriya kabi metodlar yuqori sezgirlikka ega bo‘lib, kobalt ionlarini juda past konsentratsiyalarda aniqlash imkonini beradi. Elektrokimyoviy sensorlar

ISSN 3030-3907

yordamida kobaltni aniqlash ekologik monitoring, tibbiy diagnostika va oziq-ovqat xavfsizligi sohalarida samarali qo‘llanilmoqda [14].

To‘rtinchidan, suyuqlik tarkibidagi qattiq zarralar kuraklarning ishlov berilgan sirtini yemiradi va mahalliy turbulizatsiyani kuchaytiradi. Beshinchidan, kirish quvuridagi havo aralashishi oqim uzluksizligini buzib, bosim pulsatsiyasini paydo qiladi.

4. OQIM ZONALARI BO‘YICHA TAHLILIY JADVAL

1-Jadval


Zona	Asosiy jarayon	Bosim holati	Tezlik holati	Xavf/xususiyat
So‘rish quvuri	Tashqi manbadan oqim keladi	Nisbatan past	O‘rtacha	Mahalliy yo‘qotishlar
Ish g‘ildiragi ko‘zi	O‘q bo‘ylab kirish va tezlanish	Minimal	Ortib boradi	Kavitatsiya xavfi
Kuraklar oralig‘i	Radial va aylana harakat	O‘suvchi	Yuqori	Qaytma oqim ehtimoli
Spiral korpus	Kinetik energiya bosimga aylanadi	Yuqori	Pasayadi	Radial kuchlar
Haydash quvuri	Barqaror uzatish	Barqaror yuqori	O‘rtacha	Tizim qarshiligi ta’siri

5. GIDRAVLIK YO‘QOTISHLAR VA AMALIY MUAMMOLAR

Real nasoslarda oqimning ma’lum qismi foydali bosim hosil qilishga emas, balki yo‘qotishlarni qoplashga sarflanadi. Gidravlik yo‘qotishlar asosan ichki ishqalanish, oqim ajralishi, disk ishqalanishi va mahalliy qarshiliklar bilan bog‘liq. Kuraklar sirtining qo‘polligi yoki yeyilishi oqim chizig‘ining buzilishiga olib keladi. Natijada oqimning bir qismi girdob hosil qiladi va foydali energiya pasayadi.

Kavitatsiya amaliyotda eng xavfli gidravlik hodisalardan biridir. U metall yuzalarda eroziya, shovqin va tebranish keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, nasos kirishida havo aralashishi bosim tebranishlarini kuchaytirib, uzluksiz oqimni pulsatsion rejimga o‘tkazishi mumkin.

ISSN 3030-3907



3-rasm. Nasosdagi energiya yo‘qotishlarining shartli tarkibi

MUHOKAMA. Olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar markazdan qochma nasos ichida ishchi suyuqlik harakati bir tekis va ideal emasligini ko‘rsatdi. Oqim nasosning har bir zonasida turlicha xarakterga ega bo‘lib, kirish qismida asosan o‘q bo‘ylab, ish g‘ildiragi kuraklari oralig‘ida esa radial va aylanma yo‘nalishda harakatlanadi. Spiral korpusda esa ushbu harakat bosim energiyasiga aylantiriladi. Demak, nasos samaradorligi faqat ish g‘ildiragining aylanish tezligiga emas, balki oqimning ichki geometriya bo‘ylab qanday shakllanishiga ham bevosita bog‘liq.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, suyuqlikning nasos ko‘zidagi bosimi eng past qiymatga tushadigan zona bo‘lib, aynan shu hududda kavitatsiya paydo bo‘lish xavfi yuqori hisoblanadi. Agar so‘rish quvuridagi mahalliy yo‘qotishlar ortsa yoki NPSH talabi to‘liq bajarilmasa, oqim uzluksizligi buziladi va bug‘ pufakchalari hosil bo‘ladi. Bu esa keyingi zonalarda bosim pulsatsiyasi, shovqin, tebranish va metall sirtlarda eroziya jarayonlarini yuzaga keltiradi. Shunday qilib, nasosning kirish qismi butun gidravlik jarayon barqarorligining eng muhim nuqtasi ekanligi aniqlandi.

Kuraklar oralig‘idagi oqim alohida muhokamani talab qiladi. Bu hududda suyuqlikning nisbiy, ko‘chirma va mutlaq tezliklari bir vaqtning o‘zida shakllanadi. Nazariy jihatdan oqim kurak profili bo‘ylab silliq harakat qilishi kerak, biroq haqiqiy sharoitda qovushqoqlik, ishqalanish, kuraklar sonining cheklanganligi va yuzalar qo‘polligi sababli oqimda ajralish va mikro-girdoblar paydo bo‘ladi. Natijada nasosning haqiqiy napori nazariy qiymatdan kamayadi. Shu nuqtai nazardan, nasosning konstruktsion parametrlarini tanlashda faqat geometrik o‘lchamlar emas, balki oqimning ichki aerogidrodinamik xususiyatlarini ham hisobga olish zarur.

ISSN 3030-3907

Spiral korpusdagi jarayonlar ham nasos samaradorligida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Spiral korpusning asosiy vazifasi ish g‘ildiragidan chiqayotgan yuqori tezlikli oqimni yig‘ish va kinetik energiyani bosim energiyasiga aylantirishdan iborat. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agar spiral korpusning kesimi oqim sarfiga mos ravishda o‘zgarmasa, oqim notekis taqsimlanadi va radial kuchlar paydo bo‘ladi. Bu kuchlar esa valga va podshipniklarga qo‘shimcha yuklama berib, nasosning mexanik barqarorligini pasaytiradi. Demak, spiral korpusning optimal profili nafaqat gidravlik, balki mexanik nuqtai nazardan ham muhim ahamiyatga ega.

Maqoladagi tahliliy jadvaldan ko‘rinadiki, har bir zona o‘ziga xos xavf va cheklovlarga ega. So‘rish quvurida mahalliy qarshiliklar ustun bo‘lsa, ish g‘ildiragi ko‘zida kavitatsiya xavfi, kuraklar oralig‘ida qaytma oqim va turbulizatsiya, spiral korpusda esa radial kuchlar hamda bosim taqsimotining notekisligi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa markazdan qochma nasosni bir butun mexanik qurilma sifatida emas, balki o‘zaro uzviy bog‘langan gidravlik zonalar tizimi sifatida ko‘rib chiqish zarurligini anglatadi.

Amaliy jihatdan nasos samaradorligini oshirish uchun kirish quvurini imkon qadar qisqa va silliq loyihalash, ish g‘ildiragi ko‘zida oqimni tekislash, kuraklar sirtini yuqori sifatda ishlov berish, spiral korpus kesimini hisoblangan sarfga moslashtirish va haydash quvuridagi ortiqcha gidravlik yo‘qotishlarni kamaytirish lozim. Bundan tashqari, ekspluatatsiya jarayonida vibrodiagnostika, bosim monitoringi va harorat nazorati kabi usullarni qo‘llash nasosning optimal rejimdan chiqishini erta aniqlash imkonini beradi.

Muhokama natijalariga tayangan holda aytish mumkinki, markazdan qochma nasoslarda ishchi suyuqlik harakati murakkab, ko‘p omilli va zonalar bo‘yicha keskin farqlanuvchi jarayondir. Shu sababli nasosni loyihalash, tanlash va ekspluatatsiya qilishda nazariy tenglamalar bilan bir qatorda real gidravlik yo‘qotishlar, oqimning turbulizatsiyasi va ichki notekisliklar ham albatta inobatga olinishi kerak.

XULOSA. Ushbu maqolada markazdan qochma nasoslarda ishchi suyuqlikning harakatlanish jarayoni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, nasos ichidagi oqim kirish qismi, ish g‘ildiragi ko‘zi, kuraklar oralig‘i, spiral korpus va haydash quvurida turli gidravlik xususiyatlarga ega bo‘lib, har bir zona nasosning umumiy ish rejimiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, suyuqlik energiyasining o‘zgarishi Euler tenglamasi, uzluksizlik qonuni va Bernulli tenglamasi asosida tushuntiriladi. Ish g‘ildiragi suyuqlikka mexanik energiya uzatadi, spiral korpus esa ushbu energiyaning muhim qismini bosim energiyasiga aylantiradi. Biroq haqiqiy ish

ISSN 3030-3907

sharoitida ichki ishqalanish, oqim ajralishi, turbulizatsiya, qaytma oqim va mahalliy qarshiliklar tufayli nazariy ko‘rsatkichlar to‘liq amalga oshmaydi.

Maqolada nasos samaradorligiga salbiy ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida kavitatsiya, bosim yo‘qotishlari, oqim notekisligi, havo aralashishi va gidravlik qarshiliklarning ortishi aniqlandi. Ayniqsa, ish g‘ildiragi ko‘zidagi minimal bosim zonasi kavitatsiya paydo bo‘lishi nuqtai nazaridan eng xavfli hudud ekani asoslab berildi. Spiral korpusning noto‘g‘ri tanlanishi esa radial kuchlar ortishiga va tebranishlarning kuchayishiga olib kelishi qayd etildi.

Shu asosda markazdan qochma nasoslarning samarali ishlashi uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: so‘rish liniyasidagi yo‘qotishlarni kamaytirish, NPSH shartini ta’minlash, ish g‘ildiragi va spiral korpus geometriyasini oqim rejimiga mos tanlash, kuraklar sirt sifatini yaxshilash hamda ekspluatatsiya jarayonida bosim, tebranish va harorat monitoringini muntazam olib borish. Ushbu choralar nasosning foydali ish koeffitsiyentini oshirish, xizmat muddatini uzaytirish va energiya sarfini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, markazdan qochma nasoslarda ishchi suyuqlik harakatini chuqur o‘rganish nasosning ish jarayonini to‘g‘ri baholash, nosozliklarning oldini olish va yuqori samarali konstruktsiyalar yaratish uchun zarur ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ismatov Adxamjon Alibek o‘g‘li, Raxmatov Ramazonjon Ravshan o‘g‘li. Gidravlik tizimlardagi ichki nosozliklardan suyuqlik oqib chiqishini ishqalanish kuchlari asosida matematik modelini ishlab chiqish. Diversity Research: Journal of Analysis and Trends. Vol. 2, pp. 46-49, https://academiaone.org/index.php/2/article/view/854

2. Nabijon Abduazizov, Kamol Xakimov, Sardor Turdiyev, Akbar Zhuraev, Adxam Ismatov. The impact of the amount of pollution of the fluid in the hydraulic system on the working resource of the quarry excavator. E3S Web of Conferences, 2025. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202562705001

3. B.R Toshov, A.D Nietbaev, A.A Ismatov. Vintsimon harakatda qattiq jismning ixtiyoriy nuqtasining harakat tenglamasi va tezligi, Educational Research in Universal Sciences, c-473-476.

4. Ismatov A. A. (2025). Gidronasos porshen harakatining matematik tahlili va differensial modellashtirish. Development Of Science, 7(2), pp. 409-414. https://doi.org/0

5. Turanov E. Z., Zoxidov O. U., Xudoyberdiyev L. N. & Ismatov A. A. (2025). Kon mashinalari radiator qurilmasi gidravlik tizimini sovutishning zamonaviy texnik yechimi. Development Of Science, 10(1), pp. 378-383. https://doi.org/0

ISSN 3030-3907

6. Ismatov A. A. (2025). Gidravlik tizimdagi nasoslarning harakatlanish usullarining qiyosiy tahlillari . Development Of Science, 7(2), pp. 403-408. https://doi.org/0
7. S. Zhuraev, S. A. Turdiyev, S. T. Jurayev, and S.S. Q. Salimova, "Characteristics of packing gland seals in hydraulic systems of quarry excavators and results of comparative analysis of experimental tests," Vibroengineering Procedia, Vol. 54, pp. 252–257, Apr. 2024, https://doi.org/10.21595/vp.2024.24051.
8. Abdullayev Sardor Husniddinovich, Juraqulov Og‘abek Jurabek o‘g‘li, Kaxxarov Orif Odilovich, Ismatov Adxamjon Alibek o‘g‘li. Suyuqlik haroratini tashqi ta'sir orqali suyuqlikning yopishqoqligini tahlili. Часть-45_ Том-3_ Май-2025. С.255-258.
9. Karshibaev A. I., Zokhidov O.U. Research of potential and effectiveness of renewable energy application at mining enterprises of the Republic of Uzbekistan. Australian Journal of Science and Technology, Volume 4; Issue 4; December 2020.

ISSN 3030-3907

ЎУК: 624.012.04

ТЕМИРБЕТОН УСТУНЛАРНИ АНЪАНАВИЙ ВА ЗАМОНАВИЙ КУЧАЙТИРИШ УСУЛЛАРИНИНГ ТУРЛАРИ ВА УЛАРНИНГ АФЗАЛ ҲАМДА КАМЧИЛИКЛАРИ

Алимов Х.Т.
Тошкент архитектура қурилиш университети PhD., доцент
Азимов А.А.
Тошкент архитектура қурилиш университети, **кат.ўқ.**
Шарибов Х.Ж.
Тошкент архитектура қурилиш университети магистр

Аннотация. Темирбетон конструкциялар қурилиш соҳасида энг кўп қўлланиладиган конструктив элементлардан бири ҳисобланади. Уларнинг хизмат муддати давомида турли омиллар таъсирида мустаҳкамлиги пасайиши мумкин. Бундай ҳолатларда конструкцияларни кучайтириш муҳим аҳамиятга эга. Мазкур мақолада темирбетон устунларни анъанавий ва замонавий усуллар орқали кучайтириш технологиялари таҳлил қилинган. Темирбетон ҳалқа, пўлат ҳалқа, композит материаллар ва полимербетонлар асосида кучайтириш усулларининг техник хусусиятлари, афзалликлари ва камчиликлари ўрганилган. Шунингдек, устунларни кучайтиришда юк кўтариш қобилиятини ҳисоблаш усуллари келтирилган ва уларнинг самарадорлиги таҳлил қилинган.

Калит сўзлар. темирбетон устун, кучайтириш усуллари, бетон ҳалқа, пўлат ҳалқа, композит материаллар, FRP, конструкция мустаҳкамлиги, реконструкция, қурилиш технологияси.

Аннотация. Железобетонные конструкции являются одними из наиболее широко применяемых конструктивных элементов в строительной отрасли. В течение срока их эксплуатации прочность может снижаться под воздействием различных факторов. В таких случаях усиление конструкций приобретает важное значение. В данной статье проанализированы технологии усиления железобетонных колонн с использованием традиционных и современных методов. Изучены технические характеристики, преимущества и недостатки методов усиления на основе железобетонной обоймы, стальной обоймы, композитных материалов и полимербетонов. Также приведены методы расчёта несущей способности при усилении колонн и проанализирована их эффективность.

Ключевые слова: железобетонная колонна, методы усиления, бетонная обойма, стальная обойма, композитные материалы, FRP, прочность конструкции, реконструкция, строительная технология.

ISSN 3030-3907

Abstract. Reinforced concrete structures are among the most widely used structural elements in the construction industry. During their service life, their strength may decrease under the influence of various factors. In such cases, strengthening the structures becomes very important. This article analyzes the technologies for strengthening reinforced concrete columns using both traditional and modern methods. The technical characteristics, advantages, and disadvantages of strengthening methods based on reinforced concrete jackets, steel jackets, composite materials, and polymer concretes are studied. In addition, methods for calculating the load-bearing capacity when strengthening columns are presented, and their effectiveness is analyzed.

Keywords: reinforced concrete column, strengthening methods, concrete jacket, steel jacket, composite materials, FRP, structural strength, reconstruction, construction technology.

КИРИШ.

Бугунги кунда қурилиш соҳасида мавжуд бинолар ва иншоотларни реконструкция қилиш, уларнинг хизмат муддатини узайтириш ва хавфсизлигини таъминлаш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади. Темирбетон устунлар биноларнинг асосий юк кўтарувчи элементларидан бири бўлиб, уларнинг шикастланиши бутун бино мустаҳкамлилигига салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

Темирбетон устунларни кучайтириш зарурати қуйидаги ҳолатларда пайдо бўлади:

- бинога тушадиган юкларнинг ортиши;
- конструкция материалларининг эскириши;
- коррозия;
- лойиҳалашдаги хатолар;
- сейсмик таъсирлар;
- реконструкция ишлари [1].

Шу сабабли темирбетон устунларни кучайтириш усулларини тадқиқ қилиш ва уларнинг самарадорлигини таҳлил қилиш муҳим ҳисобланади.

АСОСИЙ ҚИСМ. Темирбетон устунларни кучайтириш усуллари икки асосий гуруҳга бўлинади [2]:

1. Анъанавий усуллар.
2. Замонавий усуллар.

1. АНЪАНАВИЙ КУЧАЙТИРИШ УСУЛЛАРИ.

1.1. Темирбетон ҳалқа билан кучайтириш.

Бу мавжуд конструкциянинг атрофига арматура ўрнатиб, уни бетон билан қоплаш орқали унинг мустаҳкамлиги ва юк кўтариш қобилиятини

ISSN 3030-3907

ошириш усулидир. Бу усул одатда эскирган ёки юклама ошган устун ва бошқа темирбетон конструкцияларни реконструкция қилишда қўлланилади.



1-расм. Темирбетон халқа билан устуннларни кучайтириш

Темирбетон ҳалқа билан кучайтириш одатда қуйидаги тартибда бажарилади:

Мавжуд конструкция юзасини тайёрлаш

- бетон юзаси тозаланади;
- заиф қисмлар олиб ташланади.

Арматура ўрнатиш

- янги арматура каркаси ёки тўри ўрнатилади;
- у мавжуд конструкцияга анкерлар билан бириктирилади.

Қолип ўрнатиш

- бетонни шаклда ушлаб туриш учун қолип ўрнатилади.

Бетон қуйиш

- янги темирбетон қоплама ҳосил қилинади.

Қотиш ва парвариш

- бетон мустаҳкам бўлиши учун маълум вақт сақланади.

АФЗАЛЛИКЛАРИ:

- юқори мустаҳкамлик таъминлайди;
- технологияси оддий;
- арзон материаллар ишлатилади.

КАМЧИЛИКЛАРИ:

- конструкция оғирлиги ортиб кетади;
- устун ўлчами катталашади;
- қурилиш вақти узаяди [1, 2].

1.2. Пўлат қоплама билан кучайтириш

ISSN 3030-3907

Бу мавжуд темирбетон ёки бетон конструкцияни унинг атрофига пўлат листлар, бурчаклар ёки швеллерлар ўрнатиш орқали мустаҳкамлаш усулидир. Бу усул конструкциянинг юк кўтариш қобилиятини оширади, деформация ва ёрилишларни камайтиради ҳамда реконструкция ишларида кенг қўлланилади.



2-расм. Пўлат ҳалқа билан кучайтириш

Пўлат ҳалқа билан кучайтиришни бажариш босқичлари қуйидагилардан иборат:

1. Конструкция юзасини тайёрлаш – бетон ёки темирбетон юзаси тозаланади, шикастланган жойлар бартараф этилади.

2. Пўлат элементларни тайёрлаш – пўлат листлар, бурчаклар ёки швеллерлар керакли ўлчамда тайёрланади.

3. Пўлат ҳалқани ўрнатиш – пўлат элементлар конструкция атрофига жойлаштирилиб, болтлар ёки пайвандлаш орқали маҳкамланади.

4. Боғлаш ва мустаҳкамлаш – пўлат ҳалқа конструкция билан ишончли боғланиши таъминланади.

5. Ҳимоя ишлари – пўлат қисмлар занглашдан сақлаш учун махсус қоплама ёки бўёқ билан қопланади.

Афзалликлари:

- монтажи тез;
- юк кўтариш қобилияти сезиларли ошади;
- конструкция қаттиқлиги ортади.

Камчиликлари:

- коррозия хавфи бор;
- металл қиммат;
- доимий техник хизмат талаб қилинади [1, 2].

2. ЗАМОНАВИЙ КУЧАЙТИРИШ УСУЛЛАРИ

2.1 Композит материаллар (FRP) билан кучайтириш

ISSN 3030-3907

FRP материаллари (Fiber Reinforced Polymer) углерод, шиша ёки арамид толаларидан ташкил топган композит материаллардир. Бу темирбетон ёки бетон конструкцияларни махсус толали полимер материаллар (углерод, шиша ёки арамид толали ленталар) ёрдамида мустаҳкамлаш усулидир. Бу материаллар конструкция юзасига ёпиштирилиб, унинг юк кўтариш қобилиятини оширади, ёрилишларни камайтиради ва конструкциянинг хизмат муддатини узайтиради [3, 4, 5].



3-расм. Композит материаллар (FRP) билан кучайтириш

Композит материаллар (FRP) билан кучайтиришни бажариш босқичлари қуйидагилардан иборат:

1. Юзани тайёрлаш – конструкция юзаси тозаланади, чанг ва бўш қисмлар олиб ташланади, юза текисланади.

2. Грунтовка суртиш – махсус праймер (грунтовка) суртилиб, композит материалнинг яхши ёпишиши таъминланади.

3. Ёпиштирувчи қатлам қўллаш – эпоксидли смола ёки махсус клей юзага суртилади.

4. FRP материалини ўрнатиш – композит тасма ёки мато юзага жойлаштирилиб, маҳкам босиб ёпиштирилади.

5. Қотиш ва ҳимоя – материал тўлиқ қотиши учун вақт керак бўлади ва зарур бўлса ҳимоя қопламаси билан қопланади.

Афзалликлари:

- жуда енгил;
- коррозияга чидамли;
- монтажи тез;
- устун геометрияси ўзгармайди.

Камчиликлари:

- нархи юқори;
- юқори ҳароратга сезгир;
- махсус технология талаб қилади [3, 4, 5].

ISSN 3030-3907

2.2. Полимербетон ёрдамида кучайтириш.

Бу бетон ёки темирбетон конструкцияларни махсус полимер қўшимчали бетон аралашмаси билан мустаҳкамлаш усулидир. Бу материал конструкциянинг шикастланган ёки заиф қисмларини тўлдириб, унинг мустаҳкамлигини, чидамлилигини ва хизмат муддатини оширишга ёрдам беради.



4-расм. Полимербетон ёрдамида кучайтириш

Полимербетон ёрдамида кучайтиришни бажариш босқичлари қуйидагилардан иборат:

1. Юзани тайёрлаш – конструкция юзаси тозаланади, чанг ва шикастланган қисмлар олиб ташланади.
2. Юзани текислаш – зарур бўлса ёриқлар ва бўш жойлар тайёрланади.
3. Полимербетон аралашмасини тайёрлаш – полимер қўшимчали махсус бетон аралашмаси тайёрланади.
4. Полимербетонни қўллаш – аралашма шикастланган ёки кучайтириладиган жойга қуйилади ёки суртилади.
5. Қотиш ва парвариш – материал қотиши учун маълум вақт сақланади ва ҳимоя чоралари кўрилади.

Афзалликлари:

- юқори адгезия
- тез қотади
- мустаҳкамлик юқори

Камчиликлари:

- материал қиммат
- технология мураккаб

ISSN 3030-3907

1-жадвал

Кучайтириш усулларини солиштириш (1-жадвал)

№	Кучайтириш усули	Мустаҳкамлик	Монтаж тезлиги	Нархи	Камчилик
1	Бетон қоплама	Юқори	Ўрта	Арзон	Оғирлик ортиши
2	Пўлат қоплама	Юқори	Тез	Ўрта	Коррозия
3	FRP композит	Жуда юқори	Жуда тез	Қиммат	Ҳароратга сезгир
4	Полимербетон	Ўрта	Тез	Қиммат	Технология мураккаб

Ҳисоблаш методлари:

Темирбетон устуннинг юк кўтариш қобилияти қуйидаги формула орқали аниқланади:

$$N = R_b \cdot A_b + R_s \cdot A_s$$

Бу ерда:

N - юк кўтариш қобилияти

R_b - бетон қаршилиги

A_b - бетон кесими

R_s - арматура қаршилиги

A_s - арматура кесими

FRP билан кучайтиришда:

$$N_{frp} = E_f \cdot A_f \cdot \varepsilon_f$$

Бу ерда:

E_f - композит материал эластиклик модули

A_f - композит материал кесими

ε_f - деформация

График таҳлил

Кучайтириш усулларининг самарадорлиги шартли равишда қуйидаги 2-жадвалда кўришимиз мумкин.

2-жадвал

Усул	Юк кўтариш қобилияти ошиши (%)
Бетон ҳалқа	40–60 %
Пўлат ҳалқа	50–70 %
FRP композит материаллари	60–90 %
Полимербетон	30–45 %

ISSN 3030-3907

Бу маълумотлардан кўриниб турибдики, FRP технологияси энг юқори самарадорликни таъминлайди.

ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ. Олиб борилган таҳлиллар натижасига кўра:

- анъанавий усуллар иқтисодий жиҳатдан самарали;
- замонавий усуллар технологик жиҳатдан устун;
- FRP материаллари реконструкция ишларида кенг қўлланмоқда;
- устун кесими ўзгармаслиги замонавий усулларнинг муҳим афзаллиги ҳисобланади.

МУҲОКАМА. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, кучайтириш усулини танлашда қуйидаги омиллар муҳим:

- конструкция ҳолати
- иқтисодий самарадорлик
- қурилиш муддати
- сейсмик шароит
- эксплуатация муҳити

Айниқса сейсмик ҳудудларда композит материаллардан фойдаланиш конструкциянинг пластиклигини оширади.

ХУЛОСА.

1. Темирбетон устунларни кучайтириш бинолар хавфсизлигини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга.
2. Анъанавий кучайтириш усуллари арзон ва ишончли ҳисобланади.
3. Замонавий композит материаллар конструкция геометриясини ўзгартирмасдан кучайтириш имконини беради.
4. FRP технологияси юқори самарадорликка эга бўлиб, реконструкция ишларида кенг қўлланилиши мақсадга мувофиқ.
5. Ҳар бир ҳолатда кучайтириш усули техник ва иқтисодий таҳлил асосида танланиши лозим.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Xotamov A.T., Alimov X.T., Juraev I.E. “Bino va inshootlarning texnik holatini baholash”. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2023, 130 bet.
2. Георгиев С. В., Маилян Д.Р., Соловьева А.И. Новый метод усиления железобетонных сжатых колонн, основанный на использовании бетона и композита. Современные тенденции в строительстве, градостроительстве и планировке территорий 2022. Т. 1. № 2.
3. Grace N.F., Ragheb W.F., Abdel-Sayed G. Development and application of innovative triaxially braided ductile frp fabric for strengthening concrete beams // Composite structures. - 2004 - V. 64. - № 3-4. P. 521-530.

ISSN 3030-3907

4. ACI 440. Guide for the Design and Construction of FRP Systems. 2017
5. Teng J.G. Behaviour and strength of FRP-strengthened RC structures: a state-of-the-art review. Proceedings of the Institution of Civil Engineers - Structures and Buildings 156(1):51-62 2003.

ISSN 3030-3907

TEKSTIL MOYINI OLISH UCHUN I-12 BAZA MOYINI MAKSIMAL DARAJADA CHUQUR GIDROTOZALASH JARAYONINI LOYIHALASH

Davletov Zafar Quvondiq o‘g‘li
Toshkent kimyo texnologiya instituti
Yusupova Go‘zal Xusan qizi
Olmaliq tehnika instituti
G‘ulomov Shuxratqodir Tashmatovich
Toshkent kimyo texnologiya instituti
Xabipov Ruslan Serverovich
Toshkent kimyo texnologiya institute
Suyunbayev Serik Nurlan o‘g‘li
Toshkent kimyo texnologiya instituti
Mengliyev Sherzod Shoimovich
Toshkent kimyo texnologiya instituti

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida tekstil sanoati uchun mo‘ljallangan yuqori tozalikka ega moy olish maqsadida I-12 marka baza moyini maksimal darajada chuqur gidrotozalash jarayonini loyihalash masalasi ko‘rib chiqildi. Tadqiqot davomida baza moyining fizik-kimyoviy xossalari tahlil qilindi hamda gidrotozalash jarayonining asosiy texnologik parametrlari – temperatura, bosim va hajmiy tezlikning mahsulot sifatiga ta’siri o‘rganildi. Olingan natijalar gidrotozalash jarayonida oltingugurt va azot birikmalari miqdori keskin kamayishini hamda aromatik uglevodorodlar miqdori pasayishini ko‘rsatdi. Jarayon natijasida baza moyining rang ko‘rsatkichi yaxshilanib, tekstil sanoati talablariga mos yuqori tozalikka ega moy olish imkoniyati aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosida I-12 baza moyini gidrotozalash jarayonining optimal texnologik parametrlari aniqlangan hamda tekstil moylari ishlab chiqarish uchun samarali texnologik yechim taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: baza moyi, gidrotozalash, tekstil moyi, gidrodesulfurizatsiya, katalizator, LHSV, neftni qayta ishlash

Аннотация. В данной работе рассмотрена разработка процесса глубокой гидроочистки базового масла марки I-12 с целью получения высокоочищенного масла для текстильной промышленности. Проведен анализ физико-химических свойств исходного сырья, а также исследовано влияние основных технологических параметров процесса гидроочистки – температуры, давления и объемной скорости подачи сырья на качество конечного продукта. Результаты исследования показали значительное снижение содержания сернистых и азотсодержащих соединений, а также

ISSN 3030-3907

уменьшение количества ароматических углеводородов. В результате гидроочистки наблюдается улучшение цветности базового масла и повышение его эксплуатационных характеристик. На основании полученных данных определены оптимальные технологические параметры процесса гидроочистки базового масла I-12, обеспечивающие получение высококачественных масел для текстильной промышленности.

Ключевые слова: базовое масло, гидроочистка, текстильное масло, гидродесульфуризация, катализатор, LHSV, нефтепереработка

Abstract. This study investigates the design of a deep hydrotreating process for I-12 base oil aimed at producing high-purity oils for the textile industry. The physicochemical properties of the feedstock were analyzed, and the influence of key process parameters such as temperature, pressure, and liquid hourly space velocity (LHSV) on product quality was evaluated. The obtained results demonstrated a significant reduction in sulfur and nitrogen compounds as well as a decrease in aromatic hydrocarbons during the hydrotreating process. As a result, the color index and overall quality of the base oil improved considerably. Based on the experimental data, optimal technological parameters for the hydrotreating process were determined, providing an efficient technological solution for producing high-quality textile oils from I-12 base oil.

Keywords: base oil, hydrotreating, textile oil, hydrodesulfurization, catalyst, LHSV, petroleum refining

KIRISH

So‘nggi yillarda tekstil sanoatining jadal rivojlanishi yuqori sifatli texnologik moylarga bo‘lgan talabni keskin oshirdi. Tekstil ishlab chiqarish jarayonlarida ishlatiladigan moylar tolalarni qayta ishlash jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ular ip yigirish, to‘qish va tolalarni qayta ishlash jarayonlarida ishqalanishni kamaytiradi, uskunalarning ishlash barqarorligini ta’minlaydi hamda mahsulot sifatini yaxshilaydi [1]. Shu sababli tekstil sanoatida qo‘llaniladigan moylarning fizik-kimyoviy xossalariga juda yuqori talablar qo‘yiladi.

Tekstil moylari tolalar bilan bevosita aloqa qilganligi sababli ular rangsiz, kimyoviy jihatdan barqaror, oksidlanishga chidamli hamda minimal miqdorda heteroatomli birikmalarni o‘z ichiga olishi kerak. Agar moy tarkibida oltingugurt, azot yoki aromatik uglevodorodlar ko‘p bo‘lsa, ular tolalarning rangini o‘zgartirishi, matolarda dog‘lar hosil qilishi yoki mahsulot sifatini pasaytirishi mumkin [2]. Bundan tashqari, bunday aralashmalar moyning oksidlanish barqarorligini ham yomonlashtiradi.

Neftni qayta ishlash jarayonida olinadigan baza moylari tarkibida turli xil heteroatomli birikmalar mavjud bo‘ladi. Ular asosan quyidagi moddalardan iborat:

ISSN 3030-3907

–oltingugurtli birikmalar (tiollar, sulfidlar, tiofenlar)
– azotli birikmalar (piridin, kinolin hosilalari)
– aromatik uglevodorodlar
– smola va oksidlanish mahsulotlari

Mazkur birikmalar moyning rang ko‘rsatkichini yomonlashtiradi, katalizatorlarni zaharlaydi va oksidlanish jarayonlarini tezlashtiradi [3]. Shu sababli yuqori sifatli texnologik moylar ishlab chiqarishda chuqur tozalash jarayonlari qo‘llaniladi.

Baza moylarini tozalashning bir necha usullari mavjud bo‘lib, ularga selektiv ekstraksiya, adsorbsion tozalash, kislotali tozalash hamda gidrotozalash jarayonlari kiradi. Ammo zamonaviy neftni qayta ishlash sanoatida eng samarali usullardan biri sifatida gidrotozalash (hydrotreating) jarayoni keng qo‘llaniladi [4].

Gidrotozalash jarayoni vodorod muhitida katalizator ishtirokida amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda heteroatomli birikmalar vodorod bilan reaksiyaga kirishib gazsimon mahsulotlar – vodorod sulfidi (H_2S), ammiak (NH_3) va suv hosil qiladi. Natijada xomashyo tarkibidagi zararli aralashmalar sezilarli darajada kamayadi [5].

Gidrotozalash jarayonida quyidagi asosiy reaksiyalar sodir bo‘ladi:
– gidrodesulfurizatsiya (HDS)
– gidrodenitrifikatsiya (HDN)
– aromatik uglevodorodlarni gidrogenlash
– olefinlarni to‘yintirish

Mazkur reaksiyalar natijasida baza moyining rang ko‘rsatkichi yaxshilanadi, oksidlanish barqarorligi ortadi va moyning ekspluatatsion xossalari sezilarli darajada yaxshilanadi [6].

Bugungi kunda neftni qayta ishlash sanoatida gidrotozalash jarayonlari turli xildagi katalizatorlar yordamida amalga oshiriladi. Eng ko‘p qo‘llaniladigan katalizatorlar qatoriga Co-Mo/Al_2O_3 va Ni-Mo/Al_2O_3 katalizatorlari kiradi. Bu katalizatorlar yuqori gidrogenlash faolligi va uzoq xizmat muddati bilan ajralib turadi [7]. Ular yordamida og‘ir neft fraksiyalarini ham samarali tozalash mumkin.

Tekstil moylari ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan baza moylari odatda past qovushqoqlikka ega bo‘lgan fraksiyalardan olinadi. Shunday fraksiyalardan biri I-12 marka baza moyi hisoblanadi. Ushbu moy o‘rtacha qovushqoqlik xossalariga ega bo‘lib, turli xil texnologik moylar ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi. Biroq uning tarkibida aromatik uglevodorodlar va heteroatomli birikmalar mavjudligi sababli qo‘shimcha tozalash jarayonlari talab etiladi [8].

Tekstil sanoati uchun mo‘ljallangan moylar ishlab chiqarishda maksimal darajada chuqur yoki “тонкий” gidrotozalash jarayonlari qo‘llaniladi. Bunday

ISSN 3030-3907

jarayonlarda xomashyo nisbatan yumshoq sharoitlarda, ammo uzoqroq kontakt vaqti va optimal vodorod sarfi bilan qayta ishlanadi. Bu esa baza moyining strukturaviy uglevodorod tarkibini saqlagan holda zararli aralashmalarni maksimal darajada olib tashlash imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, I-12 baza moyini gidrotozalash jarayonining texnologik parametrlarini optimallashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Bunday tadqiqotlar tekstil sanoati uchun yuqori sifatli moylar ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirishga yordam beradi.

Mazkur tadqiqot ishining asosiy maqsadi – I-12 marka baza moyini maksimal darajada chuqur gidrotozalash jarayonini loyihalash hamda tekstil moyi ishlab chiqarish uchun optimal texnologik sharoitlarni aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- I-12 baza moyining fizik-kimyoviy xossalarini tahlil qilish;
- gidrotozalash jarayonining texnologik sxemasini ishlab chiqish;
- jarayon parametrlarining (temperatura, bosim, hajmiy tezlik) ta’sirini baholash;
- tozalangan mahsulotning sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqot natijalari tekstil sanoati uchun yuqori tozalikka ega moylar ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lishi kutilmoqda.

MATERIALLAR VA USULLAR

Xomashyo tavsifi

Tadqiqot ishida xomashyo sifatida neftni vakuum distillyatsiyasi va selektiv tozalash jarayonlaridan olingan I-12 marka baza moyi ishlatildi. Mazkur fraksiya o‘rta qovushqoqlikka ega bo‘lib, turli xil texnologik moylar, jumladan tekstil moylari ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi.

Biroq ushbu moy tarkibida aromatik uglevodorodlar, oltingugurt va azotli birikmalar mavjudligi sababli uning sifat ko‘rsatkichlari tekstil sanoati talablariga to‘liq javob bermaydi. Shu sababli I-12 baza moyini chuqur gidrotozalash jarayonida qayta ishlash zarur hisoblanadi [6].

Xomashyoning asosiy fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari laboratoriya sharoitida standart tahlil usullari yordamida aniqlangan.

1-Jadval

I-12 baza moyining fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Qiymat	Tahlil usuli
Zichlik (20°C)	0.865–0.875 g/cm³	ASTM D4052
Kinematik qovushqoqlik (40°C)	11–13 mm²/s	ASTM D445
Oltingugurt miqdori	0.12–0.16 %	ASTM D4294
Azot miqdori	0.015–0.025 %	ASTM D4629

ISSN 3030-3907

Aromatik uglevodorodlar	18–22 %	ASTM D2007
Rang ko‘rsatkichi	3–4	ASTM D1500

Ushbu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, I-12 baza moyi tarkibida sezilarli miqdorda aromatik va heteroatomli birikmalar mavjud bo‘lib, ular gidrotozalash jarayonida kamaytirilishi kerak.

Gidrotozalash katalizatori

Gidrotozalash jarayonida kobalt-molibden asosidagi Co-Mo/Al_2O_3 katalizatori qo‘llanildi. Bunday katalizatorlar neftni qayta ishlash sanoatida keng qo‘llaniladi va gidrodesulfurizatsiya hamda gidrodenitrifikatsiya reaksiyalarida yuqori faollikka ega [7].

Katalizator γ-Al_2O_3 tashuvchisi ustiga CoO va MoO_3 oksidlarining impregnatsiyasi orqali tayyorlangan. Reaktor ishga tushirilishidan oldin katalizator vodorod sulfidi va vodorod aralashmasida sulfidlanadi.

2-Jadval

Gidrotozalash katalizatorining asosiy xossalari

Ko‘rsatkich	**Qiymat**
Faol komponentlar	CoO – 3–5 %
	MoO_3 – 12–15 %
Tashuvchi	γ-Al_2O_3
Sirt maydoni	180–220 m^2/g
G‘ovak hajmi	0.40–0.50 cm^3/g
Granula diametri	1.2–1.6 mm

Mazkur katalizator yuqori gidrogenlash faolligi hamda aromatik uglevodorodlarni qisman gidrogenlash qobiliyati bilan ajralib turadi.

Gidrotozalash jarayonining texnologik sxemasi

I-12 baza moyini gidrotozalash jarayoni uzluksiz ishlaydigan reaktor tizimida amalga oshiriladi. Jarayonning umumiy texnologik sxemasi quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

1. Xomashyoni mexanik aralashmalardan tozalash
2. Xomashyoni issiqlik almashtirgichlarda qizdirish
3. Vodorod bilan aralashtirish
4. Katalitik reaktorda gidrotozalash
5. Gaz-suyuqlik aralashmasini separatorlarda ajratish
6. Stabilizatsiya kolonnasida mahsulotni yakuniy tozalash

ISSN 3030-3907




Figura 1. I-12 baza moyini gidrotozalash texnologik sxemasi

Texnologik sxemada xomashyo nasos yordamida issiqlik almashtirgichga yuboriladi va reaktor kirish temperaturagacha qizdiriladi. Keyin u vodorod bilan aralashtirilib, statsionar katalizator qatlamiga ega bo‘lgan reaktorga uzatiladi. Reaktordan chiqqan mahsulot separatorga yuborilib, gaz fazasi (H_2S, NH_3 va ortiqcha vodorod) ajratiladi. Tozalangan moy stabilizatsiya kolonnasida engil fraksiyalardan tozalanadi.

Tajriba qurilmasi

Laboratoriya tajribalari yuqori bosimli gidrotozalash qurilmasida o‘tkazildi. Qurilma quyidagi asosiy elementlardan iborat:

- xomashyo rezervuari
- yuqori bosimli nasos
- vodorod ta’minlash tizimi
- quvurli katalitik reaktor
- separator
- gaz tozalash bloki

Reaktor zanglamaydigan po‘latdan tayyorlangan bo‘lib, ichida granulali katalizator qatlamlari joylashtirilgan.

2-Jadval

Reaktorning asosiy parametrlari

Ko‘rsatkich	**Qiymat**
Reaktor diametri	25 mm
Reaktor balandligi	500 mm
Katalizator hajmi	120 ml
Ishchi bosim	5 MPa gacha

Jarayon parametrlari

Gidrotozalash jarayonining asosiy texnologik parametrlari quyidagilar hisoblanadi:

- temperatura

ISSN 3030-3907

– vodorod bosimi
– hajmiy tezlik (LHSV)
– vodorod/xomashyo nisbati

Tajriba davomida quyidagi parametr diapazonlari o‘rganildi:

4-Jadval.

Tadqiqotda o‘rganilgan texnologik parametrlar

Parametr	**Diapazon**
Temperatura	320–360 °C
Bosim	3–5 MPa
LHSV	0.8–1.5 $soat^{-1}$
Vodorod sarfi	200–350 Nm^3/m^3

Mazkur parametrlar gidrotozalash jarayonining samaradorligini baholash imkonini beradi.

Tahlil usullari

Gidrotozalash jarayonidan olingan mahsulot namunalarining sifat ko‘rsatkichlari quyidagi standart usullar yordamida aniqlangan:

5-Jadval

Ko‘rsatkich	**Tahlil usuli**
Oltingugurt miqdori	ASTM D4294
Azot miqdori	ASTM D4629
Aromatik uglevodorodlar	ASTM D2007
Rang ko‘rsatkichi	ASTM D1500
Qovushqoqlik	ASTM D445

Mazkur usullar neft mahsulotlari sifatini aniqlashda xalqaro miqyosda keng qo‘llaniladi.

Jarayon samaradorligini baholash

Gidrotozalash jarayonining samaradorligi asosan oltingugurt va azot birikmalarining kamayish darajasi bilan baholanadi.

Tozalanish darajasi quyidagi formula yordamida hisoblandi:

$$\eta=(C_0-C)/C_0\times 100$$

bu yerda:

C_0 — xomashyo tarkibidagi aralashma miqdori

C— mahsulot tarkibidagi aralashma miqdori

Natijalar asosida gidrotozalash jarayonining optimal parametrlari aniqlanadi va keyingi bo‘limda tahlil qilinadi.

ISSN 3030-3907




Figura 2. Co–Mo/Al_2O_3 katalizatori yuzasida gidrotozalash jarayonining mexanizmi.

2-figurada Co–Mo/Al_2O_3 katalizatori granulasi yuzasida sodir bo‘ladigan asosiy gidrotozalash reaksiyalari vizual tarzda ko‘rsatilgan. Katalizatorning asosiy tarkibi alyuminiy oksid (Al_2O_3) tashuvchisiga joylashtirilgan molibden sulfidi (MoS_2) faol markazlari va kobalt promotori hisoblanadi. Ushbu faol markazlarda neft fraksiyalaridagi oltingugurtli, azotli va aromatik birikmalar vodorod ishtirokida katalitik gidrogenlanish reaksiyalariga kirishadi. Jarayonning birinchi bosqichida uglevodorod molekulalari katalizator yuzasiga adsorbsiya qilinadi. Shu bilan birga vodorod molekulalari katalizator yuzasida dissotsiyalanib faol atomar vodorodga aylanadi: $H_2 \rightarrow 2H$

Hosil bo‘lgan aktiv vodorod atomlari katalizator yuzasida joylashgan organik birikmalar bilan reaksiyaga kirishadi.

Katalizator yuzasida sodir bo‘ladigan asosiy reaksiyalardan biri gidrodesulfurizatsiya hisoblanadi. Bu jarayonda oltingugurtli birikmalar vodorod bilan reaksiyaga kirishib vodorod sulfidi hosil qiladi:

$$R{-}S{-}R{+}H_2 \rightarrow H_2S{+}R{-}H$$

Masalan, tiofen molekulasi gidrogenlanish natijasida vodorod sulfidi va to‘yingan uglevodorodlarga parchalanadi:

$$C_4H_4S{+}H2 \rightarrow H_2S{+}C_4H_{10}$$

Ikkinchi muhim jarayon gidrodenitrifikatsiya hisoblanadi. Ushbu reaksiyada azotli organik birikmalar vodorod bilan reaksiyaga kirishib ammiak hosil qiladi:

$$R{-}NH_2{+}H_2 \rightarrow NH_3{+}R{-}H$$

Natijada azot birikmalari katalizator yuzasidan gaz fazaga ajralib chiqadi.

ISSN 3030-3907

Bundan tashqari katalizator yuzasida aromatik uglevodorodlarning gidrogenlanish reaksiyalari ham sodir bo‘ladi. Masalan, benzol molekulasi vodorod bilan reaksiyaga kirishib siklogeksanga aylanadi:

$$C_6H_6+3H_2\rightarrow C_6H_{12}$$

Ushbu reaksiyalar natijasida aromatik uglevodorodlar miqdori kamayadi va baza moyining oksidlanish barqarorligi yaxshilanadi.

Reaksiyalar yakunida hosil bo‘lgan mahsulotlar – vodorod sulfidi (H_2S), ammiak (NH_3) va to‘yingan uglevodorodlar katalizator yuzasidan desorbsiya qilib gaz yoki suyuq fazaga o‘tadi. Natijada xomashyo tarkibidagi zararli heteroatomli birikmalar kamayadi va yuqori tozalikka ega baza moyi hosil bo‘ladi.

Shunday qilib, Co–Mo/Al_2O_3 katalizatori yuzasida sodir bo‘ladigan gidrotozalash reaksiyalari neft fraksiyalarini chuqur tozalashda muhim rol o‘ynaydi hamda tekstil sanoati uchun zarur bo‘lgan yuqori sifatli baza moylarini olish imkonini beradi.

NATIJALAR

I-12 baza moyini gidrotozalash jarayonining samaradorligini baholash uchun jarayon parametrlarining (temperatura, bosim va hajmiy tezlik) mahsulot sifatiga ta’siri o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, gidrotozalash jarayoni natijasida heteroatomli birikmalar miqdori sezilarli darajada kamayadi hamda moyning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari yaxshilanadi.

Gidrotozalash jarayonidan oldingi va keyingi mahsulot tarkibi laboratoriya tahlillari asosida solishtirildi.

6-Jadval

Gidrotozalashdan oldingi va keyingi mahsulot xossalari

Ko‘rsatkich	Xomashyo	Gidrotozalangan mahsulot
Oltingugurt miqdori	0.14 %	0.001–0.002 %
Azot miqdori	0.02 %	<0.001 %
Aromatik uglevodorodlar	20 %	8–10 %
Rang ko‘rsatkichi	3–4	0.5–1
Kinematik qovushqoqlik (40°C)	12 mm^2/s	11.8 mm^2/s

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, gidrotozalash jarayonida heteroatomli birikmalar deyarli to‘liq olib tashlanadi, aromatik uglevodorodlar esa qisman gidrogenlanadi. Shu bilan birga baza moyining qovushqoqlik ko‘rsatkichi deyarli o‘zgarmaydi, bu esa tekstil moylari ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Temperatura ta’siri

Gidrotozalash jarayonining samaradorligiga eng katta ta’sir ko‘rsatadigan omillardan biri temperatura hisoblanadi. Temperatura oshishi bilan katalitik

ISSN 3030-3907

reaksiyalar tezligi ortadi va oltingugurtli birikmalarni vodorodlash jarayoni tezlashadi.

Tadqiqot natijalari 320–360 °C temperaturalar oralig‘ida o‘rganildi.

7-Jadval

Temperatura ta’sirida oltingugurt miqdorining kamayishi

Temperatura (°C)	Oltingugurt miqdori (%)	Tozalanish darajasi (%)
320	0.045	68
330	0.020	86
340	0.010	93
350	0.004	97
360	0.002	98

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, temperatura oshishi bilan gidrodesulfurizatsiya reaksiyalari tezlashadi va oltingugurt miqdori keskin kamayadi.




Figura 3. Temperaturaning oltingugurtni tozalash darajasiga ta’siri

Grafikda temperatura oshishi bilan gidrotozalash samaradorligining ortishi ko‘rsatilgan. 320 °C da oltingugurtni tozalash darajasi taxminan 70 % ni tashkil etsa, 350–360 °C temperaturada bu ko‘rsatkich 97–98 % gacha yetadi.

Bosimning ta’siri

Vodorod bosimi gidrotozalash jarayonining muhim parametrlaridan biridir. Bosim ortishi vodorodning katalizator yuzasida adsorbsiyasini kuchaytiradi va gidrogenlash reaksiyalarini tezlashtiradi. Samaradorlik oshadi.

ISSN 3030-3907

7-Jadval

Bosimning aromatik uglevodorodlar miqdoriga ta’siri

Bosim (MPa)	Aromatik uglevodorodlar (%)
3	12
4	10
5	8

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bosim oshishi bilan aromatik uglevodorodlarning gidrogenlanish darajasi ortadi. Bu esa moyning rang ko‘rsatkichini yaxshilaydi va oksidlanish barqarorligini oshiradi. Aramatik uglevodorodlarni kamayishi qovushqoqlikni ham oshiradi

Hajmiy tezlik (LHSV) ta’siri

Hajmiy tezlik katalizator bilan kontakt vaqtini belgilaydi. LHSV kamayishi bilan xomashyoning katalizator bilan aloqa vaqti ortadi va gidrotozalash jarayoni samaradorligi oshadi.




Figura 4 LHSV (hajmiy tezlik)ning tozalanish samaradorligiga ta’siri

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, LHSV kamayishi bilan gidrodesulfurizatsiya samaradorligi ortadi. Biroq juda past hajmiy tezlik sanoat jarayonlarida iqtisodiy samaradorlikni kamaytirishi mumkin.

Optimal jarayon parametrlari

Olingan natijalar asosida I-12 baza moyini gidrotozalash uchun optimal texnologik sharoitlar aniqlangan.

ISSN 3030-3907

8-Jadval

Optimal texnologik parametrlar

Parametr	Optimal qiymat
Temperatura	340–350 °C
Bosim	4–5 MPa
LHSV	1.0 $soat^{-1}$
Vodorod sarfi	300 Nm^3/m^3

Ushbu sharoitlarda baza moyidagi heteroatomli birikmalar miqdori minimal darajaga tushadi va tekstil moylari ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan sifat ko‘rsatkichlariga erishiladi.

MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot natijalari I-12 marka baza moyini gidrotozalash jarayonida texnologik parametrlarning mahsulot sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. 3-bo‘limda keltirilgan natijalar (Jadval 4–8) shuni ko‘rsatdiki, gidrotozalash jarayonida heteroatomli birikmalar miqdori keskin kamayadi va moyning asosiy fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanadi.

Birinchi navbatda, gidrotozalash jarayonida oltingugurtli birikmalarning kamayishi gidrodesulfurizatsiya reaksiyalari hisobiga sodir bo‘ladi. Bu jarayonda oltingugurtli organik birikmalar vodorod bilan reaksiyaga kirishib vodorod sulfidi hosil qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, gidrotozalash jarayonidan so‘ng oltingugurt miqdori 0.14 % dan 0.002 % gacha kamayadi (Jadval 4). Bu ko‘rsatkich gidrotozalash jarayonining yuqori samaradorligini ko‘rsatadi va boshqa tadqiqotlarda keltirilgan ma’lumotlar bilan mos keladi [3].

Temperaturaning jarayon samaradorligiga ta’siri 3.1-bo‘limda ko‘rib chiqildi. Olingan natijalar (Jadval 5 va 2-Figura) shuni ko‘rsatadiki, temperatura oshishi bilan gidrodesulfurizatsiya reaksiyalari tezlashadi. 320 °C da oltingugurtni tozalash darajasi taxminan 70 % ni tashkil etgan bo‘lsa, temperatura 350 °C ga yetganda bu ko‘rsatkich 97 % dan yuqori bo‘ladi. Bu holat katalizator yuzasida sodir bo‘ladigan reaksiyalarning aktivatsiya energiyasi bilan izohlanadi.

Biroq temperaturaning haddan tashqari oshishi gidrokraking reaksiyalarining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Bunday sharoitda uglevodorod zanjirlari parchalanib, engil fraksiyalar hosil bo‘ladi. Bu esa baza moyining qovushqoqlik xossalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli gidrotozalash jarayonida optimal temperatura diapazoni 340–350 °C atrofida bo‘lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bosimning ta’siri ham gidrotozalash jarayonida muhim ahamiyatga ega. Vodorod bosimi ortishi bilan aromatik uglevodorodlarning gidrogenlanish darajasi ortadi. Tadqiqot natijalari (Jadval 6) shuni ko‘rsatadiki, bosim 3 MPa dan 5 MPa

ISSN 3030-3907

gacha oshirilganda aromatik uglevodorodlar miqdori 12 % dan 8 % gacha kamayadi. Aromatik birikmalarning kamayishi moyning rang ko‘rsatkichini yaxshilaydi hamda oksidlanish barqarorligini oshiradi.

Hajmiy tezlik (LHSV) ham gidrotozalash jarayonining samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. LHSV kamayishi bilan xomashyoning katalizator bilan kontakt vaqti ortadi. Natijada gidrodesulfurizatsiya va gidrodenitrifikatsiya reaksiyalari chuqurroq sodir bo‘ladi. Jadval 7 ma’lumotlariga ko‘ra, LHSV 1.5 $soat^{-1}$ dan 0.8 $soat^{-1}$ gacha kamayganda oltingugurtni tozalash darajasi 89 % dan 98 % gacha ortadi.

Biroq juda past hajmiy tezlik sanoat qurilmalarining ishlab chiqarish quvvatini kamaytirishi mumkin. Shu sababli texnologik jarayonlarni loyihalashda samaradorlik va iqtisodiylik o‘rtasida optimal muvozanatni tanlash muhim hisoblanadi.

Olingan natijalar asosida gidrotozalash jarayonining optimal texnologik parametrlari aniqlangan (Jadval 8). Ushbu parametrlar quyidagilarni tashkil etadi:

- temperatura: 340–350 °C
- bosim: 4–5 MPa
- LHSV: 1.0 $soat^{-1}$
- vodorod sarfi: 300 Nm^3/m^3

Ushbu sharoitlarda I-12 baza moyining asosiy sifat ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanadi. Xususan, oltingugurt miqdori ppm darajasigacha kamayadi, aromatik uglevodorodlar miqdori esa ikki martadan ortiq kamayadi.

Tekstil sanoati uchun mo‘ljallangan moylarning asosiy talablaridan biri ularning rangsizligi va kimyoviy barqarorligidir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, gidrotozalash jarayoni natijasida moyning rang ko‘rsatkichi 3–4 birlikdan 0.5–1 birlikgacha kamayadi. Bu esa tekstil sanoati talablariga mos keladigan yuqori sifatli moy olish imkonini beradi.

Bundan tashqari, gidrotozalash jarayoni baza moyining qovushqoqlik xossalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi. Jadval 4 ma’lumotlariga ko‘ra, gidrotozalashdan so‘ng qovushqoqlik qiymati deyarli o‘zgarmaydi. Bu esa tekstil moylari ishlab chiqarishda juda muhim hisoblanadi, chunki moyning qovushqoqligi texnologik jarayonlarning barqarorligini belgilaydi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari gidrotozalash jarayonining I-12 baza moyidan yuqori tozalikka ega tekstil moylari ishlab chiqarishda samarali texnologik usul ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu jarayon neftni qayta ishlash sanoatida mavjud gidrotozalash qurilmalarida amalga oshirilishi m umkin va katta qo‘shimcha texnologik o‘zgarishlarni talab qilmaydi.

XULOSA

ISSN 3030-3907

Ushbu tadqiqot ishida tekstil sanoati uchun mo‘ljallangan yuqori tozalikka ega moy olish maqsadida I-12 marka baza moyini maksimal darajada chuqur gidrotozalash jarayonini loyihalash masalasi ko‘rib chiqildi. Tadqiqot davomida xomashyoning fizik-kimyoviy xossalari tahlil qilindi, gidrotozalash jarayonining texnologik sxemasi ishlab chiqildi hamda jarayon parametrlarining mahsulot sifatiga ta’siri o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, gidrotozalash jarayoni I-12 baza moyi tarkibidagi heteroatomli birikmalarni samarali ravishda kamaytirish imkonini beradi. Laboratoriya tajribalari natijasida oltingugurt miqdori 0.14 % dan 0.002 % gacha kamaygani aniqlandi. Shu bilan birga azot birikmalari miqdori ham sezilarli darajada kamayib, mahsulot tarkibidagi aromatik uglevodorodlar miqdori ikki martadan ortiq pasaydi. Bunday o‘zgarishlar gidrotozalash jarayonida sodir bo‘ladigan gidrodesulfurizatsiya, gidrodenitrifikatsiya va aromatik uglevodorodlarni gidrogenlash reaksiyalari bilan izohlanadi.

